

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS
TA‘LIM VAZIRLIGI
O‘RTA MAXSUS, KASB-HUNAR TA‘LIMI MARKAZI**

YO‘LDOSH TURSUNOV

IJTIMOIIY TA‘MINOT HUQUQI

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

**„O‘QITUVCHI“ NASHRIYOT-MATBAA IJODIY UYI
TOSHKENT — 2013**

Y. TURSUNOV. Ijtimoiy ta'minot huquqi. (Kasb-hunar kollejlari uchun darslik)

Taqrizchilar: **R. K. Nabiyeva** — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining Toshkent shahar, Olmazor tumani bo'lim boshlig'i;

Sh.M. Gaziyeu — TDYI „Mehnat va ijtimoiy himoya huquqi“ kafedrası o'qituvchisi, y.f.n.

Ta'lim standartlari talablariga mos darslik va o'quv qo'llanmalar tayyorlash Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida belgilangan dolzarb vazifalardan biri bo'lib, zamonaviy mutaxassis kadrlar tayyorlashda muhim o'rin tutadi.

Kasb-hunar kollejlari tizimi orqali tayyorlanayotgan o'rta bo'g'in mutaxassislarini fan va amaliyotda yuz berayotgan nazariy hamda amaliy jarayonlar, yangilanishlar bilan yaqindan tanishtirish, ularga huquqiy islohotlarimiz sohasida amalga oshirib kelinayotgan ishlar, qonunimizdagi tub o'zgarishlar haqida yetarli axborot va ma'lumot berish, chuqur kasbiy ko'nikma va bilimlar yetkazish zamonamizning dolzarb vazifalaridan sanaladi.

Mazkur darslik kasb-hunar ta'limi muassasalarida „Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanini o'qitish dasturiga muvofiq tayyorlandi va unda ushbu fan bo'yicha o'quv dasturiga muvofiq bilimlar berish nazarda tutildi.

Darslik amaliyotchi mutaxassislar, o'qituvchilar, korxona va tashkilotlarning rahbarlari pensiyalar va ijtimoiy himoya qonunchiligi masalalari bilan qiziquvchi kitobxonlar ommasi uchun mo'ljallangan.

KIRISH

Jahonda moliyaviy-iqtisodiy inqiroz va tangliklar avj olayotgan davrda mamlakatimiz iqtisodi, ijtimoiy sohalari, madaniy-ma'naviy hayotida qo'lga kiritilayotgan salmoqli yutuqlar oldimizga qo'yilgan ezgu va oliy maqsad real amalga oshishini, ko'zlagan manzilimizga ishonch bilan intilayotganimizni yaqqol isbotlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A. Karimov ta'kidlaganidek: „Haqiqatan ham, qariyb yigirma yillik mustaqil taraqqiyotimiz mobaynida O'zbekistonda yalpi ichki mahsulotning o'sishi 3,5 barobarni, aholi jon boshiga hisoblaganda esa 2,5 barobarni, aholining real daromadlari 3,8 barobarni tashkil etgani e'tiborga sazovordir. Ayniqsa, ijtimoiy-gumanitar sohada erishilgan maralar — aholini ijtimoiy himoya qilish uchun yo'naltirilgan davlat xarajatlarining 5 barobar ko'paygani, turmush darajasining sezilarli ravishda yaxshilangani va buning natijasida bolalar o'limi uch barobar kamaygani, odamlarning o'rtacha umr ko'rishi 67 yoshdan 73 yoshga, jumladan, ayollarning o'rtacha umr ko'rishi 75 yoshga yetganini mamnuniyat bilan ta'kidlasak arziydi, deb o'ylayman“¹.

Ushbu fikrlar mutaxassis kadrlar tayyorlash, ularning zamonaviy bilimlarga, amaliy ko'nikmalarga ega bo'lishlari, mamlakatimizning bugungi kuni va istiqboli uchun nechog'liq katta ahamiyat kasb etishini yaqqol ko'rsatib turibdi.

O'zbekiston Respublikasining xalqaro huquqning mustaqil subyekti sifatida jahon hamjamiyatiga integratsiyalashuvi, xalqaro norma va qoidalarni tobora kengroq milliy qonunchiligimizga singdirib borilayotgani, demokratlashtirish va erkinlashtirish jarayonlarining jadal rivojlanayotgani, inson huquqlari bebaho qadriyat sifatida e'tirof qilingani va davlat organlari, jamoat birlashmalari faoliyati inson manfaatlariga bo'ysundirilganligi mazkur darslikda o'z aksini topgan.

¹ I.A. Karimov. Mamlakatimizda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. T., „O'zbekiston“ NMIU, 2010, 4—5-b.

UMUMIY QISM

I BOB. „IJTIMOIY TA'MINOT HUQUQI“ FANINING TUSHUNCHASI, MAZMUNI, TIZIMI. IJTIMOIY TA'MINOT TURLARI

1.1. „Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanining tushunchasi, fuqarolarning ijtimoiy ta'minot olishga bo'lgan konstitutsiyaviy huquqlarining ta'minlanishidagi vazifalari

Ijtimoiy ta'minot olish va ijtimoiy muhofaza yordami huquqidan foydalanish fuqarolarning muhim konstitutsiyaviy huquqlaridan bo'lib, bu huquqdan foydalanish uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratish davlat va jamiyat zimmasidagi asosiy funksiyalardan sanaladi.

Kuchli ijtimoiy himoyalash siyosati tufayli yoshi, salomatlik holati va boshqa obyektiv sabablarga ko'ra yordamga muhtoj aholi moddiy-ijtimoiy muhofazasi izchil va keng miqyosda amalga oshirib kelinmoqda.

Ijtimoiy himoya deganda, obyektiv sabablarga ko'ra, davlat va jamiyat ko'magiga muhtoj bo'lgan aholi tabaqalariga davlat va jamiyat mablag'laridan moddiy (nafaqa va moddiy yordam, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish hamda imtiyozlar berish nazarda tutiladi. Ijtimoiy himoya choralari ko'rilishi natijasida ehtiyojmand fuqarolarning turmush ko'rsatkichlari boshqa fuqarolar turmush darajasiga yaqinlashtiriladi, ularga o'z ehtiyojlarini minimal doirada qondirish imkoniyati yaratiladi.

Ijtimoiy ta'minot esa fuqaroning avvalgi davrlardagi mehnat faoliyati davomida olgan daromadlaridan davlat ijtimoiy sug'urta jamg'armasiga badal tariqasida o'tkazib turilgan mablag' hisobiga Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan muntazam va mehnat faoliyati davri hamda sifatiga mutanosib tarzda muntazam to'lovlarni amalga oshirish yo'li bilan ta'minlashdan iborat.

Ijtimoiy ta'minot davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash, davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalarini tayinlash va to'lash, shu

hisobdan turli ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish (bepul sanatoriy va kurortga yo'llanmalar berish, bepul davolash va boshqalar) yo'li bilan amalga oshiriladi.

Davlat tomonidan pensiya va nafaqalar bilan ta'minlash ham keng ma'noda, ijtimoiy himoyalashdan iborat, ammo, bunda fuqaroning mehnat faoliyati bilan mashg'ul bo'lgani, uning uchun davlatga ijtimoiy sug'urta badallari to'lab turilgani hal qiluvchi rol o'ynaydi.

„Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fani — fuqarolarga ijtimoiy muhofaza yordamlarini ko'rsatish, ularni ijtimoiy ta'minlash, qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni amalga oshirishining huquqiy asoslarini belgilash, ijtimoiy muhofaza va ijtimoiy ta'minotni amalga oshirishi chog'ida yuz beradigan ijtimoiy munosabatlar, bu munosabatlarni huquqiy tartibga solish, fuqarolarning ijtimoiy ta'minot sohasidagi huquq va manfaatlarini samarali muhofaza etilishini tashkillashtirish, davlat va jamiyat manfaatlariga qilinishi mumkin bo'lgan tajovuzlarni bartaraf etish vazifalarini bajaradi.

Shunday qilib, „Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanining predmeti bo'lib, ijtimoiy muhofaza yordami ko'rsatish, ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish chog'ida fuqarolar va davlat ijtimoiy ta'minot organlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish idoralari, nodavlat notijorat tashkilotlari, korxona va tashkilotlar o'rtasida yuzaga keladigan, ijtimoiy ta'minotga oid qonun hujjatlari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar hisoblanadi.

1.2. „Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanining metodi. Fanning tizimi

„Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fani — davlatga oid huquq sohasi sifatida o'z predmeti sanaluvchi ijtimoiy munosabatlarni o'ziga xos usullari (metod) bilan tartibga soladi.

Ijtimoiy ta'minot huquqi imperativlikka tayangani holda ish ko'radi va qonun hujjatlarida belgilangan majburiyatlarining qat'iyligi, munosabatning ishtirokchilar kelishuviga ko'ra o'zgartirilmاسligi, kelishuv asosida ish ko'rib bo'lmasligi diqqatga sazovordir.

„Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fani va ijtimoiy ta'minot qonunchiligi tarmog'i o'zaro o'xshash, ayni paytda bir-biridan farq qiluvchi tizimga ega.

Ijtimoiy ta'minot huquqi tizimi deganda, ushbu fanga xos bo'lgan asosiy huquqiy institutlarning o'ziga xos mazmunga ega bo'lgani holda yagona fan predmeti sifatida o'zaro bog'liqligi va yaxlit holdaligi nazarda tutiladi. Ijtimoiy ta'minot huquqi umumiy va maxsus qismlardan iborat.

„Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanining umumiy qismi fan tushunchasi, predmeti, metodi, manbalari va tamoyillari, ijtimoiy ta'minotga oid huquqiy munosabat va uning subyektlari, mehnat staji va uning ahamiyati kabi institut va tushunchalarni qamrab oladi.

„Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanining maxsus qismi ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy muhofazalash bilan bog'liq bo'lgan aniq va ayrim munosabat turlari, ularning yuzaga kelishi, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya yordamlarini ta'minlab berilishi masalalarini o'zida aks ettiradi. Bular jumlasiga: davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash, fuqarolarning nafaqalar bilan ta'minlanishi, ijtimoiy yordam va xizmatlar ko'rsatish, davlat ta'minotiga olish va ijtimoiy imtiyoz va yordamlar berish kabilar kiradi. Shuningdek, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya sohasidagi xalqaro hamkorlik, jahon mamlakatlarining ilg'or tajribasini o'rganish, ijtimoiy ta'minot sohasida qonuniylikni ta'minlash va javobgarlik masalalari ham fanning maxsus qismida o'rganiladigan predmetlardan sanaladi.

Ijtimoiy ta'minot qonunchiligi sohasining tizimi uning oldiga qo'yilgan maqsad va vazifalardan kelib chiqqan holda belgilanadi. Ijtimoiy ta'minot qonunchiligi tizimi o'z ichiga fuqarolarni davlat pensiyalari bilan, jamg'arib boriladigan pensiya bilan ta'minlash, davlat ijtimoiy sug'urta nafaqalari, ijtimoiy nafaqalar tayinlash va to'lash, ularga tibbiy va boshqa yordamlarni ko'rsatish, natural holdagi ijtimoiy xizmatlar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari orqali ko'rsatiladigan ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy to'lovlar, davlat ta'minotiga olish va ijtimoiy muassasalar faoliyatini tartibga solish, fuqarolarga ijtimoiy imtiyoz va yengilliklar berish kabi masalalardagi qonunchilik va qonunosti hujjatlari majmuyini qamrab oladi.

„Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fani sohaning va fuqarolarning ijtimoiy ta'minoti hamda ijtimoiy himoyasini rivojlantirishining ilmiy-nazariy masalalari, qonunchilikni takomillashtirish muammolari, mutaxassis kadrlar tayyorlash va boshqa nazariy hamda amaliy masalalar bilan shug'ullanadi.

Ijtimoiy ta'minot huquqining qonunchilik tarmog'i esa fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash va himoya qilish bilan bog'liq munosabatlarini tartibga solish, bunday ta'minotlarni berish shartlari va tartiblarini belgilash, ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoyalash munosabatlarida fuqarolarning huquq va manfaatlarini, davlat va jamiyat manfaatlarini samarali himoyalash, qonunbuzarliklar uchun javobgarlikni belgilash vazifalarini bajaradi.

1.3. „Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanining boshqa fan sohalari bilan o'zaro aloqadorligi

„Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fan sohasi sifatida bir qator iqtisodiy va huquqiy fanlar bilan o'zaro aloqador hamda ularning tushunchalari, uslublaridan foydalanadi, ushbu fanlar erishgan yutuqlarga tayanib ish ko'radi.

Ijtimoiy ta'minot huquqi eng avvalo, *„Iqtisodiyot nazariyasi“* fani bilan bog'liq bo'lib, pensiya va nafaqalar tayinlanishida, to'lanishida uning „korxona foydasi“, „sof foyda“, „ish haqi fondi“, „ish haqi“ kabi tushunchalaridan foydalanadi. Pensiya va nafaqalar mohiyat jihatidan mamlakatimizda yaratilgan yalpi ichki mahsulot, milliy daromadning muayyan qismini fuqarolar ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy muhofazasi uchun ajratilishi va sarflanishidan iboratdir.

Ijtimoiy ta'minot huquqi „Mehnat huquqi“ fani bilan chambarchas bog'liq va fuqaroning mehnat shartnoma munosabatlarida ishtirok etishi va ish haqi tarzida olgan daromadlari ijtimoiy ta'minot berishning muhim mezonini sanaladi. „Mehnat staji“, „zararli va noqulay“, „o'ziga xos xususiyatga ega mehnat sharoitlari“, „ish haqi“, „mehnatda mayiblanish va kasb kasalliklari“ kabi ko'plab tushunchalar mehnat huquqi uchun ham, ijtimoiy ta'minot huquqi uchun ham umumiy mazmunga va ahamiyatga egadir.

Ijtimoiy ta'minot huquqi „Moliya huquqi“ fani bilan bevosita bog'liq va keyingi vaqtlarda bu bog'liqlik tobora ortib bormoqda. Moliyaviy resurslar, ularning taqsimlanishi, tasarruf etilishi, boshqarilishi moliya huquqiga xosdir. Davlat moliyaviy munosabatlarining bir turi sifatida ijtimoiy ta'minot munosabatlari ham aynan davlat tomonidan ajratilgan moliyaviy resurslarni to'plash, taqsimlash, ularni fuqarolarga yetkazilishi ijtimoiy ta'minot

organlari, xususan, Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi va uning joylardagi organlari tomonidan amalga oshiriladi. Shu sababli, moliya huquqi va ijtimoiy ta'minot huquqi umumiy metodlar hamda vositalardan foydalangan holda ish ko'radilar.

Ijtimoiy ta'minot huquqi — fuqarolik huquqi, oila huquqi kabi fan sohalari bilan ham bog'liq bo'lib, ularning tushunchalari, huquqiy vositalaridan keng foydalanadi. „Jismoniy shaxs“, „yuridik shaxs“, „huquq va muomala layoqati“, „oila“, „yaqin qarindoshlik“, „zarar yetkazish“ kabi ko'pgina tushunchalar ijtimoiy ta'minot munosabatlarida ham qo'llanilib kelinadi.

„Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fani *davlat huquqi, ma'muriy huquq, jinoyat huquqi, fuqarolik protsessi* kabi boshqa bir qator huquqiy fanlar bilan ham o'zaro aloqadordir.

Fanlar integratsiyalashuvi, fan va texnologiya yutuqlarining amaliyotda keng joriy qilinishi, axborot texnologiyalarining ijtimoiy hayotimizga tobora ko'proq kirib kelayotgani fanlar o'rtasidagi yaqinlik va o'zaro yaqinlashuvni yana ham kuchaytirishi shubhasizdir.

KALIT SO'ZLAR. Ijtimoiy ta'minot olish huquqi, ijtimoiy ta'minot, „ijtimoiy muhofaza“, davlat ijtimoiy himoya siyosati, ehtiyojmand fuqarolar, ijtimoiy ta'minotga oid qonunchilik tizimi, yalpisiga ijtimoiy himoyalash, manzilli (aniq yo'naltirilgan) ijtimoiy himoya.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Ijtimoiy himoya siyosati deganda nima nazarda tutiladi?
2. Ijtimoiy ta'minot deganda nimalar nazarda tutiladi?
3. Ijtimoiy muhofaza nima va uning ijtimoiy ta'minotdan qanday farqi bor?
4. „Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanining predmeti nimalardan iborat ekanligini so'zlab bering.
5. Ijtimoiy ta'minot munosabatlarini huquqiy tartibga solish metodi qanday?
6. Ijtimoiy ta'minot huquqi va ijtimoiy ta'minot qonunchilik tizimlari haqida nimalarni bilasiz?
7. „Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fani qaysi huquqiy va iqtisodiy fanlar bilan bog'liq?
8. „Ijtimoiy ta'minot huquqi“ fanining vazifalari nimalardan iborat?

II BOB. IJTIMOYIY TA'MINOT HUQUQINING ASOSIY TAMOYILLARI

2.1. Ijtimoiy ta'minot huquqi tamoyillari tushunchasi va ularning tavsifi hamda ularning aholini ijtimoiy ta'minlash va himoyalashdagi o'rni

Ijtimoiy ta'minot huquqining *tamoyillari* umumhuquqiy *tamoyillardan* hamda turli shakllardagi ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishiga bevosita taalluqli bo'lgan o'ziga xos *tamoyillardan* iboratdir.

Ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishida qonuniylikka amal qilish, kamsitishga yo'l qo'ymaslik, insonparvarlik, demokratizm kabi umumhuquqiy tamoyillarga so'zsiz amal qiladi. Bu tamoyillarning ro'yobga chiqarilishi Respublikamiz Konstitutsiyasi va boshqa qonunlar bilan to'la kafolatlangan bo'lib, ulardan qandaydir tarzda chekinish inson huquqlarining poymol etilishi sifatida baholanadi hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan huquqiy javobgarliklarni keltirib chiqaradi.

Yuqoridagilardan tashqari ijtimoiy ta'minot huquqining o'ziga xos, maxsus tamoyillari ham mavjud bo'lib, bu tamoyillar ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishiga, u yoki bu shakldagi ijtimoiy yordam xususiyatlariga va boshqalarga taalluqli bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minot huquqining maxsus tamoyillari jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. *Ijtimoiy ta'minotning umumiyliigi va keng qamrovli tusga egaligi.* Bunda fuqarolarni millati, jinsi, ijtimoiy mavqeyi va boshqa farqlaridan qat'i nazar muayyan ko'rsatkichlar mavjud bo'lgani taqdirda teng asoslarda ijtimoiy ta'minot olishlari tushuniladi. Shuni qayd etish kifoyaki, bugungi kunda uch yarim millionga yaqin fuqarolar davlat pensiyalari bilan, yuz minglab oilalar hamda ehtiyojmand fuqarolar nafaqalar va boshqa moddiy yordam olmoqdalar, ana shu maqsadlar uchun davlat budjetidan katta moliyaviy mablag'lar sarflanmoqda.

2. *Ijtimoiy himoyaning manzilli va aniq yo'naltirilganligi hamda boqimandalikka yo'l qo'yilmasligi.* Ijtimoiy himoya choralari o'zining salomatligi, ahvoli, yoshi, oilaviy sharoiti yoki boshqa obyektiv sabablarga ko'ra, o'zini o'zi mustaqil ta'minlashga qodir

bo'lmagan, davlat va jamiyat ko'magiga muhtoj bo'lgan va muhtoj deb topilgan fuqarolar va oilalargagina ko'rsatilishi mumkin.

Bozor munosabatlari chog'ida o'z salohiyat va imkoniyatlaridan to'liq foydalanmagan holda davlat yordamiga ko'z tikishga yo'l qo'yib bo'lmaydi, zero, davlatning barcha fuqarolarini teng va yalpisiga ijtimoiy ta'minlash imkoni mavjud emas. Shu sababli mehnatga yaroqli fuqarolar eng avvalo, o'z kuch va imkoniyatlariga tayanmoqlari lozim. Ijtimoiy himoyaning aniq yo'naltirilganligi va manzilli tarzda amalga oshirilishi qonun hujjatlari bilan mustahkamlangan¹.

3. *Ijtimoiy ta'minot uchun ajratiladigan mablag'ning yetarli darajadaligi.* Ya'ni: pensiyalar miqdorini belgilash paytida turmush kechirish uchun zarur bo'lgan eng kam mablag' ko'rsatkichi, iste'mol dasturi tarkibiga kiruvchi eng zarur mahsulotlar va xizmatlar to'plami uchun zarur bo'lgan mablag'ning eng kam darajasi e'tiborga olinishi ushbu tamoyil mohiyatini tashkil etadi. Pensiyalarning eng kam miqdorlari qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yilishi hamda ushbu eng kam miqdordan kam bo'lishiga yo'l qo'yilmasligi, vaqt-vaqti bilan qayta ko'rilib, indeksatsiya qilib turilishi orqali mazkur tamoyil ro'yobga chiqariladi.

Ijtimoiy ta'minotning yetarli darajada bo'lishi tamoyili BMTning 1966- yil 19-dekabrda iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro Paktning 11-moddasi, 1-bandida nazarda tutilgan: „Ushbu Paktda ishtirok etuvchi davlatlar har bir kishi o'zi va oilasi uchun yetarli oziq-ovqat, kiyim-kechak va uy-joy hamda turmush sharoiti to'xtovsiz yaxshilanib borishini o'z ichiga oladigan yetarli turmush darajasi bo'lishi huquqini e'tirof etadi“ degan qoidaga asoslanadi.

4. *Ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, korxona va tashkilotlar, jamoat birlashmalarining bevosita ishtirok etishlari tamoyili.* Mamlakati-mizda fuqarolik jamiyati barpo etilayotganligi, kuchli davlatchilikdan kuchli jamiyatga tomon rivojlanib borilayotganligi namoyon bo'lishi ko'rinishlaridan biri — davlatga xos funksiyalar jamiyatga o'tkaza borilayotganligida, avval davlat organlari bajarib kelgan vazifalar bosqichma-bosqich fuqarolar yig'inlari, boshqa jamoat organlari zimmasiga yuklanayotganligida ko'zga tashlanadi.

¹ *Islom Karimov.* Yangicha fikrlash va ishlash — davr talabi. 5-kitob. T. „O'zbekiston“. 1997-yil. 288-bet.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi „Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida“gi Farmoni qabul qilindi.

Bugungi kunda ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishida korxona va tashkilotlar, ularning mehnat jamoalari, turli nodavlat nohukumat jamg'armalari, xayriya tashkilotlari, tadbirkor fuqarolar va boshqa shaxslar ham ishtirok etib kelmoqdalar. Bu tendensiyaning tobora kuchayib borishi bashorat qilinmoqda. Binobarin, ojizlarga rahm-shafqat qilish, yordam qo'lini cho'zish, saxovatpeshalik, bag'rikenglik o'zbek xalqining milliy xususiyati bo'lib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan bebaho an'analarimizdan, qadimiy qadriyatlarimizdan sanaladi.

5. *Mamlakatimizda xilma-xil shakllarda ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilish tamoyili.* Ijtimoiy ta'minotga oid qonunchilik hujjatlarida ta'minot har xil shakllarda, xususan, pensiyalar, bir martalik moddiy yordamlar, ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish, muayyan imtiyozlar va turlicha yengilliklar ko'rinishida amalga oshirilishi nazarda tutilgan. Kelgusida ijtimoiy yordam ko'rsatish shakllari yanada xilma-xillashuvi, shaklan mukammallashib borishi kutilmoqda.

Ijtimoiy ta'minotning qaysi shaklda amalga oshirilish masalasi aniq shart-sharoitlarni hisobga olgan holda qonun hujjatlari bilan belgilab qo'yiladi.

Ijtimoiy ta'minotning asosiy shakli pensiyalar va nafaqalar berishdan iborat ekanligi shubhasiz hamda ijtimoiy ta'minotning ushbu ikki shakli yetakchi mavqeyini saqlab qolishi aniq, ammo pensiya va nafaqalar ham shaklan takomillashib borishi tabiiy holdir.

6. *Ijtimoiy ta'minotni nodavlat, homiylar mablag'lari hisobidan amalga oshirilishining davlat tomonidan har tomonlama rag'batlantirilishi va qo'llab-quvvatlanishi tamoyili.*

Odatda, fuqarolar ijtimoiy ta'minot uchun oldindan badallar to'lamaydilar (qonunda inobatga olingan hollardan, yakka tadbirkor va dehqon xo'jaligi a'zosi bo'lgan fuqarolardan tashqari) va ijtimoiy ta'minot budjet mablag'lari, budjetdan tashqari pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi. Ammo kelgusida pensiya ta'minoti tizimlarida islohotlar qilinishi natijasida fuqarolarning shaxsiy mablag'lari hisobiga parallel pensiya ta'minoti

tizimlari ham vujudga keltirilishi mumkin. Jahonning ayrim rivojlangan mamlakatlarida ana shunday nodavlat ijtimoiy ta'minot tizimlarining mavjudligi va amal qilib turganligi, hozirda mustaqil bo'lgan hamdo'stlik davlatlarining ba'zilarida ham shunday nodavlat pensiya ta'minoti tizimlarini barpo etilayotganligi bizning mamlakatimizda ham kelgusida ana shunday o'zgarishlar bo'lishi mumkinligini istisno etmaydi¹.

7. Ijtimoiy ta'minotni amalga oshirilishi ustidan davlat va jamoat nazoratining o'rnatilganligi tamoyili.

Ijtimoiy ta'minotga oid mablag'larni o'z vaqtida va to'liq hajmda to'lanishi, maqsadga muvofiq va to'g'ri sarflanishi, ijtimoiy ta'minotni amalga oshiruvchi davlat hamda jamoat organlari, ularning mansabdor shaxslari faoliyatining qonuniyligi ustidan umumiy nazoratni O'zbekiston Respublikasi prokuratura organlari amalga oshiradi.

— O'zbekiston Respublikasining „Prokuratura to'g'risida“gi qonunining 4-moddasiga muvofiq: „Vazirliklar, davlat qo'mitalari, idoralar, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, jamoat birlashmalari, korxonalar, muassasalar, tashkilotlar, hokimlar va boshqa mansabdor shaxslar tomonidan qonunlarning ijro etilishi ustidan nazorat qilish;

— fuqaroning huquq hamda erkinliklarini ta'minlashga qaratilgan qonunlar ijrosi ustidan nazorat qilish“² prokuratura organlari faoliyati yo'nalishlaridan sanaladi.

Prokuratura organlari tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari, usullari va vositalari yuqorida eslatilgan „Prokuratura to'g'risida“gi qonunda nazarda tutilgan.

Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi nazorat qilish funksiyasini amalga oshirish mexanizmlari idoraviy me'yoriy hujjatlar bilan belgilab qo'yiladi.

¹ Jumladan, keyingi yillarda nodavlat manbalaridan ijtimoiy ta'minlashga qaratilgan bir qator qonunlar qabul qilinganligi ko'rsatib o'tilmog'i lozim. Masalan, „Fuqarolarning jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi 02.12.2004-yil 2-dekabrdagi qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi 2005-y. 1-son, 6-modda; „Homiylilik to'g'risida“ O'zbekiston Respublikasining 02.05.2007-yil 2-maydagi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y. 5-son, 218-modda.

² Qarang: O'zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to'plami. 2001-yil, 20-son, 139-modda.

Ijtimoiy ta'minotning to'g'ri amalga oshirilishi ustidan ta'sirchan va samarali nazorat o'rnatilishi bu sohada qonuniylikni ta'minlash, mablag'larni o'z egalariga yetib borishini ta'minlashning asosiy kafolatlaridan sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi insonparvar demokratik huquqiy davlat, fuqarolik jamiyati barpo etar ekan, xalqaro huquqning umume'tirof etgan qoidalari ustunligini tan oladi va fuqarolarga jahon standartlari darajasida moddiy-ijtimoiy turmush sharoiti va darajasini ta'minlab berishga, har bir shaxsning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlari kafolatlanishi uchun kerakli chora-tadbirlar ko'radi.

Keksayib, mehnatga bo'lgan layoqatini yo'qotganda, boquvchisidan judo bo'lganda va qonunda nazarda tutilgan tegishli hollarda moddiy jihatdan ta'minlanish, ijtimoiy qo'llab-quvvatlanish huquqiga bo'lgan egalik inson huquqlari orasida muhim o'rin tutadi. Bu huquqlar hamda ularning ta'minlab berilishi haqida universal va mintaqaviy xalqaro tashkilotlarning xalqaro hujjatlarida belgilab qo'yilgan, bu huquqlarni ta'minlab berish majburiyati xalqaro hamjamiyat a'zosi bo'lgan har bir davlat zimmasiga muhim majburiyat sifatida yuklatib qo'yilgandir.

Fuqarolarning ijtimoiy ta'minot huquqini olish, ijtimoiy himoyadan foydalanishning asosiy tamoyillari eng avvalo, Birlashgan Millatlar Tashkilotining inson huquqlariga oid universal hujjatlarida, Xalqaro mehnat tashkiloti Konvensiya va Tavsiyalarida, boshqa mintaqaviy xalqaro tashkilotlar, shu jumladan, Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi doirasida qabul qilingan Bitimlar va Ahdlashuvlarda o'z ifodasini topgan.

Bunda BMTning umumbashariy tusdagi universal hujjatlari yetakchi o'rinda turishi e'tiborimiz markazida bo'lmog'i lozim.

KALIT SO'ZLAR. Ijtimoiy ta'minot tamoyillari. Ijtimoiy muhofazaning manzilliligi. Ijtimoiy ta'minotning umuminsoniy tamoyillari. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya sohasidagi xalqaro standartlar. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. Ijtimoiy ta'minotning umumiyligi. Ijtimoiy ta'minlashda kamsitilishga yo'l qo'yilmasligi. Ijtimoiy himoyaning aniq yo'naltirilganligi. Ijtimoiy himoyaning yetarli darajada bo'lishi va xilma-xil shakllarda amalga oshirilishi. Ijtimoiy himoyalashda nodavlat tuzilmalarining faol ishtirok etishi.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Ijtimoiy ta'minot huquqi tamoyillari deganda nimalar nazarda tutiladi?
2. Ijtimoiy ta'minotga oid qanday g'oyalar xalqaro huquqiy hujjatlarda o'z ifodasini topgan?
3. Ijtimoiy ta'minot qonunchiligida ijtimoiy himoyaga doir xalqaro standartlarning o'rni qanday?
4. Ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoyaga oid xalqaro tamoyillar O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy ta'minot qonunchiligida qanday aks ettirilgan?
5. Ijtimoiy ta'minotning mehnat faoliyatiga bog'liq ekanini qanday izohlaysiz?
6. Ijtimoiy ta'minot huquqi tamoyillarini sanab bering.

III BOB. IJTIMOY TA'MINOT HUQUQINING ASOSIY MANBALARI

3.1. Ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari sanaluvchi qonunlar va boshqa qonun hujjatlariga tavsif

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy statusini belgilovchi, asosiy ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy huquqlarni o'zida mustahkamlovchi va ularning amalga oshirilish kafolatlarini nazarda tutuvchi oliy yuridik kuchga ega bo'lgan hujjat sanaladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 39-moddasi ijtimoiy ta'minot olish huquqi va uning kafolatlarini bevosita belgilaydi. Konstitutsiyaning boshqa ko'pgina moddalari fuqarolarning erkinliklari, shaxs daxlsizligi, fuqaroning uzviy huquqlaridan sanalmish shaxsiy va daxlsiz huquqlariga oid normalarni nazarda tutadi va ular ham ijtimoiy ta'minot huquqlarini amalga oshirilishida muhim o'rin egallaydi. Jumladan, Konstitutsiyaning 18-moddasiga ko'ra: „O'zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo'lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeyidan qat'i nazar, qonun oldida tengdirlar.

Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilanib qo'yiladi hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart“.

Konstitutsiyaning 43-moddasiga binoan esa „Davlat fuqarolarning Konstitutsiya va qonunlarda mustahkamlangan huquqlari va erkinliklarini ta'minlaydi“.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi ijtimoiy ta'minotga oid qonunchilik tizimi shakllanishi va rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy yuridik zamin bo'lib xizmat qiladi.

Ijtimoiy ta'minotga oid qonunlar. Fuqarolarni ijtimoiy ta'minotini amalga oshirish va ularni ijtimoiy himoyalash qonunlar asosida amalga oshiriladi. Qonun oliy yuridik kuchga ega va vakolatli davlat organi tomonidan qabul qilingan yuridik hujjat sifatida huquqlar va ularning kafolatlarini nazarda tutadi. Mamlakatimizda qonun ustuvorligi tamoyiliga amal qilinadi va shu tufayli hech bir qonunosti hujjat qonunlarga zid bo'lishi mumkin emas.

Fuqarolar ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy himoyasi sohasida quyidagi qonunlarga amal qiladi:

a) O‘zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi. Kodeksning 16-bobida davlat ijtimoiy sug‘urtasi va ushbu manbadan ijtimoiy ta‘minlashning asosiy qoidalarini nazarda tutadi. (1-§ — Umumiy qoidalar (282—284-moddalar); 2-§ — Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha beriladigan (285-288-moddalar); 3-§ — pensiya ta‘minoti (289—294-moddalar) deb nomlanadi.

b) „Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida“gi O‘zbekiston Respublikasi qonuni¹. Mazkur qonun O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi tomonidan 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan va 1994-yil 1-iyuldan boshlab amalga oshirilgan. Tarkibiy tuzilishiga ko‘ra u:

Muqaddima

I bob. Umumiy qoidalar (1–6-moddalar).

II bob. Yoshga doir pensiyalar (7–14-moddalar).

III bob. Nogironlik pensiyalari (15–18-moddalar).

IV bob. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari (19–24-moddalar).

V bob. Pensiyalarni va ish haqini hisoblab chiqish tartibi (25–36-moddalar).

VI bob. Ish stajini hisoblab chiqarish (37-42-moddalar).

VII bob. Pensiyalar tayinlash (43–48-moddalar).

VIII bob. Pensiyalarni qayta hisoblash (49–51-moddalar).

IX bob. Pensiyalar to‘lash (52–67-moddalar) qismlaridan iborat.

Davlat pensiya ta‘minoti sohasidagi asosiy qonun sifatida „Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida“gi qonun bu sohadagi barcha asosiy normalarni belgilab beradi.

d) O‘zbekiston Respublikasining „Fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti to‘g‘risida“gi qonuni². Mazkur qonun 2004-yil 2-dekabrda qabul qilingan va 2005-yil 1-yanvardan amalga oshirilgan. Qonunning vazifasi fuqarolarning jamg‘arib boriladigan pensiya ta‘minoti sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi 1993-y. 9-son, 338-modda.

² O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Axborotnomasi 1993-y. 9-son, 338-modda. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2004-yil, 51-son, 512-modda.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashovchi chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar jamg'arib boriladigan pensiya ta'minoti olish huquqiga ega.

Ushbu qonun o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra quyidagicha:

I. Umumiy qoidalar (1—5-moddalar).

II. Jamg'arib boriladigan pensiya tizimini tashkil etish (6—15-moddalar).

III. Jamg'arib boriladigan pensiya to'lovlarini olish tartibi (16—23-moddalar).

IV. Yakunlovchi qoidalar (24—27-moddalar).

e) „O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida“gi qonun. (Yangi tahriri.) Mazkur qonunning yangi tahriri O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2008-yil 11-iyulda qabul qilingan.

Qonun o'z tuzilishiga ko'ra quyidagicha:

1-bob. Umumiy qoidalar (1—8-moddalar);

2-bob. Nogironlarning ijtimoiy infratuzilma obyektlariga to'sqinliksiz kirishi, transportdan, aloqa va axborot vositalaridan to'sqinliksiz foydalanishi uchun sharoitlar yaratish (9—11-moddalar);

3-bob. Nogironlarni reabilitatsiya qilish (12—14-moddalar);

4-bob. Nogironlarning ta'limi va ularni kasbga tayyorlash (15—22-moddalar);

5-bob. Nogironlar mehnati (23—25-moddalar);

6-bob. Nogironlarga ijtimoiy yordam ko'rsatish (26—31-moddalar);

7-bob. Nogironlarning jamoat birlashmalari (32—34-moddalar);

8-bob. Yakunlovchi qoidalar (35—36-moddalar).

Ushbu kunda nogironlarni ijtimoiy ta'minlash va ularga ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish yuzasidan kafolatlar nazarda tutilgan.

Mazkur qonunning 5-moddasiga ko'ra: „Davlat nogironlar turmush faoliyatining cheklanganligini baholash asosida ularning ijtimoiy yordam hamda himoya chora-tadbirlariga bo'lgan ehtiyojlari hisobga olinishi ta'minlanishini, nogironlarni reabilitatsiya qilish va ijtimoiy himoya qilishning qonun hujjatlarida nazarda tutilgan turlaridagi dasturlar amalga oshirilishini, nogironlarning jamiyat bilan uyg'unlashishi uchun sharoitlar yaratilishini, nogironlarni kamsitishning barcha shakllaridan himoya qilishni

ta'minlash yuzasidan zarur chora-tadbirlar ko'rilishini kafolatlaydi“.

d) O'zbekiston Respublikasining „Homiylik to'g'risida“gi qonuni. Bu qonun 2007-yil 2-mayda qabul qilingan bo'lib, uning maqsadi homiylik sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat¹.

Homiylik quyidagi maqsadlarda amalga oshiriladi:

— fuqarolarni ijtimoiy jihatdan qo'llab-quvvatlash va himoya qilish, shu jumladan, aholining ijtimoiy jihatdan muhofaza qilinmagan va kam ta'minlangan toifalarining moddiy ahvolini yaxshilash, o'z jismoniy yoki intellektual xususiyatlari, boshqa holatlar sababli mustaqil ravishda o'z huquqlarini amalga oshira olmaydigan hamda qonuniy manfaatlarini himoya qila olmaydigan ishsizlarni, nogironlarni va boshqa shaxslarni ijtimoiy reabilitatsiya qilish;

— xalqlar o'rtasida tinchlik, do'stlik va totuvlikni mustahkamlashga ko'maklashish;

— oilaning jamiyatdagi nufuzi va rolini mustahkamlashga ko'maklashish;

— onalik, bolalik va otalikni himoya qilishga ko'maklashish;

— ta'lim, fan, madaniyat, san'at, ma'rifat sohasidagi faoliyatga, shuningdek, shaxsning ma'naviy kamol topishiga ko'maklashish;

— kasalliklar profilaktikasi va fuqarolar sog'lig'ini saqlash sohasidagi faoliyatga, shuningdek, sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga ko'maklashish, fuqarolarga ma'naviy-ruhiy yordam ko'rsatish;

— jismoniy tarbiya va ommaviy sport sohasidagi faoliyatga ko'maklashish;

— aholini tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar oqibatlarini bartaraf etishga, baxtsiz hodisalarning oldini olishga tayyorlash;

— terrorchilik harakatlari, tabiiy ofatlar, ekologiya, sanoat halokatlari yoki boshqa halokatlar natijasida jabrlanganlarga yordam ko'rsatish;

— atrof-tabiiy muhitni muhofaza qilish;

— madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi, 2007-y. 5-son, 218-modda.

Qonun hujjatlariga muvofiq homiylik boshqa maqsadlarda ham amalga oshirilishi mumkin.

Tijorat tashkilotlariga, siyosiy partiyalarga va harakatlarga pul mablagʻlari hamda boshqa moddiy mablagʻlar berish, turli shaklda yordam koʻrsatish, shuningdek, ularni qoʻllab-quvvatlash homiylik hisoblanmaydi.

Saylovoldi tashviqoti va referendumga qoʻyilgan masalalar boʻyicha tashviqot maqsadida homiylik qilish taqiqlanadi.

Qonunga zid boʻlgan har qanday faoliyatni homiylik vositasida qoʻllab-quvvatlash taqiqlanadi.

Mazkur qonun tuzilishiga koʻra quyidagi koʻrinishga ega:

1-bob. Umumiy qoidalar (1—5-moddalar).

2-bob. Homiylik tashkilotlari (6—12-moddalar).

3-bob. Homiylikning amalga oshirilishida davlatning ishtirok etishi. Xalqaro homiylik faoliyati (13—18-moddalar).

4-bob. Yakunlovchi qoidalar (19—23-moddalar).

Yuqorida qayd etilgan qonunlardan tashqari yana bir qator qonunlar ham borki, ijtimoiy taʼminot va ijtimoiy himoya masalalariga taalluqlidir. (Masalan, „Fuqarolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida“gi, „Aholini ish bilan taʼminlash toʻgʻrisida“gi, „Sil kasalligidan muhofaza qilish toʻgʻrisida“gi va boshqa qonunlar.

Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari va Qarorlari. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti davlat ijtimoiy siyosati roʻyobga chiqarilishini tashkil etadi va muvofiqlashtirib boradi. Iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyot surʼatlari va islohotlarimiz dinamikasiga muvofiq bu sohadagi muhim yangilanish va oʻzgarishlarni oʻz Farmon va Qarorlari orqali roʻyobga chiqaradi. Normativ-huquqiy hujjatlar toʻgʻrisidagi qonunning 10-moddasiga koʻra Oʻzbekiston Respublikasining Prezidenti Oʻzbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va qonunlari asosida hamda ularni ijro etish uchun farmonlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi.

Ijtimoiy taʼminot va ijtimoiy himoya sohasida Oʻzbekiston Respublikasi farmon va qarorlari yetakchi oʻrin tutadi va tub burilishlar amalga oshirilayotganligini anglatadi. Bunday farmon va qarorlar jumlasiga quyidagilar kiritilishi mumkin: 2009-yil 30-dekabrda PF-4161-sonli „Fuqarolarning pensiya taʼminoti

tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“¹gi Farmon; 2007-yil 23-yanvardagi PQ-573-sonli „Ijtimoiy himoya yili“ Davlat dasturi to'g'risida“gi Farmoni² va boshqalar.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Qarorlari. „O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi to'g'risida“gi Qonuniga muvofiq³ Vazirlar Mahkamasi — O'zbekiston Respublikasining Hukumati — O'zbekiston Respublikasida iqtisodiyotning, ijtimoiy va ma'naviy sohaning samarali faoliyatiga rahbarlikni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmonlari, Qarorlari va Farmoyishlari ijrosini ta'minlovchi ijro etuvchi hokimiyat organidir.

Vazirlar Mahkamasi o'z vakolatlari doirasida fuqarolarning huquq va erkinliklarini, ularning mehnat qilishga, ijtimoiy va huquqiy himoyalashga bo'lgan huquqlarini ta'minlash hamda himoya qilish chora-tadbirlarini ko'radi, ijtimoiy ta'minot tizimini takomillashtiradi.

Aholini ijtimoiy ta'minoti va ijtimoiy himoyalash sohasida Vazirlar Mahkamasi qonunlarni ijro etish mexanizmlarini nazarda tutuvchi normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-maydagi „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“ O'zbekiston Respublikasining qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqidagi 249-sonli qarori⁴ bilan davlat pensiyalarini tayinlash va hisoblashga doir normativ-huquqiy hujjatlar majmuyi tasdiqlandi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 8-maydagi 95-sonli „O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ 2007-yil 6-apreldagi PQ-616-son qarorini amalga oshirish chora-

¹ Xalq so'zi, 2009-yil 31-dekabr.

² „O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami“, 2007-yil, 4—6-son, 39-modda.

³ // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining Axborotnomasi 2003-yil, 9—10-son, 138-modda.

⁴ Q'zbekston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami. 1994-yil, 5-son 27-modda.

tadbirlari haqida“gi qarori¹ hamda 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli „Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibini yanada takomillashtirishga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida“gi qarori² bilan ijtimoiy ta‘minot qonunchiligi sohasida muhim o‘zgarish va yangilanishlar joriy etildi.

Vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralarining normativ-huquqiy hujjatlari. Normativ-huquqiy hujjatlar to‘g‘risidagi qonunning 12-moddasiga ko‘ra: vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralari o‘z vakolatlari doirasida buyruqlar va qarorlar shaklida normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo‘riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar qabul qiladi. Nizomlar, qoidalar va yo‘riqnomalar tarzida qabul qilinadigan normativ-huquqiy hujjatlar buyruq hamda qarorlar bilan tasdiqlanadi.

Aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy ta‘minot sohasida qonunlarning ijro etilishi idoraviy-me‘yoriy hujjatlar vositasida ta‘min etiladi. Ijtimoiy ta‘minotga oid idoraviy normativ-huquqiy hujjatlar turli vazirlik va idoralar tomonidan qabul qilinishi mumkin. Ular orasida O‘zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligi, Moliya vazirligi, Sog‘liqni saqlash vazirligi yetakchi o‘rinda turadi.

Ijtimoiy himoya va ijtimoiy ta‘minotga oid qonunlar ijrosini ta‘minlashga qaratilgan ko‘plab idoraviy-me‘yoriy huquqiy hujjatlar qabul qilingan. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 20-mayda 1136-1-son bilan ro‘yxatga olingan „Davlat ijtimoiy sug‘urtasi bo‘yicha nafaqalarni tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom“³; O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2007-yil 3-sentabrda 1710-son bilan ro‘yxatga olingan „Pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to‘ldirish qoidalari hamda pensionerlar yig‘ma jildini rasmiylashtirish va yuritish tartibi haqidagi Yo‘riqnama“⁴;

¹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-yil, 19—20-son, 195-modda.

² O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2011-yil, 37-son, 377-modda.

³ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-yil, 31—32-son, 326-modda.

⁴ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2007-yil, 35—36-son, 368-modda.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 20-iyulda 198-1-son bilan ro'yxatga olingan „Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash to'g'risidagi Tartibga qo'shimcha va o'zgartishlar kiritish haqida“gi qaror¹ va boshqalar.

3.2. Ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari sanaluvchi normativ-huquqiy hujjatlarning vaqt, fazo va shaxslar o'rtasida amal qilishi

Qonun hujjatlarining vaqt, hudud va shaxslar o'rtasida amal qilishiga doir qoidalar yuqorida qayd etib o'tilgan „Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida“gi qonunda nazarda tutilgan.

Ijtimoiy ta'minot sohasidagi normativ-huquqiy hujjatlar vaqt, hudud (fazo) va shaxslar orasida qo'llaniladi hamda ushbu muhitlarda amal qilish xususiyatlarini to'g'ri tushunib yetish ularning to'g'ri tatbiq etilishi, qonunchilikning mustahkamlanishi, xatolarning oldi olinishida muhim ahamiyatga ega bo'ladi.

Ijtimoiy ta'minot sohasidagi qonun hujjatlari vaqt doirasida kuchga kirgan paytidan boshlab bekor qilinguniga qadar yoki uning o'rniga boshqa normativ-huquqiy hujjat qabul qilinguniga qadar amalga oshiriladi. Ularni vaqt doirasida amalda qo'llash, kuchga kirish vaqti, bekor qilinishi yoki amal qilishning tugatilish masalalari O'zbekiston Respublikasining „Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida“gi qonunida (26-modda) belgilab qo'yilgan.

Ijtimoiy ta'minotga oid normativ-huquqiy hujjatlarga, odatda, O'zbekistonning butun hududida amal qilinadi. Ammo uning bevosita o'zida yoki normativ-huquqiy hujjatni amalga oshirish to'g'risidagi qarorda uning hudud bo'yicha ta'siri cheklanishi mumkin (masalan, tumanlararo koeffitsiyent qo'shib berish haqidagi aktlar faqat tegishli hududlarda qo'llanilishi va hokazo).

Ijtimoiy ta'minot munosabatlariga taalluqli bo'lgan qonun hujjatlari shaxslar o'rtasida amal qiladi va bunda ular, odatda, barcha yuridik va jismoniy shaxslar uchun majburiy kuchga ega bo'ladi.

„Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida“gi qonunning 29-moddasida: „Normativ-huquqiy hujjatlarning amal qilinishi

¹ „O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami“, 2005-yil, 28—29-son, 218-modda.

O'zbekiston Respublikasining fuqarolari va yuridik shaxslariga, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida boshqa qoida belgilanmagan bo'lsa, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi hududidagi xorijiy yuridik shaxslarga, ajnabiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga tatbiq etiladi¹, deyiladi.

Normativ-huquqiy hujjatning o'zida u qo'llaniladigan shaxslar doirasi cheklab qo'yilishi mumkin. Masalan, «Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida»gi qonunda belgilangan pensiya olish huquqi faqat jismoniy shaxslargagina taalluqli, yoki bo'lmasa, pensiya jamg'armasiga ish haqi fondidan badallar to'lash majburiyati faqat yuridik shaxslargagina qo'llaniladi va hokazo.

Ijtimoiy ta'minotga oid qonun hujjatlarini sharhlash — uning mazmunini ochib berish, noaniqliklar yuzasidan tushuntirish ishlari olib borishdan iborat. Ularni rasmiy sharhlash va ilmiy sharhlash o'zaro farqlanadi.

Ijtimoiy ta'minot qonun hujjatlarini rasmiy sharhlash „Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida“gi qonunning 31-moddasida bayon etilgan. Rasmiy sharhlash O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi tomonidan yoki qonun hujjatini qabul qilgan davlat organi tomonidan amalga oshirilishi mumkin¹.

Ijtimoiy ta'minotga oid qonun hujjatlarini ilmiy sharhlash ayrim olimlar, mutaxassislar, ilmiy muassasalar tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Rasmiy sharhlashdan ilmiy sharhlash farq qilib, ularning qoidalari majburiy yuridik kuchga ega bo'lmaydi va qonun mazmunini to'g'ri tushunish, to'g'ri qo'llashda yordam berishga qaratiladi. Bunday norasmiy sharhlash ayrim hollarda sud organlari tomonidan ham amalga oshirilishi mumkin.

KALIT SO'ZLAR. Ijtimoiy ta'minot huquqi manbayi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ijtimoiy ta'minot olish huquqi. Ijtimoiy ta'minot huquqi manbalari tasnifi. Ijtimoiy ta'minot huquqiga oid qonun hujjatlarini. Ijtimoiy ta'minotga oid xalqaro hujjatlar. Ijtimoiy ta'minot qonun hujjatlarini vaqt, hudud va shaxslar o'rtasida amal qilishi. Ijtimoiy ta'minot qonun hujjatlarini rasmiy va ilmiy sharhlash.

¹ Qarang: „Qariyalarni qadrlash yili“ davlat dasturiga sharh. „Xalq so'zi“ gazetasi, 2002-yil 25-yanvar.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. Fuqarolarning ijtimoiy ta‘minot olishga bo‘lgan huquqlari O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining qaysi moddasida berilgan?
2. Ijtimoiy ta‘minot huquqi manbayi deganda nimalar nazarda tutiladi?
3. Ijtimoiy ta‘minotning xalqaro huquqiy manbalari hisoblanadigan xalqaro hujjatlarni sanab bering.
4. O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining qaysi bobida ijtimoiy ta‘minot huquqi haqida so‘z boradi?
5. „Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida“gi qonun haqida so‘zlab bering.
6. Ijtimoiy ta‘minotga taalluqli qaysi qonunlarni bilasiz?
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining ijtimoiy ta‘minot va ijtimoiy himoyalashga oid qaysi Farmon va Qarorlarini bilasiz?
8. Ijtimoiy ta‘minot qonunchilik hujjatlarini vaqt, fazo va shaxslar o‘rtasida amal qilinishi qanday o‘ziga xos xususiyatlarga ega?

MAXSUS QISM

IV BOB. ISH STAJI TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNI HISOBLASH TARTIBI

4.1. Ish staji tushunchasi va uning fuqarolarga ijtimoiy ta'minot berilishidagi ahamiyati

Fuqarolarga ijtimoiy ta'minot berish mezonlaridan biri — mehnat stajidir. *Ish staji — mehnat daftarchasi va ish joyidan, xizmatdan, o'qishdan yoki arxivdan berilgan boshqa hujjatlar bo'yicha aniqlangan, ishdagi tanaffuslardan qat'i nazar, qonun hujjatlariga muvofiq pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyati va boshqa faoliyatning umumiy davomiyligidir.*

Fuqarolarga davlat pensiyalarini tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajini hisoblash tartibi „Fuqarolarni davlat pensiyalari bilan ta'minlash to'g'risida“gi Qonunning 6-bobi, 37—42-moddalari, hamda Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-maydagi 249-sonli qarori bilan tasdiqlangan „Pensiya tayinlash uchun mehnat stajini tasdiqlash tartibi to'g'risida Nizom“ hamda boshqa qonun hujjatlariga ko'ra belgilanadi.

Mehnat staji, uning miqdori va sifati fuqaroga ijtimoiy ta'minot berilishida muhim o'rin tutuvchi omil bo'lib sanaladi. Mehnat staji, odatda, fuqaroning korxona yoki tashkilotdagi mehnat faoliyati davridan iborat bo'ladi.

Umumiy va maxsus mehnat stajlari mavjud bo'ladi.

Har qanday ish davri, shuningdek, quyidagi davrlar ham umumiy ish stajiga qo'shib hisoblanadi va pensiya ta'minotida hisobga olinadi:

a) agar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langan bo'lsa faoliyat turi, mulk va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajarilgan har qanday ish;

1965-yildan keyingi davr uchun jamoa xo'jaligidagi ish stajini hisoblab chiqarishda — agar jamoa xo'jaligi a'zosi uzrsiz

sabablarga ko'ra jamoa xo'jaligida belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo'lsa, ishlangan vaqtning amalda davom etgan davri hisobga olinadi.

Ijodiy faoliyat bilan mashg'ul xodimlarning ish stajini, bosharti ular O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsalar, ijodiy uyushmalarning boshqaruvlari ana shu muallifning asari e'lon qilingan yoki birinchi marta jamoat oldida ijro yoki namoyish etilgan kundan e'tiboran belgilanadi;

b) harbiy xizmat va partizan o'tradlari hamda qo'shilmalarida bo'lish, davlat xavfsizligi organlarida va ichki ishlar organlarida xizmat qilish;

d) idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, harbiylashtirilgan soq-chilikdagi, maxsus aloqa organlari va tog'-kon qutqaruv qismlaridagi xizmat;

e) yakka tartibdagi mehnat faoliyati, shu jumladan, yakka (guruhli) ijara sharoitidagi yoki shaxsiy yordamchi, dehqon (fermer) xo'jaligidagi faoliyat — O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langan taqdirda;

f) I guruh nogironiga yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolaga, shuningdek, o'zgalarning parvarishiga muhtoj bo'lgan (davolash muassasasining xulosasiga ko'ra) 80 yoshga to'lgan qariyalarga qarab turilgan vaqt;

g) oliy va o'rta maxsus o'quv yurtlarida, kunduzgi o'qish, shu jumladan, chet elda ta'lim olish;

h) onaning (o'gay onaning) bolalarini (o'gay farzandlarni) go'daklik yoshida parvarishlagan vaqti, lekin ko'pi bilan 3 yil davomida (bola parvarishlash ta'tili berilgani haqidagi ish beruvchi buyrug'idan ko'chirma taqdim etilishi sharti bilan);

i) ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslarning, praporshiklarning, michmanlarning va muddatdan tashqari xizmat harbiy xizmatchilarining turmush o'rtoqlari (ayollari), ularni ishga joylashtirish imkoniyati bo'lmagan joylarda erlari bilan yashagan vaqt, lekin 10 yildan oshmagan davr;

j) O'zbekiston Respublikasi muassasalari va xalqaro tashkilotlar xodimlari xotinlarining chet elda bo'lgan vaqti, lekin 10 yildan oshmagan davr;

k) mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida I va II guruh nogironligida bo'lingan vaqt yoshga doir yoki boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanayotganida stajga qo'shib hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlanganidan keyingi ishlangan vaqt pensiyani hisoblab chiqarish uchun stajga qo'shib hisoblanmaydi.

Ota-onasidan judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini hisoblab chiqarish ota-onaning umumiy ish stajiga qarab amalga oshiriladi.

Maxsus ish staji — xalq xo'jaligining muayyan tarmoqlarida, kasblar va lavozimlarda qonun hujjatlariga muvofiq imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beradigan mehnat faoliyatining davomiyligidan iborat.

Jumladan, O'zbekiston respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 12-maydagi 250-sonli qarori bilan „Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlar ro'yxati tasdiqlangan bo'lib, ana shunday ishlarda ishlagan davrlar maxsus ish stajiga, ya'ni, imtiyozli shartlarda ijtimoiy ta'minot olish huquqini beruvchi davrlarga qo'shib hisoblanadi.

Shuningdek, ko'paytirib (bir yarim, ikki, uch barobar) hisoblanadigan vazifa va kasblarda ishlagan, muayyan sharoitlarda harbiy xizmatni o'tagan (mas., frontda, partizan o'tradlarida xizmatni o'tash, asossiz ravishda ayblanib, jazoni o'tash joylarida bo'lish (jazoni o'tash) davrlari ham maxsus mehnat stajiga kiradi va imtiyoz huquqini beradi.

4.2. Mehnat stajini hisoblash

Mehnat staji miqdori va sifatining to'g'ri belgilanishi, aniq hisob-kitob qilinishi fuqarolar ijtimoiy ta'minotining amalga oshirilishida muhim ahamiyatga ega bo'lib, qonuniylik hamda ijtimoiy adolat tamoyillari qaror topishiga xizmat qiladi.

Amaldagi qonunchilik normalarida ish stajini hisoblash tartibi va shakllari aniq-ravshan belgilab berilgan bo'lib, mazkur tartibga qat'iy rioya etilishi pensiya tayinlovchi organlarning ham, ish beruvchilarning ham muhim majburiyati sanaladi.

Mehnat daftarchasi ish stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat bo'lib, ish stajini undagi yozuvlar asosida aniqlanadi hamda hisoblab chiqariladi.

Mehnat daftarchasi uni yuritish tartibini belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarga to'la rioya etilgani holda rasmiylashtirilgan, ish faoliyati haqidagi yozuvlar unda belgilab qo'yilgan tartibga ko'ra kiritilgan bo'lishi lozim.

Mehnat daftarchasi mavjud bo'lmagan yoki unda tegishli ma'lumotlar bo'lmagan taqdirda ish stajini tasdiqlash tartibi qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

Pensiya jamg'armasi organlari tomonidan berilgan sug'urta badallari to'langanligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar ish stajini tasdiqlovchi hujjat bo'lib hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'langan taqdirda chet elda ishlangan davrlar mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi. Bunda davlatlararo kelishuvlarda boshqa qoida belgilangani hollarda ish stajini hisobga olish mazkur qoidalar talablari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda ishlagan davri uchun vakolat bergan organlar tomonidan mehnat daftarchasiga kiritilgan qaydnomalarga qarab aniqlanadi.

Chet el fuqarolariga va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning chet eldagi ish davri O'zbekiston Respublikasida ishlagan davriga to'g'ri keladigan stajning 1/3 hissasidan oshmagan miqdorda hisobga olinadi. Davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o'zgacha qoidalar nazarda tutilgan hollarda tegishli tartibda aniqlanadi.

Mehnat daftarchasi mavjud bo'lmagan, unda tegishli ma'lumotlar bo'lmagan yoki ular xato va noaniq yozilgan hollarda mehnat stajini tasdiqlash uchun (ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan xodimlarning staji bundan mustasno) ma'lumotnomalar, buyruqlardan ko'chirmalar, ish haqi berish bo'yicha shaxsiy schotlar va vedomostlar, ularning bajarganligi qayd etilgan yozma mehnat shartnomalari (kontraktlar) va ish davrlari to'g'risida ma'lumotlar bo'lgan boshqa hujjatlarga qarab ish staji hisoblanishi mumkin. Kasaba uyushmasiga a'zolik biletlari (a'zolik badallari to'langani va uning miqdori ko'rsatilgan hollarda) va ish haqi to'lashga oid hisob-kitob daftarchalari asosida mehnat staji aniqlanishi va hisobga olinishi mumkin.

Ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan xodimlarning mehnat staji O'zbekiston Respublikasining Moliya vazirligi huzuridagi

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langanligi to'g'risida Moliya vazirligi qoshidagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tomonidan beriladigan ma'lumotnomalar bo'yicha aniqlanadi.

Mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar bo'lmasa (ish vaqtini hisobga olib bo'lmaydigan xodimlar bundan mustasno) ish davri guvohlarning ko'rsatmasi asosida aniqlanadi.

Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limi Mehnat stajini tasdiqlash uchun taqdim etilgan hujjatlarning mazmuni va zarur darajada rasmiylashtirilganligini huquqiy baholaydi, ularning asosililigini tekshirib ko'radi; zarur hollarda mehnat faoliyatining ayrim davrlarini stajga qo'shib hisoblash yoki olib tashlash masalasini hal qiladi, guvohlarning ko'rsatmalari asosida ish stajini aniqlash, o'zgaralar parvarishiga muhtoj shaxslarni parvarishlash vaqtini ish stajiga qo'shib hisoblash yoki hisoblamaslik masalalarini hal etish shaxslarni parvarishlashga ketgan vaqtni aniqlash vakolatlariga egadir.

Tabiiy ofatlar, halokatlar, falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar natijasida ish staji to'g'risidagi hujjatlar to'liq yoki qisman yo'qotilgan hollarda mehnat stajini tasdiqlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi, Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi yoki viloyat, tuman (shahar) hokimliklari tomonidan tuzilgan maxsus komissiya tomonidan amalga oshiriladi.

Qisman saqlanib qolgan hujjatlar va guvohlarning ko'rsatmalari asosida vakolatli komissiyalar tomonidan aniqlangan mehnat faoliyati davrlari umumiy stajga, shuningdek, imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beruvchi maxsus ish staji sifatida hisobga olinishi mumkin.

Mavjud ish staji to'g'risida ma'lumotlar bo'lmagan va harbiy harakatlar, tabiiy ofatlar, halokatlar, falokatlar va boshqa favqulodda vaziyatlar munosabati bilan bunday ma'lumotlarni olish imkoniyati istisno etiladigan hollarda mehnat staji, shu jumladan, imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beruvchi mehnat staji ariza beruvchi bilan o'sha davrda birga ishlagan va uni bilgan kamida ikki guvohning ko'rsatmasi asosida belgilanadi.

Umumiy mehnat staji to'g'risidagi ma'lumotlar mavjud bo'lgan taqdirda imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini

beruvchi ishning xarakteri guvohlarning ko'rsatmalari bilan belgilanmaydi.

Mehnat daftarchasidagi yozuvlar ushbu daftarchani to'ldirish va yuritish paytida amal qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarda mehnat daftarchalarini joriy etish tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma talablariga muvofiq rasmiylashtirilishi kerak.

Bolani parvarishlash ta'tilida bo'lish davri (shu jumladan, puli to'lanadigan ta'tilda bo'lish) yoshga doir imtiyozli pensiya olish huquqini beradigan maxsus ish stajiga qo'shilmaydi.

4.3. Ayrim turdagi mehnat faoliyati bilan bog'liq bo'lgan mehnat stajini hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari

1. *Yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mehnat stajini hisobga olish.* Tadbirkor davlat soliq xizmati organlarida hisobga qo'yish bilan bir vaqtda Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga badal to'lovchi sifatida davlat ijtimoiy sug'urtalanadigan shaxsga aylanadi.

Tadbirkor o'zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya bilan ta'minlanish va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqaning o'zi istaydigan miqdoridan kelib chiqib, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi. Biroq, eng kam miqdori har oyda O'zbekiston Respublikasida belgilangan eng kam oylik ish haqidan kam bo'lmagan miqdorni, yoshga oid pensiya olish huquqiga ega bo'lgan, shuningdek, I va II guruh nogironlari bo'lgan tadbirkorlar uchun esa eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizini tashkil etishi kerak.

Sug'urta badallari to'lanishining hisobi umumiy belgilangan tartibda tadbirkorning yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlarida yuritiladi.

Mehnat daftarchasi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limida uning mazkur tumandagi (shahardagi) tadbirkorlik faoliyatining butun muddati mobaynida saqlanadi va yuritiladi.

Agar fuqaro tadbirkorlik faoliyati boshlangunga qadar mehnat daftarchasiga ega bo'lmagan bo'lsa, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi belgilangan tartibda mehnat daftarchasi ochadi.

Agar tadbirkorlik faoliyati fuqaro uchun o'rindoshlik hisoblansa, uning mehnat daftarchasi asosiy ish joyida yuritiladi.

Yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik bilan o'rindoshlik bo'yicha shug'ullanuvchi shaxsning xohishiga ko'ra mehnat daftarchasiga tadbirkor sifatidagi faoliyat davri to'g'risidagi yozuv kiritilishi mumkin. Yozuv ro'yxatdan o'tkazish joyidagi Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limi tomonidan kiritiladi.

Tadbirkorning mehnat stajiga u Budgetdan tashqari pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan davrlar kiritiladi.

Pensiya va davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqa tayinlash uchun mehnat stajini hisoblab chiqishda, agar to'langan badallar summasi ushbu yilning barcha oylari uchun belgilangan eng kam badaldan kam bo'lmasa (to'langan penallarni hisobga olmagan holda), stajga kalendar yil qo'shiladi.

Tadbirkorning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lanishidan qat'i nazar, pensiya va davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha tayinlash uchun mehnat stajiga qo'shiladi.

To'liq kalendar yil mobaynida tadbirkorning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlash hollari bo'lganda, agar mazkur yilda badallar kamida 9 oy mobaynida to'langan bo'lsa, stajga kalendar yil qo'shiladi.

Mehnat daftarchasi bo'lmagan yoki yo'qotilgan taqdirda tadbirkorning pensiya yoki ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa tayinlash uchun zarur bo'lgan ish staji hisobga olish kartochkasi yoki hisobga olish daftaridagi ma'lumotlar bo'yicha hisoblab chiqiladi.

Tadbirkor sifatidagi ish faoliyati va uning davomiyligi guvohlik ko'rsatmalari bilan tasdiqlanmaydi.

2. Dehqon xo'jaligi a'zolarini ijtimoiy sug'urtalash va ularning mehnat stajini hisobga olish. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 24-avgustdagi 351-son qarori bilan tasdiqlangan „Dehqon xo'jaligi a'zolarini ijtimoiy sug'urtalash va ularning ijtimoiy ta'minoti to'g'risida Nizom“ga ko'ra Dehqon xo'jaligi a'zolari ixtiyoriylik asosida ijtimoiy sug'urta qilinadi.

Mazkur Nizom qoramol boqish va chorvachilik mahsulotlari yetishtirish bilan band bo'lgan dehqon xo'jaliklari a'zolariga tatbiq etilmaydi.

Ijtimoiy sug'urtalanish xohishini bildirgan dehqon xo'jaligi a'zosi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga badal to'lovchi sifatida davlat soliq xizmati organlarida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tishi shart.

Dehqon xo'jaligi a'zosi o'zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya bilan ta'minlanish va ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqaning o'zi istaydigan miqdoridan kelib chiqib Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari miqdorini mustaqil ravishda belgilaydi, biroq sug'urta badallarining eng kam miqdori bir yilda eng kam oylik ish haqining to'rt yarim barobaridan kam bo'lmagan miqdorni tashkil etishi kerak.

Mehnat daftarchasi dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajini tasdiqlovchi asosiy hujjat hisoblanadi.

Yuridik shaxs bo'lmagan tashkil etilgan dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat daftarchasi dehqon xo'jaligi a'zosi ro'yxatdan o'tkazilgan joydagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limida u sug'urta badallari to'laydigan butun muddat mobaynida saqlanadi va yuritiladi.

Agar dehqon xo'jaligi a'zosi sug'urta badallari to'lash boshlangunga qadar mehnat daftarchasiga ega bo'lmagan bo'lsa, ijtimoiy ta'minot bo'limi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda unga mehnat daftarchasi ochadi.

Agar dehqon xo'jaligida ishlash fuqaro uchun o'rindoshlik hisoblansa, uning mehnat daftarchasi asosiy ish joyida yuritiladi.

Dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat stajiga u Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan davrlar kiritiladi.

Pensiya va davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha tayinlash uchun mehnat stajini hisoblab chiqishda, agar dehqon xo'jaligi a'zosi ushbu yilda 12 oy ishlagan va kamida 9 oy badal to'lagan bo'lsa, stajga kalendar yil qo'shiladi.

Dehqon xo'jaligi a'zosining mehnat daftarchasi bo'lmagan yoki yo'qotilgan taqdirda pensiya yoki ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqa tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajining hisobga olish kartochkasi yoki hisobga olish daftaridagi ma'lumotlar asosida hisoblab chiqilishi mumkin.

Dehqon xo'jaligi a'zosi tomonidan sug'urta badallari to'lanishi va uning qancha davom etganligi guvohlik ko'rsatmalari bilan tasdiqlanmaydi.

3. *Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boquvchi va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotuvchi fuqarolarning mehnat stajini hisoblash.*

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 21-apreldagi 67-sonli „2006—2010-yillar davrida shaxsiy yordamchi, dehqon va fermer xo'jaliklarida chorva mollari, birinchi navbatda qoramollar sonini ko'paytirishni rag'batlantirish dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qaroriga ko'ra shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida oila a'zolarining mulki bo'lgan yoki ijara shartlari bo'yicha olingan qoramol boqishni hamda chorvachilik asosida mayda tovar mahsulotlari yetishtirishni va ularni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sotishni amalga oshiruvchi mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar band hisoblanadilar. Agar ular ish beruvchilar bilan mehnat munosabatlarida, yoki belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilgan xususiy tadbirkorlar hisoblanmasa, o'quv yurtlarida o'qimasa, ularga belgilangan namunadagi mehnat daftarchasi ochiladi (yuritiladi).

Ushbu shaxslar tomonidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga bir yilda eng kam oylik ish haqining to'rt yarim barobaridan kam bo'lmagan miqdorda sug'urta badallari to'langan taqdirda qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lgan davrlar „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq pensiya tayinlash uchun mehnat stajiga qo'shiladi.

Qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lgan fuqarolarga mehnat daftarchasi berish tuman (shahar) Bandlikka ko'maklashish markazi tomonidan amalga oshiriladi.

Qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lgan shaxslarning mehnat stajini hisobga olish Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langanligi to'g'risida davlat soliq xizmati organlaridan olingan ma'lumotlar asosida tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan badallarni hisobga olish davlat soliq organlari tomonidan amalga oshiriladi.

Qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lgan, ushbu band bo'lingan davrlarning pensiya tayinlash uchun mehnat stajiga hisoblanishini xohlovchi shaxslar yashash joyidagi davlat soliq xizmati organlarida Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lovchilar sifatida belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tkazilishi kerak.

Mehnat daftarchasiga ega bo'lmagan shaxslarga mehnat daftarchasi mazkur shaxsning yashash joyidagi mehnat organi tomonidan, ushbu Nizomga muvofiq fuqarolarning shaxsiy arizasi asosida ochiladi.

Mehnat daftarchasi ochish uchun fuqaro pasportini va fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organidan shaxsiy yordamchi yoki dehqon xo'jaligida qoramol mavjudligi to'g'risidagi ma'lumotnomani shaxsan ko'rsatadi.

Qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lgan shaxsga mehnat daftarchasi ochish va berish to'g'risidagi ma'lumotlar Bandlikka ko'maklashish markazida yuritiladigan, raqamlangan va ip o'tkazib tikilgan, mehnat daftarchalari berish maxsus daftarida qayd etiladi, unda mehnat daftarchasi berilgan shaxsning ismi-sharifi, tug'ilgan sanasi va uy manzili, mehnat daftarchasining davlat seriyasi va tartib raqami, shuningdek, daftarcha berilgan sana ko'rsatiladi.

Mehnat daftarchasiga ega bo'lgan (avval mehnat faoliyati bilan shug'ullangan) shaxslar uchun faoliyatning ko'rsatilgan turi bilan bandlik to'g'risidagi yozuvlar tuman ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan amalga oshiriladi.

Shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaligida qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lgan fuqaro Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari miqdorini mustaqil ravishda, o'zidagi mavjud imkoniyatlardan va pensiya ta'minotining xohlangan miqdoridan kelib chiqqan holda, lekin bir yilda eng kam oylik ish haqining to'rt yarim barobaridan kam bo'lmagan miqdorda belgilaydi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga badallar to'lashning shaxsiy hisobi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tomonidan, shaxsiy yordamchi va dehqon xo'jaliklarida qoramol boqish va yetishtirilgan chorvachilik mahsulotlarini sotish bilan band bo'lgan shaxslar tomonidan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga badallar to'langanligi to'g'risida

davlat soliq xizmati organlari ma'lumotlari asosida amalga oshiriladi.

4. *Qishloq xo'jaligi kooperativlari (shirkat xo'jaliklari), fermer xo'jaliklari* hamda qishloq xo'jaligining boshqa korxonalari traktorchi, haydovchilar uchun to'liq dala ishi (dehqonchilikda) yoki butun yil mobaynida (chorvachilikda) qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda bevosita band bo'lganlik quyidagicha izohlanadi:

— ilgari amal qilgan qonun hujjatlariga muvofiq xalq deputatlari tuman (shahar) Kengashi ijroiya qo'mitasi huzurida tashkil etilgan imtiyozli pensiya ta'minoti huquqini beruvchi ish stajini aniqlash bo'yicha vaqtinchalik komissiya bayoni asosida mehnat daftarchasiga kiritilgan ish davri to'g'risidagi yozuvlar qo'shimcha hujjatlar talab qilinmagan holda maxsus stajning isboti sifatida qabul qilinadi.

5. *Uchuvchilar va sinovchi uchuvchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarning ayrim toifalariga imtiyozli pensiya ta'minoti* huquqini beruvchi maxsus ish stajini belgilash tartibi quyidagilar bilan tasdiqlanadi:

— uchuvchilar va sinovchi-uchuvchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar uchun — uchish (parashut) daftarchasi bo'yicha. Uchish daftarchasi bo'lmagan taqdirda uchish soatlari uchuvchilar tarkibining uchish soatlarini hisobga oluvchi buxgalteriya ma'lumotlari bo'yicha aniqlanishi mumkin. Sinovchi-uchuvchilar tarkibiga kiruvchi ayrim xodimlarning tajriba texnikasini sinash ishi bilan band bo'lgan korxonalar (birlashmalar) va tashkilotlar tomonidan beriladigan ma'lumotnomalar bo'yicha tasdiqlanadi¹.

6. *Teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari va jamoalari artistlarining ayrim toifalariga imtiyozli pensiya ta'minoti olish huquqini beruvchi maxsus ish staji mehnat daftarchasi bo'yicha tasdiqlanadi.*

Mehnat daftarchasida kasb (lavozim)ning nomi, janr bo'yicha tegishliligi, bajariladigan ish xarakteri yoki ishlagan tashkilotning maqomi to'g'risidagi zarur ma'lumotlar bo'lmagan hol-

¹ Qarang: Uchuvchilar va sinovchi uchuvchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarga pensiya tayinlash uchun belgilangan ish stajini hisoblash tartibi. Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomga 4-ilova.

larda maxsus staj ish joyidan berilgan va ushbu shaxsga tegishli ma'lumotlar bo'lgan ma'lumotnoma asosida tasdiqlanadi.

7. *Mehnat shartnomasi bo'yicha ishlagan va mehnat daftarchasi bo'lmagan shaxslar.* 1991-yil 1-yanvargacha fuqarolarda mehnat shartnomasi bo'yicha ishlagan va mehnat daftarchasi bo'lmagan shaxslar (uy xodimlari, enagalar, kotibalar, kompyuterda sahifalovchilar, stenografistkalar, qorovullar, bog'bonlar, haydovchilar va boshqalar)ga nisbatan ularning uy xo'jaligidagi ish davri ishtirokida ishga yollovchi bilan xodim o'rtasida shartnoma tuzilgan kasaba uyushmasi tashkilotining ma'lumotnomasi bilan tasdiqlanadi.

Bunday ma'lumotnomalarni olish imkoni bo'lmagan hollarda (jumladan, ayrim fuqarolarda ishlash kasaba uyushmasi organlarida ro'yxatga olinmagan hollarda ham) stajni tasdiqlash uchun ishga yollovchi tomonidan berilgan ma'lumotnomalar qabul qilinadi, nabodo ular vafot etgan taqdirda — ishga yollovchining rafiqasi yoxud ushbu davrda birga yashagan uning boshqa oila a'zosi (bu vaqtda voyaga yetmagan qarindoshlaridan tashqari) tomonidan berilgan ma'lumotnoma qabul qilinadi.

Ma'lumotnomani bergan shaxs imzosining haqiqiyliги mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organi) fuqarolar yig'ini tomonidan tasdiqlanadi.

Qayd etib o'tilgan ma'lumotnoma tekshirish dalolatnomasi bilan tasdiqlangan bo'lishi kerak. Tekshirish dalolatnomasi tegishli bajarilganligidan guvohlik beruvchi ma'lumotlar (qo'shnilarning ko'rsatmalari, uy daftarlari va mahalla, qishloq (shaharcha), ovul fuqarolari yig'inining hujjatlari bo'yicha ma'lumotlar) asosida ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan tuziladi.

8. *Podachi bo'lib ishlaganlik.* 1991-yil 1-yanvarga qadar fuqarolar jamoasi — chorva mollari egalari bilan tuzilgan shartnoma bo'yicha podachi bo'lib ishlaganlik haqidagi ish stajining isboti sifatida tuzilgan shartnoma, kasaba uyushmasi tashkilotlarining ma'lumotnomalari, bajarilganligi qayd etilgan shartnomalarning o'zi, shuningdek, fuqarolar jamoasi — chorva mollari egalari vakolatli vakillari tomonidan berilgan va tekshirish dalolatnomasi bilan tasdiqlangan ma'lumotnomalar hisoblanadi. Shartnoma mahalla, qishloq (shaharcha), ovul fuqarolarining yig'ini ishtirokida tuzilgan hollarda bu yig'inlarning ma'lumotnomalari e'tiborga olinadi.

Yuqorida qayd etilgan xodimlarga mehnat faoliyati staji 1991-yil 1-yanvardan keyin faqat Pensiya jamg'armasi organlari tomonidan beriladigan ma'lumotnomalar bo'yicha, 2001-yil 1-yanvardan keyin esa — ijtimoiy ta'minot organlari tomonidan beriladigan ma'lumotnomalar bo'yicha belgilanadi.

4.4. Uzoq yillik xizmat davri va uning pensiya ta'minotining amalga oshirilishidagi ahamiyati

Davlat xizmatining muayyan turlari bilan band bo'lgan fuqarolar, shuningdek, qonun hujjatlarida ko'rsatilgan hollarda ma'lum lavozimda yoki faoliyatning muayyan turi bilan band bo'lgan hollarida bu davr mehnat stajiga hisoblanishdan tashqari qo'shimcha imtiyozlar berilishiga ham asos bo'lishi mumkin. Bunday davr uzoq yillik xizmat davri deb nomlanadi.

Ma'lum lavozim yoki vazifada uzoq vaqt mehnat faoliyati bilan shug'ullanish xodimga maxsus unvon va martabalar berilishida, mehnat ta'tillari miqdorining belgilanishida, davlat pensiyalari tayinlanishida qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan boshqa hollarda imtiyoz va yengilliklar berilishiga olib keladi.

Uzoq yillik xizmat davri quyidagi hollarda hisobga olinadi va imtiyoz berilishiga asos bo'ladi:

- a) harbiy xizmatni (muddatdan tashqari) o'tash davri;
- b) ichki ishlar organlarida xizmat qilish vaqti;
- d) davlat soliq xizmati idoralaridagi mehnat faoliyati;
- e) prokuratura organlaridagi xizmat davri va boshqalarni qamrab oladi.

Masalan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 5-maydagi 180-son Qarori bilan tasdiqlangan „O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlarida xizmatni o'tash to'g'risida Nizom“ning 30-bandiga ko'ra davlat soliq organlari mansabdor shaxslariga maxsus unvonlar berish ularning uzoq yillik xizmat davri hisobga olingani holda amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari mansabdor shaxslarining lavozim maoshlariga uzoq yillar xizmat qilganlik uchun har oylik ustama haq miqdorlari ham ularning uzoq yillik xizmat davri muddatiga ko'ra belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasining „Prokuratura to'g'risida“gi qonuniga ko'ra (yangi tahriri) Prokuratura organlari xodimlariga

egallab turgan lavozimlari va mehnat stajiga muvofiq darajali unvonlar yoki harbiy unvonlar beriladi.

Prokuratura organlari xodimlariga muddati o'ttiz kalendar kunidan iborat haq to'lanadigan yillik ta'til beriladi. O'n besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lgan prokuratura organlari xodimlariga besh kalendar kuni, yigirma besh yildan ortiq ish stajiga ega bo'lganlarga esa o'n kalendar kuni qo'shimcha ta'til beriladi.

Uzoq yillik xizmat davri o'rta umumta'lim, kasb-hunar bilim yurtlarida, sog'liqni saqlash muassasalarida va qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa hollarda ahamiyatga ega.

KALIT SO'ZLAR. Ish staji. Umumiy ish staji. Maxsus ish staji. Mehnat daftarchasi. Ish stajini hisoblash. Ish stajini imtiyozli hisoblash. Ish stajiga qo'shib hisoblanadigan davrlar. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga badallar. Yagona ijtimoiy to'lov. Yakka tadbirkor va dehqon xo'jaligi a'zolari mehnat staji. Uchuvchilarning ish staji. Ish stajini guvohlar ko'rsatmasiga ko'ra tasdiqlash. Uzoq yillik xizmat davri.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Ish staji deganda nima nazarda tutiladi va uning ijtimoiy ta'minot huquqida qanday ahamiyati bor?
2. Umumiy va maxsus ish staji haqida so'zlab bering.
3. Ish stajini tasdiqlashda mehnat daftarchasining ahamiyati qanday?
4. Mehnat stajini imtiyozli hisoblash nima degani?
5. Mehnat stajiga qaysi davrlar qo'shib hisoblanadi va ularning chegarasi qanday belgilangan?
6. Uzoq yillik xizmat davrini ish stajiga qo'shib hisoblash qanday amalga oshiriladi?
7. Uchuvchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar mehnat staji qanday hisoblanadi?
8. Yakka tadbirkorlar ish stajini hisoblash qanday amalga oshiriladi?
9. Ish staji yuzasidan nizolar qanday ko'rib chiqiladi?

V BOB. YOSHGA DOIR PENSIYALAR

5.1. Yoshga doir pensiya tushunchasi, turlari va tayinlanishining umumiy asoslari

Keksa yoshdagi fuqarolarni ijtimoiy ta'minlashning asosiy shakllaridan biri — yoshga doir pensiyalar sanaladi. Shuni ta'kidlab o'tish kerakki, 2011-yil 1-sentabr O'zbekistonda 2098478 nafar yoshga doir pensiya oluvchi pensioner bo'lgan va Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2011-yil 8-oyi uchun daromadlari 6 trillion so'mni tashkil etgan¹.

Bu ko'rsatkich xalqaro ko'rsatkichlarga birmuncha yaqin keladi. Jumladan, Yevropadagi oilalar umumiy daromadida davlat tomonidan beriladigan ijtimoiy to'lovlar 25,7 foizni, uning 2/3 qismini esa pensiya shaklidagi to'lovlar tashkil etadi. Yevropa Ittifoqi a'zosi bo'lgan davlatlarda esa 30 foizdan ortiq oilalar qarilik nafaqalari bilan ta'minlanganlar. Bu ko'rsatkich turli davlatlarda turlicha bo'lsa-da, ammo xarid qilish quvvati standartlari (Standart de Pouvoir d'Achat)ga umuman olganda mos keladi².

Bizning respublikamizda ham ijtimoiy ta'minotning amalga oshirilishida ushbu xalqaro standartlarga moslashish maqsadi ilgari surilgan.

„Yoshga doir pensiya“ tushunchasi qonunchiligimizda nisbatan yangi bo'lib, O'zbekiston Respublikasining „Fuqarolarni davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi 1993-yil 3-sentabrda qabul qilingan qonunida dastavval muomalaga kiritildi. Bunga sabab qarilik va yoshga doir pensiya tayinlash yosh tushunchalari o'rtasida jiddiy tafovut borligi bo'ldi. Qonunchilikda 50 yosh, 45 yosh va hatto 40 yoshdan pensiyaga chiqish mumkinligini nazarda tutadi. Vaholanki, 40 yoshli, 50 yoshli va hatto 60 yoshli shaxslarni qariya deb atash ko'pchilik hollarda g'ayrioddiy tuyuladi.

Hozirgi paytda amalda bo'lgan „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi hamda „Harbiy xizmatchilarni pensiya

¹ Q a r a n g : Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2011-yil uchun tezkor ma'lumotlari. T., 2011-yil.

² Q a r a n g : «Банковские ведомости» haftanomasi, 2001-yil, 3-son.

ta'minoti to'g'risida"gi qonunlarga muvofiq yoshga doir pensiyalarning quyidagi turlari nazarda tutilgan:

- 1) umumiy asoslardagi yoshga doir pensiya;
- 2) imtiyozli shartlar bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya;
- 3) to'liqsiz ish staji bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya;
- 4) muddatidan oldin tayinlanadigan yoshga doir pensiya;
- 5) harbiy xizmatchilarning uzoq yillik xizmati uchun tayinlangan pensiyalar.

Ushbu pensiyalar umumiy jihatlari bilan bir qatorda birmuncha o'ziga xos jihatlarga ham ega bo'lib, pensiyaga oid qonunchilik amaliyotda qo'llanilayotganida ushbu jihatlarni e'tiborga olinmog'i lozim bo'ladi.

5.2. Umumiy asoslarda yoshga doir pensiya tayinlash va uning shartlari

O'zbekiston Respublikasining „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunining 1-moddasiga ko'ra:

O'zbekiston Respublikasi fuqarolari ushbu qonunda nazarda tutilgan tartibda davlat tomonidan pensiya bilan ta'minlanish huquqiga egadirlar.

Respublika hududidan tashqarida yashab turgan O'zbekiston Respublikasining fuqarolarini pensiya bilan ta'minlash O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari asosida amalga oshiriladi.

O'zbekiston Respublikasida doimiy yashab turgan chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, bosharti O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o'zgacha qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari bilan teng ravishda pensiya olish huquqiga egadirlar.

Ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolar va ularning oilalari qonunga binoan davlat pensiyalari olish huquqiga ega emaslar. Ularning ijtimoiy ta'minlanish tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab beradi.

Demak, korxona va tashkilotlarda yollanib (mehnat shartnomasi tuzib) ishlagan yoki bo'lmasa boshqacha tarzda ijtimoiy-foydali faoliyat (jamoat xo'jaligi, shirkat xo'jaligi, fermer-dehqon xo'jaligi, kooperativlar a'zosi sifatida, yakka tartibdagi tadbirkor

sifatida, erkin ijodkor tarzida va hokazo) bilan shug'ullangan, ular uchun ish beruvchi tomonidan yoki bevosita o'zlari tomonidan (yakka tadbirkor, dehqon xo'jaligi a'zosi va boshqalar) Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy sug'urta badallari to'langan va ish staji davriga qo'shib hisoblanadigan davomiy davrga ega bo'lgan fuqarolarga yoshga doir pensiya tayinlanishi mumkin.

Faoliyatning muayyan turlari bilan mashg'ul bo'lgan shaxslar (masalan, harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organi xodimlari, boshqa ba'zi davlat xizmatchilari) uchun Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langan-to'lanmaganligidan qat'i nazar umumiy asoslarda yoshga doir pensiya olish huquqiga ega ekanliklari belgilab qo'yilgan.

Fuqarolarda pensiya olish huquqi berilganida (muayyan yoshga yetgan va ish stajiga ega bo'lganda) istagan paytda pensiya so'rab murojaat qilish huquqi berilgan yoki bu huquqdan vaqtincha voz kechishlari mumkin va o'zlari xohlagan vaqtgacha mehnat faoliyatlarini davom ettirishlari mumkin.

Fuqaro qonunga ko'ra bir necha pensiya turini olishga ayni paytda haqli bo'lib qolgani taqdirda (masalan, nogironlik pensiyasi yoki uzoq yillik xizmat pensiyasini olib kelgan shaxs qarilik pensiyasi olish yoshiga yetsa) bu pensiyalardan faqat bittasini olishga haqli bo'ladi va pensiya turini tanlash huquqi fuqaroga berilgan.

„Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 7-moddasiga ko'ra yoshga doir pensiya olish huquqiga:

erkaklar — 60 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

ayollar — 55 yoshga to'lganda va ish stajlari kamida 20 yil bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Yoshga doir pensiya tayinlash vaqtida O'zbekiston Respublikasi „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunining 37-moddasida sanab ko'rsatilgan barcha faoliyat turlari mehnat stajiga qo'shib hisoblanadi. Ammo bunda haqiqiy ishlagan davrga ko'ra hisoblanadigan mehnat staji bilan shartli ravishda e'tiborga olinadigan mehnat staji (bolalar parvarishi bilan mashg'ul bo'lgan davr, amalda ishlamagan bo'lsa-da, qonun hujjatlariga ko'ra ish stajiga qo'shib hisoblanadigan boshqa davrlar) o'rtasidagi o'zaro nisbat nazarda tutib qo'yilgan.

Xullas fuqarolarga umumiy asoslarda yoshga doir pensiya tayinlanishining asosiy shartlari:

- a) fuqaroning belgilangan yoshga yetganligi;
- b) muayyan hajmdagi ish stajiga ega ekanligi;
- d) fuqaroning yoshga doir pensiya tayinlashlikni soʻrab ariza bilan murojaat qilishi sanaladi.

5.3. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash asoslari

Fuqarolarga ularning kasbi, mehnat sharoitlarining xususiyatlari va boshqa omillar eʼtiborga olingani holda odatdagidan afzalroq shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash nazarda tutilgan. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlanishi aslida shaxs noqulay, zararli yoki ruhiy-fiziologik jihatdan tang sharoitlarda ishlaganligi, shu orqali oʻz sogʻligʻi va hayotini xavf ostida qoldirgani holda jamiyatga koʻproq foyda keltiruvchi faoliyat turi bilan shugʻullanganligi uchun jamiyat tomonidan tovon toʻlanishidan iboratdir.

Imtiyozli shartlarda pensiya tayinlanishi natijasida fuqaro yoshga doir pensiyaga chiqish paytida quyidagi imtiyozlarni qoʻlga kiritishi mumkin:

- 1) pensiyaga chiqish uchun belgilangan yoshning odatdagidan kamroq boʻlishi;
- 2) talab etiladiganidan kamroq mehnat stajiga ega boʻlgan hollarda ham pensiya tayinlanishi;
- 3) pensiya miqdorini hisoblash paytida afzallik berilishi;
- 4) pensioner ishni davom ettirgani taqdirda ham afzallik berilishi va boshqalar.

Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlashning umumiy asoslari „Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida“gi qonunning 9-moddasida nazarda tutilgan.

Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tasdiqlaydigan roʻyxatlarga muvofiq fuqarolarning ayrim toifalari imtiyozli shartlarda koʻra pensiya olish huquqiga ega boʻladilar.

Jumladan, Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 1994-yil 12-maydagi 250-sonli „Imtiyozli shartlarda pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassa-

salar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning ro'yxatini tasdiqlash to'g'risida"gi qaroriga binoan talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo'lganda yoshidan qat'i nazar, pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar va lavozimlarning 1-sonli ro'yxati; talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo'lganda umumiy belgilangan yoshdan 10 yil oldin pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 2-sonli ro'yxati; talab qilinadigan umumiy va maxsus ish staji bo'lganda umumiy belgilangan yoshdan 5 yil oldin pensiyaga chiqish huquqini beruvchi ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 3-sonli ro'yxati tasdiqlangan¹.

Imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqiga, shuningdek, urush nogironlari, bolalikdan nogiron bolalarning onalari, liliputlar, pakanalar va ekologiya falokati mintaqasida ishlagan fuqarolar egadirlar.

Ushbu ro'yxatlar O'zbekiston Respublikasida qo'llaniladigan va mulkchilik shakli, xo'jalik yuritish usullaridan qat'i nazar barcha korxona, muassasa, tashkilotlar uchun majburiy bo'lgan imtiyozli pensiya olish huquqini beruvchi ishlar, kasblarni o'zlarida mujassamlashtirgan. Ularda fan va texnikaning bugungi kunda erishgan yutuqlari, texnologiyalarning xususiyatlari, mehnatni tashkil qilish darajasi korxonalaridagi noqulay va zararli ishlab chiqarish omillarini to'liq bartaraf etib bo'linmasligi, mutlaq xavfsiz va qulay mehnat sharoitlari yaratish imkoni yo'qligi hisobga olingani holda imtiyozlar hajmi belgilab qo'yilgan. Bunda pensiya sohasida beriladigan imtiyozlar hajmi va mazmuni mehnat qilish sharoitlari og'irligi, zararli omillar ta'sir kuchi kabi holatlarga mutanosib ravishda belgilangan.

„Yoshga doir imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini beradigan ishlab chiqarishlar, muassasalar, ishlar, kasblar, lavozimlar va ko'rsatkichlarning 1, 2 va 3-sonli ro'yxatlarini qo'llash tartibi to'g'risidagi tushuntirish tasdiqlangan bo'lib², unda ro'y-

¹ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami. 1994-yil., 5-son, 27-modda.

² Qarang: „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga sharhlar“. T., 1996-yil, 20-bet.

xatlardagi imtiyozlarni turli sharoitlarda tatbiq etishning alohida jihatlari hamda o'ziga xos qoidalar belgilab berilgan.

Unda ko'rsatilishicha, shaxsning asossiz qatag'on qilingan, noto'g'ri ishdan bo'shatilganligi tufayli majburan ishsiz yurgan vaqtlari yoki bolasi ikki yoshgacha bo'lgan ayolning boshqa yengilroq ishga o'tkazilgan vaqti va qonun hujjatlarida nazarda tutib qo'yilgan boshqa davrlar shartli ravishda imtiyoz beradigan ishlarda ishlagan vaqtlarga tenglashtiriladi hamda tegishli imtiyozning to'la hajmda berilishiga sabab bo'ladi.

Yoshidan qat'i nazar, quyidagilar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

a) kon sanoatidagi yetakchi kasb egalari bo'lgan xodimlar kamida — 20 yillik ish stajiga ega bo'lsalar (1-sonli ro'yxat, I qism);

b) bevosita yerosti va ochiq kon ishlarida (shu jumladan, kon-qutqaruv qismlarining shaxsiy tarkibi) ko'mir, ma'danlar va boshqa foydali qazilmalarni qazib olishda, shaxtalar va konlar qurilishida to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar — kamida 25 yillik ish stajiga ega bo'lsalar (1-sonli ro'yxat, II qism);

d) uchuvchilar va uchuvchi-sinovchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar, ular xizmat qilgan korxonalar, muassasalar va tashkilotlarning idoraviy bo'ysunuvidan qat'i nazar, belgilangan xizmat muddatini ana shu lavozimlarda erkaklar kamida 25 yil va ayollar kamida 20 yil ado etganlari taqdirda (1-sonli ro'yxat, III qism).

Yuqorida qayd etib o'tilgan xodimlar salomatligiga (kasalligiga) ko'ra uchuvchilarning o'z kasblaridan bo'shatilgani taqdirda, belgilangan xizmat muddatini — erkaklar kamida 20 yil va ayollar kamida 15 yil ado etgan bo'lsalar;

e) teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalari artistlarining ayrim toifalari:

ijodiy ish staji kamida 20 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, IV qism);

ijodiy ish staji kamida 25 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, V qism);

ijodiy ish staji kamida 30 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, VI qism);

f) sportchilarning ayrim toifalari — ish staji kamida 20 yil bo'lganda (1-sonli ro'yxat, VII qism).

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli „Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida“gi qarori bilan „Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom“ning 4-ilovasida „Uchuvchilar va sinovchi uchuvchilar tarkibiga kiruvchi xodimlarga pensiya tayinlash uchun belgilangan ish stajini hisoblash TARTIBI nazarda tutilgan¹ va unda ushbu toifadagi xodimlar xizmat muddatlarini hisobga olish uchun asos bo'ladigan mezonlar hamda birliklar, bunday xizmat muddatlarini imtiyozli (karalab ko'paytirgan holda) hisobga olish shartlari bayon etib berilgan.

Uchuvchilar va sinovchi uchuvchilar tarkibiga kiruvchi xodimlar salomatligining yomonlashuviga ko'ra uchuvchilik kasbidan bo'shagan taqdirda belgilangan xizmat muddatining muayyan qismini o'tagan bo'lsalar, xususan, erkaklar kamida 20 yillik, ayollar kamida 15 yillik maxsus ish stajiga ega bo'lsalar imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Teatrlar va boshqa teatr-tomosha korxonalarining artistlari muayyan toifalari muayyan maxsus mehnat stajiga ega bo'lganlarida imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, 1-sonli ro'yxatning VII qismiga ko'ra sportchilarning ayrim toifalari ham muayyan maxsus mehnat stajiga ega bo'lganlarida yoshga doir pensiyaga chiqishlari mumkinligi aytiladi.

Xususan: „Ular masterlar komandasi shtatida 10 yil turganda, jumladan, O'zbekiston Respublikasi terma komandalarida yoki O'zbekiston Respublikasi terma komandasi tarkibida kamida 6 yil turganda imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining xizmat ko'rsatgan masteri, xalqaro klassdagi sport masterlari ham shunday pensiya huquqiga egadirlar“, deb ko'rsatib qo'yilgan.

„Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 11-moddasida umumiy belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda imtiyozli pensiya olish huquqi haqida ko'rsatilgan bo'lib, u Vazirlar Mahkamasi tomonidan 1994-yil 12-mayda tasdiqlangan 2-sonli ro'yxatga mos keladi. Mazkur moddada qayd etilishicha:

¹ O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami. 2011-yil, 37-son, 377-moddasi.

Oxirgi ish joyidan qat'i nazar, quyidagilar qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 10 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar:

a) yerosti ishlarida, mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda to'liq ish kuni davomida band bo'lgan xodimlar (2-sonli ro'yxat, I qism):

erkaklar — ish staji kamida 20 yil bo'lib, bundan kamida 10 yili ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda;

ayollar — ish staji kamida 15 yil bo'lib, bundan kamida 7 yil-u 6 oyi ko'rsatib o'tilgan ishlarga to'g'ri kelgan taqdirda.

Yerosti ishlaridagi mehnat staji erkaklarda 10 yildan kam va ayollarda 7 yil-u 6 oydan kam bo'lgan hollarda xodimlarga bu ishlardagi har bir to'liq yil uchun ushbu qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi 1 yilga qisqartiriladi.

Mehnat sharoiti o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda — erkaklar kamida 5 yil, ayollar kamida 3 yil-u 9 oy ishlagan xodimlarga pensiya ushbu qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi shunday ishda band bo'lingan har bir to'liq yil uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

b) sirklar va konsert tashkilotlari artistlarining ayrim toifalari ijodiy ishdagi staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda (2-sonli ro'yxat, II qism).

2-sonli ro'yxat ikki qismdan iborat bo'lib, I qismida xalq xo'jaligining barcha tarmoqlarida (yerosti, tog'-kon, metallurgiya, kimyo, neftni qayta ishlash, sog'liqni saqlash, transport, umumiy kasblar, atom energetikasi va boshqa sohalarga oid ishlar) qo'llaniladigan zararli va og'ir ishlar sanab ko'rsatilgan.

II qismida esa sirk va boshqa konsert tashkilotlarining artistlari nazarda tutilgan.

3-sonli ro'yxatda umumiy belgilangan yoshni 5 yilga kamaytirilgani holda, ya'ni erkaklar uchun — 55 yoshdan, ayollar uchun esa 50 yoshdan yoshga doir pensiyaga chiqish huquqini beradigan ishlar, kasblar, lavozimlar nazarda tutilgan. Ushbu ro'yxat hajm jihatidan eng salmoqlisi bo'lib hisoblanadi va xalq xo'jaligi, iqtisodiyot tarmoqlarining turli sohalariga oid bir necha yuzlab turli kasb va vazifalar ko'zda tutilgan. Ushbu ro'yxat tarkibiy jihatdan to'qqiz qismdan iborat va birinchi qismining o'zida 35 bo'lim mavjud.

„Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida“gi qonunning 12-moddasiga koʻra:

oxirgi ish joyidan qatʼi nazar, quyidagilar ushbu qonunning 7-moddasida belgilangan yoshni 5 yilga qisqartirilgan holda pensiya olish huquqiga ega boʻladilar:

a) urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar;

b) mehnat sharoiti zararli va ogʻir ishlarda toʻliq ish kuni davomida band boʻlgan xodimlar (3-sonli roʻyxat, I qism):

erkaklar — ish staji kamida 25 yil boʻlib, bundan kamida 12 yil-u 6 oyi koʻrsatib oʻtilgan ishlarga toʻgʻri kelgan hollarda;

ayollar — ish staji kamida 20 yil boʻlib, bundan kamida 10 yili koʻrsatib oʻtilgan ishlarga toʻgʻri kelgan sharoitda.

Mehnat sharoiti zararli va ogʻir ishlarda — erkaklar kamida 6 yil-u 3 oy, ayollar kamida 5 yil — ishlagan xodimlarga pensiya ushbu qonunning 7-moddasida nazarda tutilgan pensiya yoshi erkaklarning bunday ishdagi har 2 yil-u 6 oyi uchun va ayollarning bunday ishdagi har 2 yili uchun 1 yilga qisqartirilgan holda tayinlanadi;

d) bolalikdan nogiron farzandlarning onalari ularni sakkiz yoshgacha tarbiyalagan boʻlsa — ish staji kamida 20 yil boʻlgan taqdirda. Basharti, ayol oʻgay oʻgʻil, qizni 8 yoshga toʻlguniga qadar kamida 5 yil davomida tarbiyalagan boʻlsa, pensiya tayinlashda ular haqiqiy farzandlar bilan teng ravishda hisobga olinadi;

e) nogiron bolalar uchun ixtisoslashgan taʼlim muassasalari, „Mehribonlik“ uylari, harbiy akademik litseylar, tarbiya koloniyalari oʻqituvchilari — maxsus ish staji kamida 25 yil boʻlgan taqdirda (3-sonli roʻyxat, VII qism);

f) ixtisoslashgan tibbiy muassasalarning shifokorlari va oʻrta tibbiy xodimlari — maxsus ish staji qishloq joyda kamida 25 yil va shaharlarda kamida 30 yil boʻlgan taqdirda (3-sonli roʻyxat, VIII qism);

g) mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlarining qariyalar, nogironlar va yolgʻiz fuqarolarga xizmat koʻrsatishda bevosita band boʻlgan xodimlari (3-sonli roʻyxat, IX qism):

erkaklar — maxsus ish staji kamida 25 yil boʻlgan taqdirda;

ayollar — maxsus ish staji kamida 20 yil boʻlgan taqdirda.

12-moddaning „b“ bandiga binoan imtiyozdan foydalanish huquqiga roʻyxatning I qismi, barcha 35-boʻlimida nazarda tutib

qo'yilgan kasb va vazifalarda belgilangan muddat davomida mehnat qilgan barcha fuqarolarda yuzaga keladi. Bunda ularning ushbu ishlarda qachon oldin yoki keyin ishlaganliklarining ahamiyati yo'q.

Hozirgi paytda fuqarolarning juda katta qismi, mazkur 3-sonli ro'yxatda nazarda tutilgan imtiyozli yoshga doir pensiyaga chiqish huquqidan foydalanmoqdalar.

„Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunda boshqa asoslarga ko'ra imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiyaga chiqish huquqini beruvchi holatlar ham ko'zda tutib qo'yilgan.

Jumladan, mazkur qonunning 13-moddasiga muvofiq gipofizar mittilik (nanizm) kasaliga chalinganlar (liliputlar) va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan pakana (bukur) shaxslar: erkaklar kamida 25 yillik ish staji bilan 45 yoshdan, ayollar esa kamida 20 yillik ish staji bilan 40 yoshdan yoshga doir pensiyaga chiqishga haqli bo'ladilar. Fuqaroning gipofizar mitti (liliput)ligi yoki pakana (karlik) ekanligi tibbiy mezonlarga ko'ra va tibbiy xulosalarga muvofiq ravishda belgilanadi.

1999-yilni Respublikamiz Prezidenti I.A. Karimov tashabbusiga ko'ra „Ayollar yili“ deb e'lon qilinishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 1999-yil 14-aprelda „Xotin-qizlarga qo'shimcha imtiyozlar to'g'risida“ qonun qabul qilindi¹. Ushbu qonunda nazarda tutilgan imtiyozlardan biri — mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalarda mehnat qilish, harbiy xizmat davri (mudofaa, ichki ishlar, milliy xavfsizlik xizmatlari va boshqalar), harbiylashtirilgan soqchilikdagi maxsus aloqa organlari va tog'-kon qutqaruv qismlaridagi xizmat; ijtimoiy sug'urta Pensiya jamg'armasiga tegishli badallar to'lanishi, yakka tartibdagi (yuridik shaxs tashkil etmasdan) mehnat faoliyati tufayli kamida 20 yillik mehnat stajiga ega bo'lgan ayollar 54 yoshdan yoshga doir pensiyaga chiqishlari mumkin bo'ldi. Ushbu qonun qabul qilinishi munosabati bilan „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonuni yangi, 12-Prim 1-modda bilan to'ldirildi.

Boshqacha asoslarga ko'ra 20 yillik ish stajiga ega bo'lgan ayollar (bolalarni parvarishlash, I guruh nogironi yoki 80 yoshdan oshgan qariyaga qarab turilgan vaqt, oliy yoki boshqa

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1999-yil, 5-son, 112-modda.

kunduzgi o'quv yurtlarida o'qish davri va boshqalar) bunday imtiyozdan foydalana olmaydilar. Masalan, fuqaro Bozorova jami 30 yillik ish staji bilan 54 yoshdan pensiya tayinlashlikni so'rab murojaat qildi. U 25 yil qishloq xo'jaligi mashinasozligi zavodida buxgalter bo'lib ishlagan va 5 yil uch yoshga yetmagan bolalari parvarishi bilan band bo'lgan. Bozorova 54 yoshdan yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega, chunki uning bevosita mehnat staji 20 yildan ko'p. Fuqaro Ismatova 54 yoshdan pensiya tayinlashni so'rab murojaat qildi. Uning umumiy ish staji 26 yil bo'lib, shundan 3 yili go'dak bolalarni parvarishlash davridan, 5 yili esa Oliy o'quv yurtida ishlab chiqarishdan ajralgan holdagi o'qish davridan iborat. Ya'ni Ismatovaning bevosita ishlagan davridagi mehnat staji 15 yilni tashkil qiladi. Uning bevosita mehnat staji 20 yildan kam bo'lganligi tufayli 54 yoshdan pensiyaga chiqish huquqidan foydalanishga haqli emas.

5.4. To'liqsiz mehnat staji hamda muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash va ularning xususiyatlari

Fuqarolar yoshga doir pensiyalarga ega bo'lishlari uchun belgilangan yoshga yetgan va talab etiladigan eng kam ish stajidan kam bo'lmagan mehnat stajiga ega bo'lganlaridagina to'liq miqdorda tayinlanadi.

Biroq, „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 8-moddasiga ko'ra to'liqsiz mehnat staji bilan ham yoshga doir pensiya tayinlanishi mumkinligi ko'zda tutilgan va qonunning 8-moddasiga ko'ra: „Pensiya tayinlash uchun (7-modda) yetarlicha ish stajiga ega bo'lmagan shaxslarga yoshga doir pensiyalar ushbu qonun 37-moddasi birinchi qismining „a“, „b“, „v“ va „g“ bandlarida nazarda tutilgan kamida 5 yil ish staji mavjud bo'lgan taqdirda, bor stajga mutanosib miqdorda pensiya (29-modda) tayinlanadi.

Pensiya yoshiga yetgan fuqaro belgilab qo'yilganidan (erkaklar — kamida 25 yil, ayollar — kamida 20 yil) kam mehnat stajiga ega bo'lganlarida ham (masalan 5 yildan ko'proq yoki 10 yillik ish staji bilan) pensiya tayinlashlarini so'rab murojaat qilishga haqli bo'ladi. Bunday holda fuqaroga mavjud mehnat stajiga mutanosib ravishda va to'liq pensyaning taqdim etilgan mavjud mehnat stajiga mos keluvchi hajmda to'liq bo'lmagan

yoshga doir pensiya tayinlanishi mumkin. Bunday pensiyani hisoblab chiqarish qoidalari, pensiyaning eng kam miqdori va boshqa masalalar amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq tarzda hisoblanadi.

Demak, amaldagi pensiya qonunchiligi 5 yildan kam bevosita ish stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga pensiya tayinlashni nazarda tutmaydi.

„Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 14-moddasida muddatidan avval tayinlanadigan yoshga doir pensiya nazarda tutilgan va unga ko'ra:

— xodimlarning soni qisqartirilishi yoki korxonalar, muassasalar va tashkilotlar tugatilishi munosabati bilan bo'shatilgan va ishsiz maqomiga ega bo'lgan shaxslar:

— erkaklar — 58 yoshga to'lganda va ish staji kamida 25 yil bo'lgan taqdirda;

— ayollar — 53 yoshga to'lganda va ish staji kamida 20 yil bo'lgan taqdirda pensiya olish huquqiga ega bo'ladi.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-mayda qabul qilingan „Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida“gi qonunning 25-moddasi, 11-qismiga ko'ra: „Texnologiyadagi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil qilishdagi o'zgarishlar, xodimlar soni (shtati) yoki ish xususiyatining o'zgarishiga olib kelgan ishlar hajmining qisqarganligi yoxud korxonaning tugatilganligi munosabati bilan ishdan ozod etilgan va ishsiz deb e'tirof etilgan, pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiq pensiyaga chiqish uchun talab etiladigan umumiy mehnat stajiga ega bo'lgan shaxslarga muddatidan oldin (qonun hujjatlarida belgilangan umumiy asoslarga ko'ra pensiya tayinlash muddatidan ikki yil oldin) pensiyaga chiqish huquqi beriladi“.

O'zbekiston Respublikasi Ijtimoiy ta'minot va mehnat vazirligi tomonidan 1998-yil 30-noyabrda tasdiqlangan va 1999-yil 7-yanvar kuni O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'y-xatiga olingan „Alohida asoslarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda ishdan bo'shatilgan xodimlarga muddatidan oldin pensiya tayinlash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnomaga ko'ra O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 100-moddasi ikkinchi qismining 1-bandida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra mehnat shartnomasi bekor qilinganda umumiy asoslarda belgilangan pensiya

yoshi arafasida bo'lgan xodimlarga muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash va to'lash tartiblari belgilab qo'yilgan¹.

Ushbu yo'riqnomaga ko'ra:

— ishdan ozod etilgan shaxslar mehnat shartnomasi bekor qilingan kundan so'ng o'n kalendar kuni ichida o'zlarining yashash joyidagi mehnat bo'limiga ish qidiruvchi shaxs sifatida murojaat qilsalar, mehnat bo'limi xodimlari bunday shaxslarga uch oy muddat ichida, agarda ular o'n kalendar kunidan keyin murojaat qilsalar — o'n kun muddat ichida maqbul keladigan ishni topishda yordam berishlari kerak.

Agar ish qidiruvchi shaxsga mehnat bo'limi tomonidan belgilab qo'yilgan muddatlar ichida ikki marta maqbul keladigan ish taklif qilinmasa, bunday holda ular mehnat bo'limida ish qidiruvchi shaxs sifatida ro'yxatga olingan kundan boshlab ishsiz deb e'tirof etiladilar.

Mehnat bo'limi ishsiz deb e'tirof etilgan va muddatidan oldin yoshga doir pensiyaga chiqish huquqiga ega bo'lgan fuqarolarga belgilangan shakldagi taqdimnomani tayyorlaydi va 5 kun ichida shaxs yashab turgan tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga topshiradi.

Muddatidan oldin pensiya tayinlangandan so'ng fuqarolar ishga kirib, so'ngra belgilangan umumiy pensiya yoshiga yetgunlariga qadar ishdan bo'shasalar, mehnat shartnomasining bekor qilinish sababiga bog'liq ravishda quyidagi tartib qo'llaniladi:

— agar mehnat shartnomasi Mehnat kodeksi 100-moddasining ikkinchi qismi 1-bandida ko'rsatilgan sabablarga ko'ra bekor qilinsa — muddatidan oldin pensiya mazkur Yo'riqnomada belgilangan shartlar va tartib asosida qayta tayinlanadi;

— agarda mehnat shartnomasi boshqa sabablarga ko'ra bekor qilinsa — muddatidan oldin pensiya qayta tayinlanmaydi va avval tayinlangan pensiya to'lovi ham tiklanmaydi.

Muddatidan oldin pensiya olayotgan fuqaro umumiy asoslarda pensiya olish yoshiga yetganda, pensiya to'lovi belgilangan tartibda Pensiya jamg'armasining o'z mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

¹ Qar ang: O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, Davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi, 1999-yil, 1-son.

Muddatidan oldin tayinlangan pensiyalarni to‘lash uchun sarflangan mablag‘lar tuman (shahar) Bandlikka ko‘maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish markazlari mablag‘lari hisobidan qoplanadi va uni Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasiga qoplab berilishi tartiblari qonun hujjatlari bilan belgilanadi.

KALIT SO‘ZLAR. Yoshga doir pensiyalar. Umumiy asoslarda tayinlanadigan yoshga doir pensiya. Imtiyozli shartlar bilan tayinlanadigan yoshga doir pensiya. Kasb va vazifalarning 1-sonli, 2-sonli va 3-sonli ro‘yxatlari. To‘liqsiz ish staji bilan yoshga doir pensiya tayinlash. Yoshga doir pensiya tayinlashda mehnat staji nogironlarga (mitti va pakanalarga) pensiya tayinlash. Muddatidan oldin pensiya tayinlash.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. Yoshga doir pensiya tushunchasiga ta’rif bering.
2. Yoshga doir pensiyalarning qaysi turlarini bilasiz?
3. Umumiy asoslarda va imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash asoslari qanday?
4. Imtiyozli pensiya tayinlashga asos bo‘ladigan 1, 2 va 3-sonli ro‘yxatlar haqida so‘zlab bering.
5. Qachon muddatidan avval yoshga doir pensiya tayinlash mumkin?
6. To‘liq bo‘lmagan mehnat staji bilan yoshga doir pensiya tayinlash tartibi qanday?

VI BOB. NOGIRONLIK TUSHUNCHASI VA UNI BELGILASH TARTIBI

6.1. Nogironlik tushunchasi, nogironlikning asosiy mezonlari va belgilanish tartibi

Fuqarolarni nogironlik pensiyasi bilan ta'minlashning huquqiy asosi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (39-moddasi), „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonuni (III bob, 15—18-moddalari) „O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida“gi qonun (Yangi tahrirda) va ular asosida qabul qilingan boshqa qonun hujjatlari sanaladi. Shuni qayd etish joizki, 470288 nafar nogiron bugungi kunda nogironlik pensiyasini oluvchilar sifatida Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlarida hisobda turalilar¹.

„Nogiron“ shaxs atamasining rasmiy ta'rifi „O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida“gi qonunning 1-moddasida nazarda tutilgan. Unga ko'ra:

„Nogiron — jismoniy, aqliy, ruhiy yoki sensor (sezgi) nuqsonlari borligi tufayli turmush faoliyatining cheklanganligi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan hamda ijtimoiy yordamga va himoyaga muhtoj shaxs“. Mazkur rasmiy ta'rifda nogironlikning asosiy mezonlari belgilab qo'yilgan bo'lib, jismoniy nuqson deganda — tananing biror organining nuqsonliligi, o'z funksiyalarini to'la yoki qisman bajarishga qodir emasligi va shu tufayli erkin harakatlanish, o'z ehtiyojlarini bevosita qondirish imkoniyati cheklanishiga olib keladi.

Aqliy nuqson — shaxsning intellektual jihatdan rivojlanmaganligi, mushohada qilish qobiliyatining mavjud emasligi yoki primitivligi bilan tavsiflanishi mumkin.

Ruhiy nuqson — odatda, ruhiy buzilishi va shu tufayli atrof-tevarakni to'g'ri idrok qila olmaslik, o'z xatti-harakatlariga tanqidiy baho berish qobiliyatining cheklangani bilan tavsiflanib, odatda, ruhiy kasallikning muayyan turi bilan kasallanganligi bilan bog'liq bo'ladi.

¹ Qarang: Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining 2011-yil uchun tezkor ma'lumotlari. T., 2011-yil.

Sensor nuqson — deganda sezgilarning yo‘qolishi (ko‘zining o‘jizligi, kar-soqovlik va teri sezgilarining mavjud emasligi va boshqalar) nazarda tutilib, uning natijasida shaxs o‘ziga o‘zi xizmat qilish, erkin harakatlanish, tanlash imkoniyatiga ega bo‘lmaydi yoki cheklangan bo‘ladi.

Shaxsning turmush faoliyati cheklanganligi uning o‘z-o‘ziga xizmat qilish, yurish, yo‘lni topa bilish, muloqot qilish, o‘z xatti-harakatlarini nazorat qilish, shuningdek, mehnat faoliyati bilan shug‘ullanish qobiliyati yoki imkoniyatini to‘la yoki qisman yo‘qotganligida ifodalanadi.

Shaxsni, shu jumladan, o‘n oltidan o‘n sakkiz yoshgacha bo‘lgan yoshlarni nogiron deb topish tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan, o‘n olti yoshgacha bo‘lgan o‘smirlarni nogiron deb topish esa, tibbiy-maslahat komissiyalari tomonidan amalga oshiriladi.

Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari va tibbiy-maslahat komissiyalarini tuzish, shuningdek, ular tomonidan xulosalar berish qonun hujjatlarida belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2008-yil 8-avgustdagi 175-sonli „Tibbiy-mehnat ekspertiza xizmati boshqarish tuzilmasini va faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida“gi qaroriga ko‘ra ushbu muassasalar ishi tubdan isloh qilindi va nogironlikni belgilash yuzasidan zarur tartib-intizom kuchaytirildi¹.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 1-iyuldagi 195-sonli „Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari tomonidan fuqarolarni tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga, nogironlikni va kasbiy mehnatga layoqat yo‘qotilishi darajasini aniqlashga yo‘naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to‘g‘risida“gi qarori bilan² „Fuqarolarni tibbiy-mehnat ekspert komissiyalarida tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish tartibi to‘g‘risida Nizom“ tasdiqlandi:

— mazkur Nizomga ko‘ra fuqarolarni TMEKda tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish uchun quyidagicha hayot faoliyati, ya’ni mehnatga

¹ „O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami“, 2008-yil, 33-son, 314-modda.

² „O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami“, 2011-yil, 27-son, 283-modda

layoqati cheklanganligi, nogironlikning guruhlari, sabablari, boshlangan vaqti va muddatlarini aniqlash;

— mehnat faoliyatini bajarish bilan bog'liq holda mehnatda mayib bo'lgan yoki salomatligini boshqacha tarzda shikastlagan fuqarolarning mehnatga layoqati yo'qotilganligi darajasini, shuningdek, ular yordamning qo'shimcha turlariga muhtojliklarini aniqlash;

— nogironlarning salomatligi va mehnatga layoqati holatini hisobga olgan holda ularni tibbiy va ijtimoiy mehnat bo'yicha reabilitatsiya qilish chora-tadbirlarini belgilash maqsadlarida amalga oshiriladi.

Fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazishda yashash joyidagi tumanlararo, tuman (shahar) TMEK tomonidan;

— fuqaroda mazkur TMEK sohasi bo'yicha alohida kasalliklar mavjud bo'lgan taqdirda — davolash-profilaktika muassasasiga biriktirish o'sha joydagi ixtisoslashtirilgan TMEK tomonidan;

— shifokorlarni, TMEK xodimlarini va ularning yaqin qarindoshlarini, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati xodimlarini tibbiy ko'rikdan o'tkazish, jinoyatlar sodir etganlikda gumon qilinayotgan, ayblanayotgan, sudlangan, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hukm qilingan shaxslarni, shuningdek, ixtisoslashtirilgan, tumanlararo va tumanlar (shaharlar) TMEK xulosasiga rozi bo'lmagan fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish — bosh TMEK tomonidan amalga oshiriladi. TMEKda fuqarolarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish bepul amalga oshiriladi.

TMEK tibbiy ko'rikdan o'tkazishga O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, O'zbekiston Respublikasi hududida doimiy yashaydigan xorijiy fuqarolar va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar, 16 yoshdagi va undan katta yoshdagi, davolash-profilaktika muassasasi yo'llanmasiga ega bo'lgan, ushbu TMEKga biriktirilgan shaxslarni qabul qiladi.

Boshlang'ich tibbiy ko'rikdan o'tkazishga:

— aynan bir kasallik tufayli vaqtincha mehnatga layoqatsizlik boshlangan kundan boshlab uzluksiz 4 oydan ortiqni tashkil qiladigan uzoq muddat kasal bo'lgan (sil kasalligiga chalingan bemorlardan tashqari) shaxslar;

— aynan bir kasallik tufayli vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri vaqtincha mehnatga layoqatsizlik boshlangan kundan e'tiboran 12 oy mobaynida tanaffus bilan birga 6 oy mobaynida

davom etgan shaxslar (sil kasalligiga chalingan bemorlardan tashqari);

— sil kasalligi birinchi marta aniqlangan, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik davri kasallik aniqlangan kundan boshlab kamida 10 oyni tashkil qiladigan, shuningdek, asosiy kasallik kuchaygan — vaqtincha mehnatga layoqatsizlik boshlangan kundan eʼtiboran kamida 6 oy silga qarshi kurashish muassasalarida hisobda turgan taqdirda sil kasalligiga chalingan bemorlar qabul qilinadi.

Nogironlik belgilari aniq koʻrinib turgan shaxslar, shuningdek, noxush klinik prognozli bemorlar yuqorida koʻrsatib oʻtilgan muddatlar oʻtgungacha tibbiy koʻrikdan oʻtkazishga qabul qilinishi mumkin.

Pasport yoki shaxsni tasdiqlovchi boshqa hujjat majburiy tartibda koʻrsatiladi.

TMEKda tibbiy koʻrikdan oʻtish uchun:

— DPM yoʻllanmasi, davolovchi shifokor, boʻlim mudiri, bosh shifokor imzosi va muassasaning dumaloq muhri bilan tasdiqlangan kasallik tarixidan koʻchirmalar, ambulatoriya kartasi;

— ishlaydiganlar tomonidan — vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi taqdim etiladi.

Kasbiy kasallik oqibatida kasbiy mehnatga layoqat yoʻqotilganligi darajasi va nogironlik aniqlangan taqdirda TMEKga tibbiy koʻrikdan oʻtish uchun qonun hujjatlariga muvofiq maxsus vakolat berilgan sogʻliqni saqlash muassasasi xulosasidan koʻchirma ham taqdim etiladi.

Kasbiy mehnat layoqati yoʻqotilganligini aniqlash uchun TMEKga birinchi marta yuborilgan shaxslar mehnat vazifalarini bajarish bilan bogʻliq holdagi baxtsiz hodisa yoki sogʻliqning boshqacha tarzda shikastlanganligi toʻgʻrisida belgilangan shakldagi dalolatnomani ham taqdim etadilar.

Tibbiy koʻrik natijalari boʻyicha TMEK quyidagi xulosalarni chiqarishi mumkin:

— nogironlik guruhini aniqlash, uning sabablari va muddatlari toʻgʻrisida;

— kasbiy mehnat layoqatining yoʻqotilganlik darajasi toʻgʻrisida;

— qoʻshimcha ravishda tekshirish hamda klinik tashxisni aniqlashtirish uchun tibbiy koʻrikdan oʻtuvchini biriktirilgan davolash-profilaktika muassasalariga, nogironlarni reabilitatsiya

qilish va protezlash milliy markaziga hamda nogironlar uchun mintaqaviy reabilitatsiya markazlariga yuborish to'g'risida;

— tibbiy ko'rikdan o'tayotgan bemorni davolashni oxirigacha yetkazish zarurligi munosabati bilan uning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi muddatini uzaytirish to'g'risida;

— protez-ortopediya buyumlari, nogironlik aravachalari va reabilitatsiya qilishning boshqa yordamchi texnik vositalari bilan ta'minlashga muhtojlik to'g'risida;

— mehnatga tavsiya etish, nogironning o'qitishga yoki qayta o'qitishga muhtojligi to'g'risida;

— o'zgaralar parvarishiga muhtojlik to'g'risida.

Agar qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazishda nogironlik guruhi belgilanmasa, nogironlik guruhini olib tashlash to'g'risida ushbu Nizomga 3-ilovaga muvofiq shakl bo'yicha ma'lumotnoma rasmiylashtiriladi.

Nogironlik guruhini olib tashlash to'g'risidagi ma'lumotnoma TMEK xulosasi chiqarilgan kundan boshlab uch kun muddatda tegishli Pensiya jamg'armasi bo'limiga yuboriladi.

Nogironlik navbatdagi qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish tayinlangan navbatdagi oyning birinchi kunigacha belgilanadi.

Davolovchi shifokorlar va DPMning davolash-maslahat komissiyalari (keyingi o'rinlarda DMK deb ataladi) raislari nogironlik guruhi qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish muddati ko'rsatilgan holda belgilangan fuqarolarni TMEKda tibbiy tekshirishga yuborish uchun hujjatlarning o'z vaqtida va to'g'ri rasmiylashtirilishi yuzasidan shaxsan javob beradilar.

Ko'rsatib o'tilgan muddatlardan oldin qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazish, belgilangan tartibda, sog'liqning holati va hayot faoliyatining cheklanganlik darajasi o'zgarganda, nogironlikni belgilashning to'g'riligi bosh TMEK, Respublika tibbiy-ijtimoiy ekspertiza inspeksiyasi, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va uning hududiy bo'linmalari tomonidan tekshirilganda, TMEK qarorining asossizligi holatlari aniqlanganda, shuningdek, agar TMEK qarori soxta hujjatlar asosida chiqarilganda hamda qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa holatlarda amalga oshiriladi.

Muddatsiz nogironlar deb e'tirof etilgan shaxslar ham yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlarda qayta tibbiy ko'rikdan o'tkazilishi mumkin.

6.2. Nogironlik pensiyasi tayinlash asoslari va shartlari

Nogironlik pensiyalariga chiqish huquqiga ikki xil sababga ko'ra belgilangan tartibda I yoki II guruh nogironi ekanligi tasdiqlangan fuqarolar ega bo'ladilar. Amaldagi qonunchilik III guruh nogironlariga pensiya tayinlashni nazarda tutmaydi.

Bular: birinchidan, mehnatda jarohatlanish yoki kasb kasalligiga chalinish, ushbu sabablarga tenglashtirilgan holdagi (urush nogironlari, harbiy xizmat burchini bajarishda yuz bergan va boshqa sabablarga ko'ra sodir bo'lgan nogironliklar bo'lsa; ikkinchidan, turmushda olingan jarohatlar (maishiy sabablarga ko'ra mayiblanish) yoki umumiy kasalliklar (ish bilan bog'liq bo'lmagan) oqibatidagi nogironliklardan iboratdir.

Ishlab chiqarishdagi jarohatlanish yoki kasb kasalliklari tufayli nogironlik yuz berganida nogiron shaxsning mehnat staji va uning miqdoridan qat'i nazar pensiya to'liq miqdorda tayinlanaveradi.

Nogironlikning yuz berish sabablari ishlab chiqarishda yuz bergan voqea-hodisalar bilan qay darajada bog'liqligini aniqlash paytida yuqorida keltirilgan ro'yxatdan tashqari, Vazirliklar Mahkamasining 2005-yil 11-fevraldagi 60- sonli qarori bilan tasdiqlangan „Xodimlarga ularning mehnat vazifalarini bajarish bilan bog'liq holda jarohatlanishi, kasb kasalliklariga chalinishi yoki salomatligining boshqa xil shikastlanishi tufayli yetkazilgan zararni ish beruvchi tomonidan to'lash qoidalariga“¹ hamda O'zbekiston Respublikasi Hukumatining 1997-yil 6-iyundagi 286-sonli qarori bilan tasdiqlangan „Ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni va xodimlar salomatligining boshqa xil zararlanishini tekshirish va hisobga olish to'g'risida“gi Nizom² talablariga amal qilinmog'i lozim bo'ladi.

Pensiya ta'minoti sohasida urush nogironlari va ularga tenglashtirilgan shaxslar ham ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalar yoki kasb kasalligi yuz berishi oqibatida nogiron bo'lgan shaxslar bilan teng huquqlarga egadirlar.

¹ „O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami“, 2005-yil, 5—6-son, 34-modda.

² „O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami“, 1997-yil, 6-son, 21-modda.

Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizomning 1-ilovasida „Urush qatnashchilariga tenglashtiriladigan shaxslar ro'yxati“ va 2-ilovasida „Urush nogironlariga tenglashtiriladigan shaxslar ro'yxati“ tasdiqlangan¹. Vatan urushi va boshqa urushlarda harakatdagi armiya tarkibida harbiy xizmatni o'tagan, O'zbekiston Respublikasini himoya qilishda yaralangan, kontuziya bo'lgan, mayiblanish yoki kasallanish natijasida nogiron bo'lib qolgan harbiy xizmatchilar urush nogironlari hisoblanadilar.

Davlat va jamoat vazifalarini, mahalliy hokimiyat organlarining kasbiy yoki jamoat tashkilotlarining maxsus topshiriqlarini bajarishda bu topshiriqlar asosiy ish bilan bog'liq yoki bog'liq emasligidan qat'i nazar mehnatda mayiblanish hisoblanadi.

Sud jarayonida xalq maslahatchisi, ekspert yoki guvoh bo'lib ishtirok etish, kasaba uyushmasi konferensiyasida qatnashish, maxsus topshiriqlarni bajarish, aholi ro'yxatini o'tkazishga yordam berish va hokazolar davlat yoki jamoat topshiriqlarini bajarishga misol bo'ladi.

Respublika fuqarosi burchini bajarishda, inson hayotini saqlab qolishda, davlat va jamoat mulkini, fuqarolar mulkini asrashda, huquq-tartibotni himoya qilishda sodir bo'lgan nogironlik mehnatda mayiblanish hisoblanadi.

Respublika fuqarosi burchini bajarishda, inson hayotini saqlab qolishda, tabiiy ofatlar oqibatlarini tugatishda, mulkni qo'riqlashda, qonunbuzarlarni ushlashga yordam ko'rsatishda qatnashishi tushuniladi.

Xodimning donorlik vazifasini bajarishi natijasida yuzaga kelgan nogironligi mehnatda mayiblanishdan boshlangan hisoblanadi.

Safarda baxtsiz hodisa natijasida yuzaga kelgan nogironlik, agar baxtsiz hodisa mehnat vazifasini bajarish davrida yoki safarga jo'natilgan yerga borayotgan vaqtda yoki qaytib kelayotganda, shuningdek, safar vaqtida xizmat qatnovlarida yuz bergan bo'lsa, mehnatda mayiblanish hisoblanadi².

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011-yil, 37-son, 377-modda.

² Qar ang: „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga sharhlar“. T., 1996-yil, 90-bet.

„Fuqarolarning davlat Pensiya ta’minoti to’g’risida“gi qonun-ning 16-moddasiga ko’ra:

— umumiy kasallikdan (turmushdagi maishiy jarohatlardan) nogiron bo’lib qolish tufayli tayinlanadigan nogironlik pensiyalari nogironlik boshlangan paytga qadar quyidagicha ish stajiga ega bo’lgan taqdirda tayinlanadi:

Yoshi	Ish staji (yil hisobida)
23 yoshga qadar	2
23 yoshdan 26 yoshgacha	3
26 yoshdan 31 yoshgacha	5
31 yoshdan 36 yoshgacha	7
36 yoshdan 41 yoshgacha	9
41 yoshdan 46 yoshgacha	11
46 yoshdan 51 yoshgacha	14
51 yoshdan 56 yoshgacha	17
56 yosh va undan oshganda	20

20 yoshga to’lgunga qadar umumiy kasallik tufayli ish davrida yoki ishlash to’xtatilgandan keyin nogiron bo’lib qolgan shaxslarga pensiyalar ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Mehnatda mayiblanganda yoki kasb kasalligiga uchraganda beriladigan nogironlik pensiyasidan umumiy kasallik tufayli beriladigan nogironlik pensiyasiga o’tkazilganda zarur staj nogironlik dastlab belgilangan vaqtdagi yoshga qarab aniqlanadi.

20 yoshga kirguniga qadar nogiron bo’lib qolgan fuqarolarga umumiy kasallik tufayli nogiron bo’lib qolganlarida nogironlik pensiyasi tayinlanishi paytida mehnat staji talab etilmaydi. Biroq bu shaxslar ishga kirganlaridan keyin yoki muayyan muddat ishlab, so’ngra ishdan bo’shagach, nogiron bo’lib qolgan bo’lsalargina nogironlik pensiyasi tayin etilishi mumkin.

Umumiy kasallik (maishiy jarohatlanish) tufayli nogiron bo’lib qolgan va yoshiga mos ravishda talab qilinadigan ish stajiga

to'liq ega bo'lmagan fuqarolarga (masalan, 25 yoshda nogiron bo'lib qolgan shaxs 3 yillik mehnat staji o'rniga bor-yo'g'i 1 yillik stajga ega bo'lsa) nogironlik pensiyasi ularning mavjud mehnat stajiga mutanosib ravishda tayinlanadi.

Ish staji to'liq bo'lmaganda nogironlik pensiyasi to'lanishi chog'ida har qanday mehnat staji ham (bolalarni parvarishlash davri, o'qish davri va hokazo) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda hisobga olinaveradi.

KALIT SO'ZLAR. Nogironlik. Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish. Nogironlik turlari. Nogironlik sabablari. Nogironlikni belgilash. Tibbiy mehnat ekspertiza komissiyalari. Mehnatda mayiblanish. Kasb kasalliklari. Turmushdagi jarohatlar. Umumiy kasalliklar. To'liqsiz ish staji bilan nogironlik pensiyasi tayinlash.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Nogiron shaxs deganda kim nazarda tutiladi?
2. Nogironlarni ijtimoiy himoyalashning qanday maxsus choralari nazarda tutilgan?
3. Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risidagi O'zbekiston Respublikasi qonuni haqida so'zlab bering.
4. Nogironlik sabablari nimalardan iborat bo'lishi mumkin?
5. Nogironlikni belgilash tartibi qanday?
6. TMEK haqida nimalarni bilasiz?
7. Ish bilan bog'liq holdagi nogironlik pensiyasini tayinlash qanday amalga oshiriladi?
8. Umumiy kasalliklar va maishiy jarohatlarda nogironlik yuz berganda pensiya tayinlash qanday amalga oshiriladi?
9. To'liqsiz ish staji bilan nogironlik pensiyasi tayinlash shartlari qanday?

VII BOB. BOQUVCHISINI YO‘QOTGANLIK PENSIYASI

7.1. Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tushunchasi va uni tayinlash asoslari

Boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi bilan fuqarolarni ijtimoiy ta‘minlash, pensiya ta‘minotini amalga oshirish shakllaridan biri bo‘lib, davlat tomonidan moddiy ta‘minlanib kelingan shaxsni vafot etishi munosabati bilan uning qaramog‘ida bo‘lganlarga qonun hujjatlarida belgilab qo‘yilgan tartibda, shartlarda va miqdorlarda ular voyaga yetgunlariga qadar, mehnat qilish qobiliyatlari qayta tiklangunicha yoki bo‘lmasa tegishli hollarda butun umrga davlat ijtimoiy ta‘minot mablag‘lari hisobidan tayin etiladigan, qaytarib olinmaydigan, haq olinmaydigan, muntazam ravishda to‘lab boriladigan pul to‘lovlaridan iborat.

1) ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar, ishda olingan jarohatlar yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida vafot etgan shaxslarning qaramog‘idagilarga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi;

2) ishlab chiqarishdagi sabablarga ko‘ra vafot etgan shaxslarga tenglashtirilgan holatlarda (urush harakatlari, harbiy burchni bajarish, fuqarolik burchini bajarish paytlarida va hokazo) vafot etganlarning oila a‘zolariga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari;

3) umumiy kasallikdan (turmushdagi jarohatlarning oqibatida) vafot etgan shaxslarning oila a‘zolariga tayinlanadigan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi kabilar o‘zaro farqlanadi.

4) yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan dastlabki ikki holat tufayli vafot etgan marhumlarning qaramog‘ida bo‘lib kelgan mehnatga yaroqsiz oila a‘zolariga marhum mehnat staji miqdoridan qat’i nazar pensiya tayinlanaveradi.

Uchinchi sababga ko‘ra, ya’ni umumiy kasallik (turmushdagi jarohatlanish) tufayli vafot etgan marhumlarning oila a‘zolariga esa marhum boquvchi shaxs vafot etgan paytdagi yoshiga mos keluvchi muayyan hajmdagi mehnat stajiga ega bo‘lgan bo‘lsa to‘liq miqdorda, belgilanganidan kam ish stajiga ega bo‘lsa — to‘liq bo‘lmagan miqdorda boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi tayinlanadi. Masalan, „Shinam“ mebel korxonasining muhandisi

A. Obidov umumiy kasallik tufayli 35 yoshida vafot etdi. Uning mavjud mehnat staji 10 yilni tashkil etdi. „Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida“gi qonunning 17-moddasida 30 yoshgacha bo’lgan shaxslardan 7 yillik mehnat staji talab qilinishi belgilangan. Demak, marhum A. Obidovning oila a’zolariga to’liq miqdordagi boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi tayinlanishi mumkin.

Boshqa bir misol, Agrar kasb-hunar kollejining buxgalteri A. Muhammadjonov 54 yoshida uyida ta’mirlash ishlarini bajarish paytida yuz bergan baxtsiz hodisa (tomning o’pirilib tushishi) tufayli vafot etdi. A. Muhammadjonovning mehnat staji 10 yildan iboratligi ma’lum bo’ldi. Ya’ni A. Muhammadjonov talab qilinadigan 17 yillik mehnat stajiga ega emas. Demak, uning qaramog’idagi mehnatga yaroqsiz oila a’zolariga to’liqsiz pensiya tayinlanishi lozim.

„Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida“gi qonunning 21-moddasiga muvofiq:

— mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan boquvchining oilasiga, shuningdek, marhum pensionerning oilasiga pensiya boquvchining ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Basharti, boquvchi vafot etgan kunga qadar unga nogironlik pensiyasi tayinlanishi uchun zarur ish stajiga ega bo’lgan (17-modda) bo’lsa, umumiy kasallik yoki ish bilan bog’liq bo’lmagan mayiblanish oqibatida vafot etgan boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi tayinlanadi.

Boshqa mamlakatlardan ko’chib kelgan O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining oilalariga, boquvchi O‘zbekiston Respublikasida ishlamagan bo’lsa, pensiyalar quyidagi hollarda, ya’ni:

a) boshqa mamlakatlarda boquvchisini yo’qotganlik pensiyasini olgan oilalarga — boquvchisining ish stajidan qat’i nazar;

b) pensiya olmagan oilalarga — basharti, boquvchi ishlash to’xtatilgan kunga qadar tegishli stajga ega bo’lgan (17-modda) bo’lsa, mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligiga chalinganlik oqibatida vafot etgan taqdirda esa boquvchining ish stajidan qat’i nazar tayinlanadi.

Ushbu qonunning 22-moddasiga ko’ra esa:

— umumiy kasallik oqibatida vafot etgan hamda nogironlik pensiyasini to’liq tayinlash uchun yetarlicha ish stajiga ega

bo'lmagan (17-modda) boquvchisini yo'qotgan oila a'zolariga pensiya boquvchining bor stajiga mutanosib ravishdagi miqdorda (29-modda) tayinlanadi.

Er (xotin) vafot etganligi sababli uning xotini (eri)ga tayinlangan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi, xotin (er) turmush qurgani (yangi nikohga kirgani) taqdirda ham pensiya saqlanib qolishi ko'zda tutilgan.

7.2. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqli bo'lgan shaxslar qaramog'ida bo'lish

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalarini tayinlashda ushbu pensiya turini olishga haqli bo'lgan shaxslar doirasining to'g'ri belgilanishi muhim ahamiyatga ega, chunki uning noto'g'ri belgilanishi fuqarolarning asossiz ravishda pensiya olishlariga yoki bo'lmasa pensiya olishga haqli bo'lgan shaxslarning konstitutsiyaviy huquqlarining g'ayriqonuniy tarzda cheklab qo'yilishiga sabab bo'lishi mumkin.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasiga kirish uchun quyidagi talablar qo'yiladi:

a) bolalar, aka-ukalar, opa-singillar va nabiralar 16 yoshga to'lmagan bo'lsa yoki 16 yoshdan katta bo'lsa ham 16 yoshga to'lmasdan nogiron bo'lib qolgan bo'lsalar. Bunda aka-ukalar, opa-singillar va nabiralarning mehnatga qobiliyatli ota-onalari bo'lmasa;

b) ota, ona, o'gay ota, o'gay ona, xotin, er, basharti, ular 7-moddada nazarda tutilgan pensiya yoshiga to'lgan yoki nogiron bo'lsalar;

d) yoshidan va mehnat qobiliyatidan qat'i nazar, ota va onadan biri yoki er (xotin) yoxud buva, buvi, aka-uka, opa-singil, agar u vafot etgan boquvchining bolalari, aka-ukalari, opa-singillari yoki nabiralari, ishlovchilarga bolaga qarash uchun ish haqi saqlanmagan ta'tilda bo'lish huquqini beradigan yoshga to'lgunga qadar boqish bilan mashg'ul bo'lsa va ishlamasa;

e) buva va buvi — agar qonunga muvofiq ularni boqishi shart bo'lgan kishilar bo'lmasa.

O'quvchilar 18 yoshga to'lgunga qadar boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqiga egadirlar.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan voyaga yetmagan farzandlar, ular farzandlikka olinganlarida ham bu huquqni saqlab qoladilar.

O'gay o'g'il-qiz, agar ular ota-onalaridan aliment olmagan bo'lsalar, haqiqiy farzandlar singari pensiya olish huquqiga egadirlar.

O'gay ota-ona, agar vafot etgan o'gay o'g'ilni (qizni) 18 yoshga to'lgunga qadar kamida 5 yil tarbiyalagan yoki boqqan bo'lsalar, haqiqiy ota va ona singari pensiya olish huquqiga ega bo'ladilar.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqi vafot etgan shaxslar bilan bir qatorda belgilangan tartibda bedarak ketgan yoki o'lgan deb e'lon qilingan shaxslarning¹ oila a'zolarida ham paydo bo'ladi.

Marhum boquvchi bilan qarindoshlik aloqalari O'zbekiston Respublikasi „Oila kodeksi“ qoidalarini bilan belgilanadi².

Jumladan, ushbu kodeksning 57-moddasiga muvofiq:

Bir umumiy uchinchi shaxsdan (ajdoddan) kelib chiqqan shaxslar qarindoshlar hisoblanadi. Ikki shaxs o'rtasidagi to'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlikning yaqinligi qarindoshlik darajasi, ya'ni tug'ilish soni bilan belgilanadi.

Bolalar ota-onasiga nisbatan to'g'ri shajaradagi birinchi, nevara bobosiga, buvisiga nisbatan ikkinchi, evara katta bobosiga, katta buvisiga nisbatan uchinchi darajadagi qarindosh hisoblanadi va hokazo.

Aka-uka, opa-singil, ularning bolalari, ota-onaning aka-ukasi va opa-singlisi hamda ularning bolalari, bobo va buvilarning aka-uka hamda opa-singillari va ularning bolalari va shunga o'xshashlar yon shajara bo'yicha qarindoshlar hisoblanadi va hokazo.

To'g'ri shajara bo'yicha qarindoshlar yon shajara bo'yicha qarindoshlarga nisbatan yaqinroqdir.

Ikki shaxs o'rtasida qarindoshlikning uzoq-yaqinligini aniqlashda, darajalarning soni yoki shu shaxslardan birining o'zini hisobga qo'shmay turib, undan kelib chiqqan avlodlar soni hisobga olinadi.

Hisob ajdodlar tomon to'g'ri shajara bo'yicha ular uchun umumiy bo'lgan shaxsga (ajdodga) qarab va undan esa avlodlar tomon ulardan boshqasiga qarab olib boriladi.

Tug'ishgan aka-uka va opa-singil qarindoshlikning ikkinchi

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 33, 34, 36-moddalari; Fuqarolik protsessual kodeksining 286–290-moddalari.

² Qarang: O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksiga sharhlar. T., „Adolat“, 2000-yil.

darajasida, togʻa va amaki, amma va xola oʻz jiyanlari bilan qarindoshlikning uchinchi, togʻavachcha, amakivachcha, amma-vachcha va xolavachchalar esa toʻrtinchi darajasida turadilar.

„Oila kodeksining“ 58-moddasiga koʻra esa aka-uka va opa-singillar yot aralashmagan va yot aralashgan qarindosh boʻlishi mumkin. Aka-uka va opa-singillar bir ota-onadan kelib chiqqan boʻlsa, yot aralashmagan, ota bir ona boshqa yoki aksincha ona bir ota boshqa boʻlsa, yot aralashgan qarindosh hisoblanadi. Yot aralashmagan qarindoshlikda aka-uka va opa-singillar tugʻishgan, yot aralashgan qarindoshlikda esa, aka-uka va opa-singillar oʻgay hisoblanadi. Er-xotinning ilgarigi nikohlaridan boʻlgan bolalari oʻzaro qarindosh hisoblanmaydi.

Er (xotin) va uning yaqin qarindoshlari bilan xotin (er) qarindoshlarining bir-biriga nisbatan munosabatlari (qayinboʻyinchilik va quda-andachilik) oʻzaro huquq va majburiyatlarni keltirib chiqarmaydi.

Bolaning nasl-nasabini belgilash asoslari „Oila kodeksi“ning 60-moddasida belgilab qoʻyilgan va bolaning shu onadan tugʻilganligi (onalik) fuqarolik holati dalolatnomalarini qayd qilish organi tomonidan tibbiy muassasaning hujjatlariga koʻra, bola tibbiy muassasada tugʻilmagan hollarda esa, boshqa dalillarga asosan belgilanadi.

Ayolning nikoh tuzilgandan keyin yoki erining oʻlimi, nikohdan ajratilganligi yoxud nikoh haqiqiy emas deb topilganligi tufayli nikoh tugaganidan soʻng uch yuz kun ichida tugʻilgan bolasi nikohda tugʻilgan bola hisoblanadi.

Agar nikoh tugaganidan keyin uch yuz kun ichida bola tugʻilsa va bu davrda ayol yangi nikohga kirgan boʻlsa, bola avvalgi nikohdan tugʻilgan hisoblanadi. Bunday hollarda sobiq er yoki uning ota-onasi bolaning nasl-nasabi xususida nizolashish huquqiga ega ekanliklari belgilangan.

Ota-ona rasmiy qayd etilmagan nikoh munosabatlarida (fuqarolik nikohida) boʻlganlari holda tugʻilgan farzandlarning nasl-nasabi (onasi ham, otasi ham, er-xotinning ixtiyoriy tarzda birgalikda bergan arizasiga koʻra, bunday ariza mavjud boʻlmagan va otalikni ixtiyoriy tan olishdan boʻyin tovlanayotgan hollarda otalik belgilangan tartibda sud yoʻli bilan aniqlanishi mumkin¹.

¹ Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi „Oila kodeksi“ning 61—62-moddalari; Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 2001-yil 1-maydagi „Otalikni belgilash haqidagi ishlarni koʻrishda sudlar tomonidan qonunlarning tatbiq etilishi toʻgʻrisida“gi qarori. „Qonun nomi bilan“, 2001-yil, 3—4-son, 31-bet.

Marhum boquvchi fuqaroning qaramog'ida bo'lganlik tushunchasi ta'rifi „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 20-moddasida bayon etib berilgan.

Ushbu moddada ko'rsatilishicha, qonunda nazarda tutib qo'yilgan oila a'zolari (yuqoridagi qonunning 19-moddasi) agar ular marhumning to'liq boquvida bo'lgan yoki undan yordam olib turgan bo'lsalar, bu yordam ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'ining manbayi hisoblangan bo'lsa, marhumning qaramog'ida turgan deb hisoblanadilar.

Marhumning biron turdagi pensiya olayotgan oila a'zolari, agar marhumning yordami ular uchun doimiy va asosiy kun kechirish mablag'ining manbayi hisoblangan bo'lsa, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasiga o'tish huquqiga egadirlar.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlanishini so'rab murojaat qilayotgan va hech qanday daromadga ega bo'lmagan oila a'zolarini (yosh bolalar, pensiya olmaydigan nogironlar va boshqalar) marhum boquvchi shaxs qaramog'ida bo'lib kelganligi faktini aniqlash hollari qiyinchilik tug'dirmaydi va osonlikcha hal etilishi mumkin.

Biroq marhum boquvchi hayotlik paytida bir oila bo'lib yashagan, umumiy daromadga ega bo'lgan bo'lsa-da, ammo mustaqil ish haqi (pensiya, nafaqa) yoki boshqa daromadga ega bo'lgan shaxslarning marhum qaramog'ida bo'lib kelganligini aniqlash muayyan murakkabliklar tug'diradi.

Bunda marhumning ish haqi, stipendiya yoki pensiya oluvchi oila a'zolari uning qaramog'ida turgan-turmaganligi masalasini hal qilishda ko'rsatiladigan moddiy yordam doimiy xarakterga va boshqa daromadlarga qaraganda qanday hajmda ekanligini aniqlash lozim bo'ladi.

Oila a'zosining ish haqi, stipendiya yoki pensiya olishi uni oilaning qaramog'ida deb tan olishga monelik qilmasligi kerak, buning uchun sanab o'tilgan oila a'zolarining daromadi emas, vafot etgan shaxsning yordami yashash uchun asosiy va doimiy mablag' manbayi bo'lishi kerak.

Bolalar ota-onalarining ish haqlari miqdori qancha bo'lishidan qat'i nazar har ikkalasining qaramog'ida deb hisoblanadilar. Uy xo'jaliklari bilan shug'ullanuvchi ishlamaydigan onalarning bolalari uning qaramog'ida deb tan olinadi. Ota o'lgandan keyin tug'ilgan yoki tug'ish paytida onasi o'lgan bola qaramog'da deb hisoblanadi.

Marhum boquvchining qaramog'ida bo'lganlik masalasida nizo kelib chiqqani taqdirda ushbu masala qonun hujjatlarida belgilangan tartibda sud yo'li bilan ko'rib, hal etiladi¹.

Er (xotin)ning vafot etganligi sababli tayinlangan pensiya yolg'iz qolgan er (xotin) yangi nikohdan o'tganida ham saqlanib qoladi.

Oilaning pensiya olish huquqiga ega bo'lgan barcha a'zolariga bitta umumiy pensiya tayinlanadi.

Oila a'zosining talabi bilan uning pensiyadagi ulushi ajratilib, alohida to'lanadi.

Pensiyadan ulush ajratib berish pensiyani bo'lish to'g'risida ariza tushgan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi.

KALIT SO'ZLAR. Boquvchisiz qolgan shaxs. Marhum boquvchi shaxs. Qaramog'da bo'lganlik. Marhum boquvchi shaxsning oila a'zolari. Marhum boquvchi shaxsning voyaga yetmagan farzandlari. Ish faoliyati bilan bog'liq sabablarga ko'ra vafot etgan boquvchi shaxsning mehnatga yaroqsiz oila a'zolariga pensiya tayinlash. Umumiy kasalliklar (maishiy jarohatlar) tufayli vafot etgan boquvchi shaxs oila a'zolariga pensiya tayinlash. To'liqsiz mehnat staji bilan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlash. Pensiyadan hissa ajratish.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Boquvchisiz qolganlik pensiyasi nima?
2. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi kimlarga tayinlanadi?
3. Mehnat bilan bog'liq ravishda vafot etgan marhumning qaramog'idagi shaxslarga pensiya tayinlash shartlari qanday?
4. Qaramog'ida bo'lganlik nima degani va u qanday aniqlanadi?
5. Marhum boquvchining oila a'zolari deganda kimlar ko'zda tutiladi?
6. Ish bilan bog'liq bo'lmagan sabablarga ko'ra vafot etgan shaxslar qaramog'ida bo'lganlarga pensiya tayinlashning shartlari qanday?
7. Boquvchisiz qolganlik pensiyasi tayinlashda ish stajining o'rni qanday?
8. To'liqsiz ish staji bilan boquvchisiz qolganlik pensiyasi tayinlash mumkinmi?

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik protsessual kodeksining 31-bobi; 283-moddaning 2-bandi; O'zbekiston Respublikasi Oliy Sudi Plenumining 1991-yil 20-dekabrda (1997-yil 2-may va 1998-yil 11-sentabrda) qo'shimcha va o'zgartirishlari bilan) „Yuridik ahamiyatga ega bo'lgan faktlarni belgilash haqidagi ishlar bo'yicha sud amaliyoti to'g'risida“gi qarori.

VIII BOB. CHERNOBIL ATOM ELEKTROSTANSIYASIDA (CHAES) YUZ BERGAN AVARIYADAN ZARARLANISH TUFAYLI VA BOSHQA ATOM OBYEKTLARIDAGI FALOKATLAR OQIBATIDA NOGIRON BO‘LIB QOLGAN FUQAROLARNING PENSIYA TA‘MINOTI

8.1. CHAESda yuz bergan avariya zararlanish tufayli va boshqa atom obektlaridagi falokatlar tufayli nogiron bo‘lib qolgan fuqarolarning pensiyasi ta‘minotining o‘ziga xos xususiyatlari

Chernobil atom elektrostansiyasida 1986-yil aprel oyida sodir bo‘lgan avariya tufayli ko‘plab fuqarolar jiddiy jabr ko‘rdi, tabiat, atrof-muhitga ulkan talafot yetkazildi. Ushbu XX asrning eng mudhish hodisasi zamonaviy texnologiyalardan e‘tiborsizlik bilan foydalanish insoniyatga nechog‘liq katta falokatlar keltirishi mumkinligini yaqqol isbotladi.

Ukraina Respublikasining Chernobil shahrida joylashgan atom obyektidagi halokat natijasida O‘zbekiston Respublikasidan borgan va muddatli harbiy xizmatni o‘tayotgan fuqarolar ham jiddiy aziyat chekdilar, bir umrga nogiron bo‘lib qoldilar yoki bevaqt hayotdan ko‘z yumdilar.

O‘zbekiston Respublikasi davlati o‘z mustaqilligi dastlabki davrlaridanoq ana shunday halokat va falokatlardan jabr ko‘rgan fuqarolarni moddiy-ijtimoiy himoyalash, ular salomatligini muhofaza qilish yo‘lida kerakli chora-tadbirlarni ko‘rdi.

Jumladan, Chernobil atom elektrostansiyasida (keyingi o‘rinlarda CHAES deb yuritiladi) jabr ko‘rgan fuqarolarni qo‘llab-quvvatlash maqsadida 1992-yil 6-aprelda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati va Vazirlar Mahkamasining „Chernobil halokatidan ziyon ko‘rgan O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash haqida“gi 170-sonli qarori qabul qilindi¹.

Mazkur qarorga ko‘ra Chernobil halokatidan ziyon ko‘rgan O‘zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarga beriladigan haq-huquqlar, kompensatsiya puli va imtiyozlar ro‘yxati tasdiqlandi. Ziyon ko‘rganlar haqidagi ma‘lumotlarning

¹ „O‘zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to‘plami“, 1992-yil, 4-son, 10-modda.

Davlat ro'yxati tuzilib, unga 1986-yilda zararlangan zonada muddatli xizmatni o'tagan harbiy xizmatchilar ham kiritildi. Ularning 1986-yildan keyin tug'ilgan bolalarini diagnostika qilish, sog'liqlarini kuzatib borish va davolash bo'yicha chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqish joriy etildi. Ushbu toifaga kiruvchi fuqarolarga statsionar davolanish chog'ida parhez ovqatlanish hamda dori-darmon ta'minoti bo'yicha II Jahon urushi qat-nashchilari va baynalmilalchi jangchilar uchun nazarda tutilgan imtiyozlar joriy etilishi belgilab qo'yildi.

Qarorning ilovasida Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarga beriladigan haq-huquqlar, pul kompensatsiyalari va imtiyozlar ro'yxati ko'rsatilgan bo'lib, mazkur hujjat ushbu imtiyozlardan foydalanishga haqli bo'lgan jabrdiydalar tarkibini belgilaydi va unga ko'ra quyidagilar ana shu toifaga mansub sanaladi:

1) Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo'lib qolganlar;

a) Chernobil AESda ishlagan yoki halokat natijasida zararlangan zonada halokat oqibatlarini tugatish ishlarida ishtirok etgan (shu jumladan, vaqtincha ishga yuborilgan yoki xizmat safariga jo'natilgan) shaxslar;

b) maxsus yig'inlarga chaqirilgan va halokat oqibatlarini tugatish bilan bog'liq zararlangan zonadagi ishlarni bajarishga jalb etilgan harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslar.

2) 1986—1987-yillarda Chernobil halokati oqibatlarini tugatish bo'yicha zararlangan zonada ishlagan yoki shu yillar davomida AESdan foydalanish va boshqa yumushlarni bajargan (vaqtincha ishga yuborilgan yoki xizmat safariga jo'natilgan) shaxslar, shuningdek, joylashish o'rni va bajarayotgan vazifasidan qat'i nazar, maxsus yig'inlarga chaqirilgan va halokat oqibatlarini tugatish bilan bog'liq bu davrdagi ishlarni bajarishga jalb qilingan harbiy xizmatchilar va harbiy majburiyatli shaxslar, shuningdek, 1986—1987-yillarda zararlangan zonada xizmat vazifasini o'tagan ichki ishlar organlarining boshliqlari va oddiy tarkibidagi shaxslar.

3) 1988—1989-yillarda Chernobil AES halokati oqibatida nurlanish kasalligiga chalingan va uni boshidan kechirgan shaxslar, shuningdek, Chernobil halokati sababli nogiron bo'lib qolganlarga quyidagi imtiyozlarni berish nazarda tutilgan:

a) dori-darmonlarni bepul olish (shifokorning retsepti bo'yicha), har yilgi sanatoriy va kurortda bepul davolanishni ta'minlash yoki kurort yo'llanmasi o'rtacha qiymati miqdorida kompensatsiya pullarini olish, turarjoydan davolanish, dispanserlik, ambulatoriya yoki klinik kuzatuv joyigacha transportda bepul (taksidan tashqari) borish va kelish;

b) yasama tishlarni bepul tayyorlash va tuzatish (qimmatbaho metallardan tayyorlangan yasamalar bundan mustasnodir);

d) mehnatga vaqtincha layoqatsizligi tufayli, uzluksiz ish faoliyatidan qat'i nazar, oylik maoshining 100 foizi miqdorida nafaqa olish;

e) mehnatga vaqtincha layoqatsizligi tufayli surunkasiga 4 oygacha yoki kalendar yilda 5 oygacha nafaqa olish, agar ular ishlovchi nogironlar bo'lib hisoblansalar;

f) imtiyozlilar orasida turar joy sharoitini yaxshilashga muhtoj deb topilgan taqdirda ustun darajada turar joy maydoni yoki alohida xona ko'rinishidagi qo'shimcha turar joy maydoni bilan ta'minlanish;

g) o'zi va oila a'zolari yashayotgan turar joy uchun ishchi va xizmatchilarga belgilangan kvartira haqining 50 foizi miqdorida haq to'lash;

h) qonun hujjatlarida belgilangan boshqa imtiyoz va yengilliklar berish.

8.2. CHAESda yuz bergan avariya tufayli zararlanish va boshqa atom obyektlaridagi falokatlar tufayli nogiron bo'lib qolgan fuqarolar, ularning oila a'zolariga pensiya tayinlash va hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari

CHAES va boshqa atom obyektlarida sodir bo'lgan halokatlar oqibatida ziyon ko'rgan fuqarolarga yuqorida ko'rsatib o'tilgan imtiyoz va yengilliklar bilan bir qatorda imtiyozli pensiyalar tayinlash ham nazarda tutilgan. Bunda ularga yoshga doir, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari tayinlash, hisoblash bir qator o'ziga xos xususiyatlarga ega ekani e'tiborga loyiqdir.

Avvalo, O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-apreldagi „Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarini ijtimoiy himoyalash haqida“gi 170-sonli qaroriga ko'ra (1994-yil 11-yanvardagi 7-sonli qaroriga qo'shimcha

va o'zgartirishlar kiritilgan) imtiyozdan foydalanishga haqli bo'lgan shaxslar toifalari quyidagicha tabaqalanadilar hamda beriladigan imtiyozlar hajmi ularning qaysi tabaqaga mansubligiga bog'liq bo'ladi.

1. Chernobil AESdagi halokat tufayli kasallangan va nurlanish kasaliga chalingan, shu tufayli nogiron bo'lib qolgan fuqarolar.

a) Chernobil AESida ishlagan yoki halokat oqibatlarini tugatishda ishtirok etganlar;

b) maxsus harbiy yig'inlarga chaqirilgan va CHAES halokati oqibatlarini bartaraf etishga jalb etilgan muddatli yoki muddatsiz harbiy xizmatchilar.

2. CHAES halokati oqibatini tugatish uchun xizmat safariga yuborilgan, ammo, nurlanish kasaliga chalinmagan, nogiron deb topilmagan fuqarolari.

3. CHAES halokati tufayli nurlanish kasaliga chalinib, shu tufayli nogiron bo'lib, vafot etgan shaxslarning qaramog'ida bo'lgan shaxslar.

Quyida ushbu davlat pensiyalarini tayinlash va hisoblash sohasidagi o'ziga xos jihatlarning umumiy tavsifi bayon etiladi.

Yoshga doir pensiyalar. 1986—1987-yillarda CHAESning zararlangan zonasida xizmatni o'tagan, ishlagan va halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan fuqarolarga o'ta zararli va o'ta og'ir ishlarda ishlaganligi uchun nazarda tutilgan shartlarda Sobiq Ittifoq davrida („SSSR fuqarolarining pensiya ta'minoti to'g'risida“gi o'sha paytda amalda bo'lgan qonunga ko'ra), ya'ni erkaklarga — 20 yillik mehnat staji bilan, 50 yoshdan; ayollarga esa, 15 yil mehnat staji bilan 45 yoshdan yoshga doir pensiya tayinlanadi.

Ularning pensiyasiga hisoblangan pensiyaning 30 foizi miqdorida qo'shimcha qo'shib beriladi. Bunda mehnat stajini hisoblash, o'rtacha oylik ish haqini aniqlash umumiy qoidalarga ko'ra amalga oshiriladi.

CHAES halokati oqibatlarini bartaraf etishda 1988-yilda ishtirok etgan fuqarolarga:

erkaklarga — 25 yillik ish staji bilan 55 yoshdan, ayollarga — 20 yil ish staji bilan 50 yoshdan yoshga doir pensiya tayinlanadi. Ushbu toifadagi pensiyalarga eng kam pensiyaning 25 foizi miqdorida qo'shimcha qo'shiladi.

1988-yildan keyin CHAES halokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga imtiyoz berilmaydi va ularga pensiya umumiy asoslarda tayinlanadi.

Nogironlik pensiyalari. Nogironlik pensiyalarini tayinlash shartlari CHAES halokati oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan shaxsning qaysi toifaga mansubligiga bog'liq bo'ladi. Bunda fuqarolarga va harbiy xizmatchilarga pensiya tayinlash shartlari turlicha belgilangandir.

Fuqaroga nogironlik pensiyasi fuqarolarning pensiya ta'minoti to'g'risidagi qonunga ko'ra, zararlangan zonada olgan ish haqidan kelib chiqqan holda va zarar qoplangan haqiqiy miqdordan kelib chiqib hisoblanadi.

1993-yil 1-iyuldan boshlab Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan fuqarolarga va boquvchisini yo'qotgan hollarda ularning oilalariga nogironlik pensiyalarining quyidagi eng ko'p miqdorlari belgilanadi:

I guruh nogironlariga — eng kam ish haqining 10 baravari miqdorida;

II guruh nogironlariga — eng kam ish haqining 8 baravari miqdorida;

III guruh nogironlariga — eng kam ish haqining 4 baravari miqdorida;

boquvchisini yo'qotgan hollarda mehnatga qobiliyatsiz har bir oila a'zosiga — eng kam ish haqining 3 baravari miqdorida.

Pensiyalarning eng kam miqdorlari ko'rsatib o'tilgan eng ko'p miqdorlarning tegishlicha 50 foizi darajasida belgilanadi.

1993-yil 1-iyulgacha belgilangan hamda ko'rsatib o'tilgan eng ko'p miqdorlardan ortiq bo'lgan pensiyalar qayta hisoblab chiqilmaydi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyalari. Bu pensiyani tayinlashda ham marhum boquvchi shaxsning CHAES halokatlari oqibatlarini tugatishda qaysi toifaga mansub bo'lganiga bog'liq bo'ladi.

Fuqarolar toifasiga mansub bo'lgan marhum boquvchi shaxslarning har bir mehnatga yaroqsiz oila a'zosiga ularning ish haqining 40 foizi miqdorida pensiya tayinlanadi va marhum zararlangan zonada ishlagan chog'dagi ish haqidan kelib chiqib hisoblanishi mumkin.

Pensiyaning eng ko‘p miqdori boquvchisini yo‘qotgan hol-
larda mehnatga qobiliyatsiz har bir oila a‘zosiga — eng kam ish
haqining 3 baravari miqdorida belgilanadi.

Pensiyalarning eng kam miqdorlari ko‘rsatib o‘tilgan eng
ko‘p miqdorlarning tegishli 50 foizi darajasida belgilanadi.

Muddatli va muddatsiz harbiy xizmatni o‘tash chog‘ida
CHAES halokati oqibatlarini bartaraf etishga jalb etilgan va
harbiy xizmatni o‘tash chog‘ida yoki xizmat bilan bog‘liq
nogironlik natijasida vafot etgan harbiy xizmatchi-boquvchining
oilasi a‘zolariga harbiy xizmatchilarni pensiya ta‘minoti to‘g‘risi-
dagi qonunchilikka binoan boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi
tayinlanadi.

KALIT SO‘ZLAR. Chernobil atom elektrostansiyasida yuz bergan
halokat. CHAES halokati oqibatlarini bartaraf qilishda qatnashgan
xodimlar. CHAES halokati oqibatlarini bartaraf qilishda qatnashgan
muddatli harbiy xizmatchilar. CHAES halokati oqibatlarini bartaraf
etishdagi kasalliklar tufayli nogiron bo‘lib qolgan shaxslar. CHAES
halokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan fuqarolar pensiya ta‘minoti.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. CHAES halokati va uning oqibatlari haqida nimalarni bilasiz?
2. CHAES oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan fuqarolarga
qanday kafolatlar berish ko‘zda tutilgan?
3. CHAES oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan shaxslarning
qanday toifalarini bilasiz?
4. CHAES oqibatlarini bartaraf etishda qatnashgan fuqarolarga
yoshga doir pensiyaga chiqishda qanday imtiyozlar belgilangan?
5. CHAES halokatini bartaraf etish tufayli nogiron bo‘lib qolgan
fuqarolarga nogironlik pensiyasi tayinlashning o‘ziga xos xusu-
siyatlari qanday?
6. CHAESda yuz bergan halokat oqibatida vafot etganlarning
mehnatga yaroqsiz oila a‘zolariga pensiya tayinlash shartlari
qanday?

IX BOB. DAVLAT PENSIYASINI TAYINLASH

9.1. Davlat pensiyasini tayinlovchi organlar va ularning vakolatlari

Pensiya olishga haqli bo'lgan fuqarolarga pensiyani to'g'ri va o'z vaqtida tayinlash, qonunchilik talablariga qat'iy rioya etilishini ta'minlash qonuniylik va ijtimoiy adolat qaror toptirilishining muhim shartlaridan sanaladi.

Amaldagi qonunchilikda pensiya tayinlash vakolati berilgan davlat organlari, ularning vazifalari va pensiyalarni tayinlash, hisoblash va to'lashning qat'iy qoidalari belgilab berilgandir.

Davlat pensiyalarini tayinlash pensiya tayinlash vakolatiga ega bo'lgan organlar tomonidan amalga oshiriladi.

Pensiya tayinlash huquqiga hozirgi paytda quyidagi organlar haqlidirlar:

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlari;

Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirliklari, Milliy xavfsizlik xizmati davlat qo'mitasi pensiya tayinlash hamda to'lash organlari.

Barcha fuqarolarga, shu jumladan, muddatli harbiy xizmatdagi harbiy xizmatchilarga pensiyalar Moliya vazirligi huzuridagi Budgetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi.

Ofitserlar tarkibidan bo'lgan shaxslar, praporshiklar, michmanlar va boshqa muddatidan tashqari xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar, Ichki ishlar, Milliy xavfsizlik xizmati, Favqulodda vaziyatlar vazirligi, boshliqlar hamda oddiy askarlar tarkibidan bo'lgan harbiy xizmatchilarga Mudofaa vazirligi yoki boshqa vazirlik, idorasining pensiya bo'limlari tomonidan belgilangan tartibda tayinlanadi.

Fuqarolarga pensiya tayinlash tartibi O'zbekiston Respublikasi „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunining 43-moddasida belgilab qo'yilgandir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli „Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibini yanada takomillashtirishga yo'naltirilgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida“gi qarori bilan

„Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida Nizom“ tasdiqlangan bo‘lib¹, mazkur Nizomga ko‘ra pensiya tayinlash to‘g‘risidagi ariza oxirgi ish joyidagi korxona, muassasa, tashkilot ma‘muriyati, fermer xo‘jaligi boshlig‘i yoki qishloq xo‘jaligi kooperativi (shirkat xo‘jaligi) boshqaruvi orqali beriladi.

Ish vaqtlarini hisobga olib bo‘lmaydigan shaxslarga va ularning oila a‘zolariga pensiya tayinlash haqidagi ariza, arizachining bevosita yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta‘minot bo‘limiga beriladi.

Pensiya tayinlanadigan shaxs balog‘atga yetmagan yoki huquqiy muomalaga layoqatsiz bo‘lgan taqdirda, ariza uning ota-onasi yoki vasiysi tomonidan ularning yashash joylari orqali beriladi.

Pensiya tayinlash yoki to‘xtatib qo‘yilgan pensiyani tiklash uchun pensiya olish huquqi paydo bo‘lgan kundan boshlab istalgan vaqtda, biror muddat bilan cheklanmagan holda murojaat etish mumkin.

9.2. Pensiya tayinlash uchun murojaat qilish va talab etiladigan hujjatlar

Yoshga doir pensiya tayinlanishini so‘rab pensiya yoshiga to‘lmasdan avval ham murojaat etish mumkin, lekin bu mazkur pensiyani bir oydan so‘ng olish huquqiga ega bo‘linadi.

Pensiya tayinlash to‘g‘risidagi arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda Budjetdan tashqari Pensiya jamg‘armasi tuman (shahar) bo‘limi qo‘shimcha yana qanday hujjatlar taqdim etilishi lozimligini korxona, tashkilot ma‘muriyatiga yoki arizachiga ma‘lum qiladi. Agar ular qo‘shimcha hujjatlar taqdim etilishi lozimligi to‘g‘risida bildirish xati olingan kundan boshlab 3 oydan kechikmay taqdim etilsa, pensiya tayinlash to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan kun yoki ariza yuborilgan joydagi pochta shtempelida ko‘rsatilgan sana pensiya tayinlash to‘g‘risidagi ariza qabul qilingan kun hisoblanadi.

Yoshga doir pensiya tayinlash to‘g‘risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) mehnat stajini (umumiy va maxsus) tasdiqlaydigan hujjatlar;

¹ O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2011-yil. 37-son, 377-moddasi.

b) ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

a) bola tug'ilganligi va u sakkiz yoshgacha tarbiya qilinganligi haqidagi hujjat;

b) arizachining farzandi bolalikdan nogiron yoki nogiron bola ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

d) arizachi urush ishtirokchisi ekanligini tasdiqlovchi hujjatlar;

e) davolash muassasasining arizachi gipofizar mittilik kasaliga chalingan (liliput)ligi va gavda tuzilishida mutanosiblik buzilgan, pakana ekanligi to'g'risidagi hujjati.

Urush nogironlariga „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni 12-moddasining „a“ bandiga muvofiq pensiya tayinlanganda va ularning pensiyalariga Qonunning 28-moddasi „a“, „b“, „v“ bandlariga muvofiq ustamalar hisoblanganda Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limi arizaga tibbiy-mehnat ekspert komissiyasi (TMEK)dan olingan tekshiruv dalolatnomasidan ko'chirmani ilova qiladi.

Mehnatda mayiblanganlik yoki kasb kasalligi oqibatida I va II guruh nogironi bo'lgan vaqt ish stajiga qo'shiladigan hollarda arizaga TMEK tekshirish dalolatnomalaridan ko'chirmalar ilova qilinadi.

Nogironlik pensiyasini tayinlash to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) mehnat stajini (umumiy va maxsus) tasdiqlovchi hujjatlar;

b) ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma.

Agar nogironlik mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa, unda baxtsiz hodisa haqidagi dalolatnoma (yoki boshqa rasmiy hujjat) taqdim etiladi.

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

a) arizachining yolg'iz va o'zgalar yordamiga muhtoj deb tan olinganligi to'g'risidagi hujjat;

b) arizachining urush ishtirokchisi ekanligini tasdiqlovchi hujjat.

Ijtimoiy ta'minot bo'limi arizaga tibbiy-xizmat ekspert komissiyasi (TMEK)dan olingan tekshiruv dalolatnomasidan ko'chirmani ilova qiladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlash to'g'risidagi arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

a) pensiya tayinlanayotgan shaxsning yoshini tasdiqlovchi tug'ilganlik haqidagi guvohnoma yoki pasport;

b) oila a'zosining vafot etgan boquvchiga qarindoshligi munosabatlarini tasdiqlovchi hujjatlar;

d) fuqarolik holati aktlarini qayd qilish bo'limining boquvchining vafot etganligi to'g'risidagi guvohnomasi yoki uning bedarak yo'qolganligini tasdiqlovchi hujjat;

e) oila boquvchisining yoshi to'g'risidagi hujjat (agar vafot etganlik haqidagi guvohnomada yoshi ko'rsatilmagan bo'lsa);

f) boquvchining mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar;

g) boquvchining ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma.

Bundan tashqari, zarur hollarda quyidagilar taqdim etiladi:

a) boquvchining qaramog'ida bo'lgan uning oila a'zolari tarkibi to'g'risida mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organlari) fuqarolari yig'inining ma'lumotnomasi yoki boshqa hujjatlar;

b) oilaning 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan a'zolari umumta'lim maktablari, kasb-hunar bilim yurtlari, o'rta maxsus va oliy o'quv yurtlarining o'quvchilari ekanligini tasdiqlovchi ma'lumotnomalar;

d) mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organlari) fuqarolari yig'iniga vafot etganning ota-onasi, turmush o'rtog'i, buvasi, buvisi, yoki 3 yoshga to'lmagan farzandlari, aka-ukalari, opa-singillari, nabiralarga qarash uchun ishlamayotganligini tasdiqlovchi ma'lumotnoma topshiriladi.

Agar boquvchining o'limi mehnatda mayiblanish oqibatida sodir bo'lgan bo'lsa, baxtsiz hodisa haqidagi dalolatnoma (yoki boshqa rasmiy hujjat) ham taqdim etiladi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limiga oilaning boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqi balog'at yoshidagi oila a'zolariga ularning nogironliklari oqibatida berilayotganligini tasdiqlovchi TMEKdan olingan tekshiruv dalolatnomalaridan ko'chirmalar ilova qilinadi.

Boquvchining mehnatda yoki kasb kasalligi oqibatida I va II guruh nogironi bo'lgan vaqti mehnat stajiga qo'shilgan hollarda arizaga TMEK ning tekshiruv dalolatnomasidan ko'chirmalar ilova qilinadi.

Basharti vasiylik ostidagi shaxsga pensiya tayinlanishi xususida vasiy murojaat qilayotgan bo'lsa, u holda vasiyning arizasiga vasiylikni belgilovchi organning vasiy etib tayinlash haqidagi qarori ilova qilinadi. Ota-onalar va vasiylar yashash joylari to'g'risida hujjatlar topshiradilar.

Mehnat stajini (umumiy va maxsus) tasdiqlash uchun qabul qilinadigan hujjatlar pensiya tayinlash uchun mehnat stajini tasdiqlash tartibi qonuniga ko'ra belgilanadi.

Pensiyani hisoblab chiqish uchun taqdim etiladigan ish haqi to'g'risidagi ma'lumotnoma shakli va uni to'ldirishga oid qoidalar O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy Muhofaza qilish vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Ish haqini guvohlar ko'rsatmasi asosida aniqlashga yo'l qo'yilmaydi. Lavoziim maoshlari shtat jadvalidan ko'chirmalar va jamoat tashkilotlari a'zolik chiptalari haqiqiy ish haqini tasdiqlaydigan hujjat o'rnini bosa olmaydi.

Ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar butunlay yoki qisman yo'q bo'lsa, pensiyani hisob-kitob qilish uchun pensiyani tayinlash kunida rasman belgilangan eng kam ish haqi miqdori olinadi.

Qaramog'ida mehnatga layoqatsiz oila a'zolari borligini tasdiqlovchi hujjat sifatida mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organlari) fuqarolar yig'inining ma'lumotnomasi qabul qilinadi. Mazkur ma'lumotnomada har bir oila a'zosining ismi-sharifi, otasining ismi, marhum boquvchiga qarindoshlik aloqasi, ular uning qaramog'ida bo'lganligi ko'rsatiladi.

Ko'rsatib o'tilgan hujjat yo'q bo'lsa va uni olishning imkoni bo'lmasa qaramog'ida bo'lganlik masalasi sud qarori bilan hal etilishi mumkin.

Arizachining urush ishtirokchisi ekanligini tasdiqlovchi hujjat sifatida Ikkinchi Jahon urush ishtirokchisi guvohnomasidan ko'chirma, baynalmilalchi jangchilarga beriladigan imtiyoz olish huquqi haqidagi guvohnoma, shuningdek, ular urush ishtirokchisiga tenglashtirilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qabul qilinadi.

Arizachining urush nogironi ekanligini tasdiqlovchi hujjat sifatida TMEKning tekshirish dalolatnomasidan ko'chirma, urush nogironi guvohnomasi, shuningdek, urush nogironiga tenglashtirilganligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlar qabul qilinadi.

Bola tugʻilganligi haqidagi guvohnoma asosida, oʻn sakkiz yoshgacha tarbiyalaganlik esa — pasport, vafot etganlik haqidagi guvohnoma, mahalla, qishloq (shaharcha), ovul (uy-joy organlarida) fuqarolari yigʻini maʼlumotnomasi va boshqa hujjatlar asosida belgilanadi.

Pensiya tayinlash uchun zarur hujjatlarning asl nusxasi ham, ularning notarial tartibda, arizachini pensiya tayinlashga taqdim etayotgan korxona muassasa, tashkilot maʼmuriyati yoki Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi tuman (shahar) boʻlimi tasdiqlagan nusxalari ham topshirilishi mumkin.

Mehnat stajini tasdiqlovchi hujjatlar faqat asl nusxada topshiriladi. Biroq mehnat stajini tasdiqlovchi hujjat faqat mehnat daftarchasi boʻlgan hollarda, undan oxirgi ish joyidagi korxona, muassasa, tashkilot maʼmuriyati yoki Budjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi tuman (shahar) boʻlimi tomonidan tasdiqlangan koʻchirma topshirilishi mumkin.

9.3. Korxona va tashkilotlar maʼmuriyatining pensiya tayinlash uchun hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish yuzasidan vazifalari

Har yilning boshida kelgusi yilda pensiya yoshiga yetadigan barcha ishchi, xizmatchi, fermer xoʻjaliklari, qishloq xoʻjaligi kooperativlari (shirkat xoʻjaliklari va boshqa kooperativlarning barcha ishchilari, xizmatchilari, uchun ular ishlayotgan korxonalar, muassasalar yoki tashkilotlar maʼmuriyati (boshqaruvi) tomonidan ularning shaxsiy varaqalari va mehnat daftarchalari asosida maxsus roʻyxatlar tuziladi.

Roʻyxatga mazkur korxonaning ham umumiy, ham imtiyozli shartlarda pensiya olish huquqini oluvchi barcha xodimlari kiritiladi.

Korxona maʼmuriyati roʻyxatda koʻrsatilgan xodimlarga pensiya tayinlash uchun oldindan hujjatlar tayyorlashga kirishadi. Zarur hollarda yetishmayotgan hujjatlarni soʻrab olish, tegishli hollarda esa xodimning fikri boʻyicha uning ish davrlarini tasdiqlashi mumkin boʻlgan guvohlarni qidirib topish choralari koʻrilishi kerak.

Korxona maʼmuriyati toʻplagan barcha hujjatlar asosida pensiya tayinlash uchun taqdimnomani rasmiylashtiradi.

Korxona ma'muriyati xodim pensiya yoshiga yetgan kundan kechiktirmay uning pensiya olish huquqiga ega bo'lganligini bildirishga majburdir.

Hujjatlar va taqdimnoma xodimning arizasi bilan birga arizachining yashash joyidagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limiga yuboriladi. Korxona ma'muriyati pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlarni to'play olmagan hollarda, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limiga bor hujjatlar topshiriladi, yetishmagan hujjatlar esa nazarda tutilgan muddatlarda qo'shimcha ravishda taqdim etiladi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasi uchun bitta umumiy pensiya tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning pensiyadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi.

Agar fuqaro tug'ilgan vaqtini ko'rsatuvchi hujjatda aniq kun ko'rsatilmay oy ko'rsatilgan bo'lsa, tegishli oyning 15-kuni tug'ilgan kun hisoblanadi.

Agar taqdim etilgan hujjatda faqat tug'ilgan yili ko'rsatilib tug'ilgan oyi ko'rsatilmagan bo'lsa, shu yilning 1 iyuli tug'ilgan kun hisoblanadi.

Pensionerlarga rasmiy hujjat hisoblanadigan pensiya guvohnomasi beriladi. Fuqarolarning pensiya ta'minotidagi barcha o'zgarishlar ularning pensiya guvohnomalarida o'z vaqtida aks ettirishi kerak.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007-yil 3-sentabrda 1710-son bilan ro'yxatga olingan Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirining 2007-yil 23-iyuldagi 118-son buyrug'i bilan „Pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to'ldirish qoidalari hamda pensionerlar yig'majildini rasmiylashtirish va yuritish tartibi haqidagi Yo'riqnoma“ tasdiqlangan bo'lib¹, ushbu Yo'riqnoma Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlarida pensiya tayinlash uchun hujjatlarni qabul qilish, pensiya hujjatlarining shakllari, to'ldirilish qoidalari, pensiya ishi yig'majildini rasmiylashtirish, pensiya tayinlash bo'yicha barcha zarur hujjatlar va ro'yxatga olish kitoblarini bir xil tartibda yuritilishini tashkil etishni ta'minlaydi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2007-yil 3-sentabrda 1710-son bilan ro'yxatga olingan. „O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami“, 2007-yil, 35–36-sonlar, 368-modda.

9.4. Pensiya tayinlashda o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi

Tayinlanadigan pensiyalar miqdorini belgilovchi asosiy omil — o'rtacha oylik ish haqidan iborat. Shu sababli o'rtacha oylik ish haqi to'g'ri aniqlanishi va to'g'ri hisoblanishi muhim ahamiyatga egadir.

Pensiya tayinlash chog'ida o'rtacha oylik ish haqini hisoblashning umumiy tartibi „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 31-moddasida belgilangan bo'lib, unga ko'ra pensiyani hisoblab chiqarish uchun, ishdagi tanaffuslar mavjudligidan qat'i nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yil uchun (pensiya so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) amaldagi o'rtacha oylik ish haqi olinadi. O'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oyidagi ish haqining umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi. Bunda pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga qarab, ishga kirish yoki ishdan bo'shash munosabati bilan ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar ishlangan to'liq kalendar oylari sifatida hisobga olinadi.

Pensiya so'rab murojaat etgan kishi besh yildan oz vaqt ishlagan hollarda o'rtacha oylik ish haqi ishlangan kalendar oylaridagi ish haqining umumiy miqdorini shu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Mavsumiy ishlarda band bo'lgan xodimlarga pensiyalar tayinlashda amaldagi o'rtacha oylik ish haqi istalgan ketma-ket besh mavsumdagi ish haqini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiyani hisob-kitob qilish uchun eng kam ish haqining sakkiz hissasidan ortiq bo'lmagan ish haqi olinadi.

Pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan oz bo'lgan yoki ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar umuman bo'lmagan hollarda ish staji uchun pensiya eng kam oylik ish haqiga qarab hisoblab chiqariladi.

Qonun hujjatlariga muvofiq sug'urta badallari hisoblanadigan ish haqining barcha turlari pensiyalarni hisoblab chiqarish uchun ish haqiga qo'shiladi.

Davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalanmaydigan shaxslarning pensiyasini hisoblab chiqarish uchun ish haqiga sug'urta badal-

lari olinadigan mehnat haqi turlariga o'xshash pul ta'minotining barcha turlari qo'shiladi.

Pensiya so'rab murojaat etgan kishining xohishiga binoan o'quv davrida to'langan stipendiya ish haqiga tenglashtiriladi.

Ish vaqtini hisob-kitob qilish mumkin bo'lmagan xodimlarning (fermerlar, yakka tartibdagi mehnat faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar, ayrim fuqarolarning yumushlarini bajaruvchilar va hokazo) pensiyalarini hisoblab chiqarish uchun ish haqi miqdori O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'langan sug'urta badallari miqdoriga qarab aniqlanadi.

Ish haqining natural qismi ijtimoiy sug'urtaga o'tkazilgan badallar miqdoriga qarab baholanadi.

Boshqa davlatlardan ko'chib kelgan, O'zbekiston Respublikasida ishlamagan fuqarolarga pensiyalar O'zbekistondagi tegishli kasb hamda malakadagi xodimlarning pensiya tayinlanayotgan vaqtdagi o'rtacha oylik ish haqiga asoslangan holda hisoblab chiqariladi.

Basharti, bunday kasb hamda malakalar respublikada bo'lmasa, o'rtacha oylik ish haqini aniqlash tartibini O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi belgilab beradi.

Chet elda ishlashga yuborilgan xodimlarning o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarishda ular chet elga yuborilishidan oldin olgan ish haqi hisobga olinadi.

Ishlovchilarning ish haqiga mintaqaviy koeffitsiyent belgilangan hududlarda yashovchi shaxslar va oilalarga pensiya tayinlashda mintaqaviy koeffitsiyent e'tiborga olingan holda hisoblab chiqilgan amaldagi ish haqi hisobga olinadi.

Turli davrlarda tayinlangan davlat pensiyalarini barobarlashtirish maqsadida joriy qilingan tuzatish koeffitsiyentlarini qo'llash tartibi sohasida muayyan o'zgarishlar joriy qilindi.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 2011-yil 8-sentabrdagi 252-sonli qarori bilan tasdiqlangan „Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida“gi Nizomga ilova qilingan „Pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan amaldagi ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyentlarini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqish tartibi to'g'risida“gi Nizomga ko'ra: „Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyenti — tegishli oyning pensiyasini hisoblash uchun qabul

qilinadigan haqiqiy ish haqining aynan shu oyning eng kam oylik ish haqi nisbati sifatida aniqlanadigan miqdor bo'lib, shaxsning ishdagi mavjud tanaffuslaridan qat'i nazar (pensiya tayinlash uchun murojaat qilgan shaxsning tanlashiga ko'ra), mehnat faoliyatining oxirgi o'n yili mobaynidagi istalgan ketma-ket oltmish oyidan har bir oyi uchun aniqlanadi, bunda shaxsning pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan haqiqiy ish haqi tegishli oydagi eng kam oylik ish haqi miqdoriga bo'linadi va hisoblab chiqiladi.

Davlat pensiyalarini rasmiylashtirish va tayinlangan pensiyalarni to'lash bilan bog'liq hujjatlarni yuritish tartibi O'zbekiston respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011-yil 17-noyabrda 2282-son bilan ro'yxatga olingan „Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi pensiya hujjatlarining shakllari va ularni to'ldirish qoidalari to'g'risidagi yo'riqnoma“da belgilab qo'yilgandir.¹

9.5. Pensiya tayinlash haqidagi hujjatlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish

„Davlat pensiyalarini tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida“gi Nizomning 5-bo'limi pensiya tayinlash haqidagi hujjatlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish masalalariga bag'ishlanadi.

Pensiya tayinlash masalalarini ko'rib chiqish uchun pensiya jamg'armasi bo'limida pensiya tayinlash bo'yicha komissiya tuziladi. Komissiya faoliyatini tashkil etish tartibi qonun hujjatlarida belgilanadi.

Komissiya boshqa zarur hujjatlar bilan birgalikda pensiya tayinlash to'g'risidagi ariza tushgandan keyin o'n kun muddatda tegishli qaror qabul qiladi (pensiya tayinlash to'g'risida, pensiya tayinlashni rad etish haqida, taqdim etilgan hujjatlarning asoslanganligini tekshirish to'g'risida va hokazo).

Agar ariza beruvchi pensiya olish huquqiga ega bo'lgani holda pensiya tayinlash uchun murojaat qilishda nazarda tutilgan zarur hujjatlarni taqdim etmasa yoki taqdim etilgan hujjatlar ularning asoslanganligi va ishonchiligi yuzasidan qo'shimcha tekshirishni talab qilsa, komissiya tomonidan ariza beruvchining yozma roziligiga ko'ra shubha tug'dirmaydigan mavjud hujjatlar bo'yicha

¹ „O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami“, 2011-yil.

pensiya tayinlanishi mumkin. Agar ariza beruvchi shubha tug'dirmaydigan mavjud hujjatlar bo'yicha pensiya tayinlashga rozi bo'lmasa, komissiya ariza beruvchi tomonidan taqdim etilgan hujjatlarni tekshirish tamom bo'lgandan keyin pensiya tayinlash to'g'risida qaror qabul qiladi.

Pensiya ishi komissiya tomonidan pensiya tayinlash to'g'risida qaror qabul qilingan kun mobaynida rasmiylashtirilishi kerak.

Pensiya ishlarini rasmiylashtirish va yuritish tartibi, shuningdek, pensiya hujjatlari shakllari va ularni to'ldirish qoidalari O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan tasdiqlanadi.

Pensiya tayinlash rad etilgan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limi tegishli qaror chiqarilgandan keyin besh kundan kechikmay tashkilot yoki ariza beruvchiga rad etish sabablarini, qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi ko'rsatilgan bildirishnomani berishi yoki yuborishi hamda barcha taqdim etilgan hujjatlarning asl nusxalarini hujjatlar olinganligi to'g'risidagi tilxat bilan pensionerning (ota-onaning, qonuniy vakilning) qo'liga qaytarishi shart.

Komissiya qarori yuzasidan ariza beruvchi tomonidan Pensiya jamg'armasi bo'limining bevosita yuqori organiga yoki sudga shikoyat qilish mumkin.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga ega bo'lgan oila a'zolarining barchasiga bitta umumiy pensiya tayinlanadi. Oila a'zosining talabiga ko'ra uning pensiyadagi ulushi ajratiladi va unga alohida to'lanadi.

Boshqa tumanda (shaharda) yashaydigan oila a'zosi o'ziga pensiya ulushini tayinlash yoki ajratish to'g'risidagi ariza bilan murojaat qilganda, murojaat qilganning yashash joyi bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limi rasmiylashtiradigan yoki ushbu oilaning amaldagi pensiya hujjatlari yig'majildi turgan Pensiya jamg'armasi bo'limiga tegishli xabarnomani yuboradi. Xabarnomaga ariza va yangidan murojaat qilgan oila a'zosining pensiya olish huquqini tasdiqlaydigan hujjatlar ilova qilinadi.

Pensionerga rasmiy hujjat hisoblanadigan pensiya guvohnomasi beriladi.

KALIT SO'ZLAR. Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilish. Pensiya tayinlovchi organlar. Pensiya tayinlash hujjatlari. Ishlayotgan xodimlarga pensiya to'lash. Pensiya hujjatlarini ko'rib chiqish. Pensiya tayinlashni rad etish.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Davlat pensiyasi olishga bo'lgan huquq va uni amalga oshirish nimani anglatadi?
2. Davlat pensiyasi qaysi davlat organlari tomonidan tayinlanadi?
3. Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilish huquqi qachon paydo bo'ladi?
4. Pensiya tayinlash uchun qanday hujjatlar taqdim etilishi lozim?
5. Ishlayotgan fuqarolarga pensiya tayinlash haqidagi hujjatlar kim tomonidan tayyorlanadi va topshiriladi?
6. Qanday hollarda pensiya tayinlash haqidagi ariza rad etilishi mumkin?
7. Pensiya tayinlash uchun berilgan ariza va hujjatlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish muddatlari qanday belgilangan?

X BOB. PENSIYALARNI HISOBLASHNING UMUMIY QOIDALARI

10.1. Pensiyalarni hisoblab chiqarishning umumiy talablari

Pensiyalar miqdorini hisoblab chiqarish paytida ish haqi miqdori va mehnat staji hajmi muhim o'rin tutadi.

„Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 25-moddasiga ko'ra pensiyalarning qat'iy miqdori uch tarkibiy qismga bo'linadi:

- a) pensiyaning tayanch miqdori;
- b) mehnat staji uchun pensiyaning oshirilishi;
- d) pensiyaga qo'shiladigan ustama haqlardan tashkil topadi.

Ushbu uch tarkibiy qismning aniqlanishi turli pensiya turlarida birmuncha o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lsa-da, ularni hisoblab chiqarilishida ular asos qilib olinadi.

Pensiyaning tayanch miqdori:

a) yoshga doir to'liq pensiya uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun (31 va 33-moddalar) olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin rasmiy belgilangan eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 55 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida;

d) oilaning mehnatga layoqatsiz har bir a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish natijasida olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 50 foizi miqdorida;

e) ota-onasidan judo bo'lgan (chin yetim) bolalarga yoki vafot etgan yolg'iz onaning bolalariga, har bir bolaga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan o'rtacha oylik ish haqining 30 foizi, lekin eng kam oylik ish haqining kamida 100 foizi miqdorida.

Ish staji uchun pensiyaning oshirilishi. To'liq pensiya tayinlashda talab etiladiganidan ortiqcha ish stajining har bir to'liq yili uchun pensiyalarning tayanch miqdorlari quyidagicha oshiriladi:

a) yoshga doir pensiyalar — pensiyani hisoblab chiqarish uchun (31 va 33-moddalar) olinadigan oʻrtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan oʻrtacha oylik ish haqining 1 foizi miqdorida;

g) boquvchisini yoʻqotganlik pensiyalari oilaning mehnatga qobiliyatsiz har bir aʼzosi uchun — boquvchining oʻrtacha oylik ish haqining 0,5 foizi miqdorida oshiriladi.

Ota-onasidan judo boʻlgan (chin yetim) bolalarga tayinlanadigan boquvchisini yoʻqotganlik pensiyalarini oshirish ota va ona ish haqlarining umumiy miqdoridan kelib chiqib, eng kam oylik ish haqining sakkiz hissa miqdori doirasida amalga oshiriladi.

Yoshga doir pensiyalarning va I hamda II guruh nogironlariga belgilanadigan nogironlik pensiyalarining miqdori — pensiyani hisoblab chiqarish uchun olinadigan ish haqining 75 foizidan iborat boʻladi.

Pensiya miqdorini hisoblashdagi uchinchi tarkibiy qism — pensiyalarga qoʻshiladigan ustama haqlardir.

„Fuqarolarning davlat pensiya taʼminoti toʻgʻrisida“gi qonun-ning 28-moddasiga koʻra: „Hisoblab chiqarilgan pensiyalarga ustama haqlar quyidagi miqdorlarda belgilanadi:

a) I guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 150 foizi;

b) II guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 125 foizi;

d) III guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

e) koʻzi ojiz I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 100 foizi;

f) I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

g) II guruh yolgʻiz nogironlarga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

h) urush qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

i) Ikkinchi Jahon urushi yillarida mamlakat ichkarisida ishlagan va harbiy majburiyatni bajargan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

j) harbiy xizmat yoki ichki ishlar organlaridagi xizmat majburiyatlarini bajarish chogʻida halok boʻlgan harbiy xizmat-chilarning hamda ichki ishlar organlari xodimlarining ot-onalariga va yangi nikohdan oʻtmagan beva xotinlariga (beva erlariga) — eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

k) Oʻzbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari boʻlgan shaxslarga xizmatlariga qarab — eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;

l) yoshidan qatʼi nazar imtiyozli pensiyaga chiqish huquqiga ega boʻlgan artistlarga — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

m) teatr-konsert tashkilotlari artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa sanʼati ijodiy xodimlari tayyorlovchi oʻquv muassasalarining professor-oʻqituvchilari va konsertmeysterlariga, Vazirlar Mahkamasi belgilaydigan roʻyxatga koʻra — eng kam oylik ish haqining 50 foizi.

Ish staji toʻliq boʻlmagan chogʻdagi pensiyalar bor stajga mutanosib miqdorda tayinlanadi.

Ish staji toʻliq boʻlmagan chogʻdagi pensiyalar:

— yoshga doir pensiyalar uchun — eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

— I guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun — eng kam oylik ish haqining 100 foizidan;

— II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari uchun — eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

— oilaning mehnatga layoqatsiz har bir aʼzosiga boquvchisini yoʻqotganlik pensiyasi uchun — eng kam oylik ish haqining 50 foizidan;

— otasi-onasidan judo boʻlgan (chin yetim) har bir bolaga boquvchisini yoʻqotganlik pensiyasi — eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam boʻlmasligi lozim.

Ustama haqlar tayinlanayotgan pensiyaning turidan qatʼi nazar qoʻshib hisoblanadi.

Pensiya soʻrab murojaat etgan kishiga qonun hujjatlarida nazarda tutilgan ustama haq bilan bir paytda Oʻzbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlari boʻlgan shaxslarga bajargan ishlariga qarab eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha koʻrsatilgan ustama haq qoʻshib hisoblanishi mumkin (ikkita ustama haq berilishi mumkin).

Tayinlangan pensiyalar keyinchalik qayta hisoblanishi mumkin. Pensiyaning qayta hisoblashga asos boʻladigan ana shunday

holatlar „Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to’g’risida“gi qonunning 49-moddasida ko’rsatib qo’yilgan bo’lib, ular quyidagi hollarda qayta hisoblanadi:

— pensioner pensiya miqdoriga ta’sir ko’rsatuvchi (pensiya tayinlanishigacha bo’lgan ish staji va ish haqi to’g’risidagi hamda boshqa) qo’shimcha hujjatlarni taqdim etgan taqdirda;

— nogironlik guruhi o’zgarganda;

— boquvchisini yo’qotganlik pensiyasi oladigan oila a’zolari soni o’zgarganda;

— eng kam oylik ish haqi miqdorlari o’zgargan taqdirda;

— mintaqaviy koeffitsiyent belgilangan (bekor qilingan) yoki uning miqdori o’zgargan taqdirda;

— daromadlar indeksatsiya qilingan taqdirda amalga oshiriladi.

Pensionerlar pensiyani qayta hisoblash uchun ana shunday huquq paydo bo’lganidan keyin istalgan vaqtda murojaat etishlari mumkin.

Pensiyani oshirish huquqi paydo bo’lganida, tayinlangan pensiyani qayta hisoblash, pensioner pensiyani qayta hisoblash uchun murojaat etgan oydan keyingi oyning birinchi kundan amalga oshiriladi.

Pensiya miqdorini kamaytirishga sabab bo’ladigan holatlar vujudga kelgan taqdirda, qayta hisoblash ana shu holatlar paydo bo’lgan oydan keyingi oyning birinchi kundan boshlab amalga oshiriladi.

10.2. Pensiyani hisoblashda o’rtacha ish haqini aniqlash tartibi

Pensiya tayinlash chog’ida o’rtacha ish haqi shaxs murojaat qilgandan keyin uning talabi bo’yicha korxona va tashkilot, davlat arxivi tomonidan beriladigan ma’lumotnomalar asosida hisoblanadi.

Qonunda nazarda tutilgan hollarda pensiyani hisoblash uchun:

a) O’zbekiston Respublikasida tegishli kasb yoki mutaxassisning amaldagi ish haqi to’g’risida ma’lumotnoma — O’zbekiston Respublikasida ishlamagan boshqa mamlakatlardan ko’chib kelgan fuqarolar uchun taalluqlidir.

Respublikada bunday kasb xodimi yoki mutaxassis bo’lmagan taqdirida, amaldagi ish haqi O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda aniqlanadi;

b) mualliflik gonorari to'g'risidagi ma'lumotnomalar — ijodiy uyushma a'zolari va ijodiy uyushmalarning a'zolari hisoblanmagan boshqa ijodiy xodimlar uchun.

1991-yil 1-yanvardan so'ng ko'rsatib o'tilgan shaxslar, shuningdek, band bo'lgan shaxslar O'zbekiston Respublikasi davlat soliq organlari tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlar asosida O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langanligi to'g'risida Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan berilgan ma'lumotnomalarni taqdim etadilar.

Amaldagi ish haqini guvohlar ko'rsatmasi asosida aniqlashga yo'l qo'yilmaydi. Lavozim maoshlari shtat jadvalidan ko'chirmalar va jamoat tashkilotlarining a'zolik badallari haqiqiy ish haqini tasdiqlaydigan hujjat o'rnini bosa olmaydi.

Amaldagi ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar qisman mavjud bo'lmagan hollarda mavjud bo'lmagan davrlar uchun, amaldagi ish haqini aniqlash uchun, mintaqaviy koeffitsiyent hisobga olinmasdan, qonun hujjatlarida tegishli davrlar uchun belgilangan eng kam oylik ish haqi miqdorlari qabul qilinadi.

Pensiya tayinlash uchun berilgan hujjatlarda ishonchsiz ma'lumotlar aniqlanganda yoki amaldagi ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlarni buzadigan tuzatishlar aniqlanganda Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya tayinlashgacha ularni tekshirishi yoki qo'shimcha ma'lumotlar taqdim etish yoki amaldagi ish haqi to'g'risida berilgan ma'lumotnomalarga tushuntirishlar berish to'g'risida yozma so'rov yuborishi shart.

Ishdagi tanaffuslar mavjudligidan qat'i nazar, oxirgi o'n yillik mehnat faoliyati davomidagi istalgan ketma-ket besh yil uchun (pensiya tayinlashni so'rab murojaat etgan kishining tanlovi bo'yicha) amaldagi oylik ish haqi olinadi.

Ko'rsatilgan davrlar, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tash vaqti amaldagi ish haqini aniqlashda mehnat faoliyatining oxirgi o'n yillik davriga kiritilmaydi.

Agar mehnat faoliyatining oxirgi o'n yillik davrida, shuningdek, muddatli harbiy xizmatni o'tash vaqti mavjud bo'lsa, u holda ular oldingi davrlarga almashtirilishi kerak.

Amaldagi ish haqi to'g'risida ma'lumotnoma taqdim etilmaganligi yoki ularning ishonchliligi va asoslilikini tekshirish mumkin emasligi munosabati bilan ish stajiga kiritilmagan davrlar, shuningdek, ish haqi saqlanmagan holda ta'tilda bo'lish

davrlari mehnat faoliyatining oxirgi o'n yillik davri uchun amaldagi ish haqini hisoblab chiqishdan chiqarib tashlanmaydi.

Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan besh yildan kam ishlagan hollarda amaldagi ish haqi ishning kalendar oylari uchun ish haqi umumiy summasini ushbu oylar soniga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

I yoki II guruh nogironi bo'lib qolgan shaxsning, shuningdek, nogironlik boshlangan yoki o'lim paytida bir oydan kam ish stajiga ega bo'lgan vafot etgan boquvchining amaldagi ish haqi ishlab berilgan kunlar uchun ish haqi summasini ishlab berilgan kunlar soniga bo'lish va olingan natijani ushbu oyning ish kunlari soniga ko'paytirish yo'li bilan aniqlanadi.

Amaldagi ish haqi tarkibiga sug'urta badallari hisoblangan, mehnatga haq to'lash tarzidagi barcha daromadlar kiritiladi.

Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsning xohishiga ko'ra o'qish davrida to'langan stipendiya, to'lov manbaidan qat'i nazar, amaldagi ish haqi tarkibiga kiritiladi.

Ish haqi natura shaklida to'langan taqdirda amaldagi ish haqi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga hisoblangan sug'urta badallari miqdorlaridan kelib chiqib baholanadi.

Ish haqiga mintaqaviy koeffitsiyentlar belgilangan tumanlarda ishlagan shaxsga pensiya tayinlashda mintaqaviy koeffitsiyent hisobga olingan holda hisoblab chiqilgan sug'urta badallari qo'shib hisoblangan amaldagi ish haqi hisobga olinadi.

Vafot etgan pensionerning oila a'zosiga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi miqdori vafot etgan pensioner (boquvchi)ning pensiyasini hisoblash uchun qabul qilingan amaldagi ish haqidan hisoblab chiqiladi.

Boquvchi nogironlik pensiyasi oluvchi hisoblangan va pensiya tayinlangandan keyin mehnat faoliyatini amalga oshirgan hollarda, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini tayinlashni so'rab murojaat qilgan, vafot etgan boquvchi oila a'zosining xohishiga ko'ra nogironlik pensiyasi tayinlangandan keyin, ega bo'lingan ish staji boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini hisoblab chiqishda hisobga olinadi. Talab qilinadigan ish staji boquvchi vafot etgan kundan uning yoshi bo'yicha aniqlanadi.

O'zbekiston Respublikasining chet elda ishlagan fuqarolarining amaldagi ish haqi, agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalarida o'zgacha hol nazarda tutilmagan bo'lsa, O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan

tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'langan ish haqidan aniqlanadi.

Oy, yil choragi, yarim yillik, yil yakunlari bo'yicha mukofotlar, shuningdek, davr yakunlari bo'yicha to'lanadigan taqdirlash puli, davlat bayramlari va ishlarning ayrim turlarini bajarganlik munosabati bilan bir martalik mukofotlar, shuningdek, shunga o'xshash boshqa to'lovlar sug'urta badallari to'lanishi sharti bilan ushbu to'lovlar hisoblangan oy uchun amaldagi ish haqi tarkibiga kiritiladi.

Ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar uchun (ishga kirish yoki ishdan bo'shash munosabati bilan) amaldagi ish haqi pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilganning xohishiga ko'ra amaldagi ish haqi tarkibiga kiritilishi mumkin. Bunda ish kunlari soni to'liq bo'lmagan oylar to'liq kalendar oylari sifatida hisobga olinadi.

Tashkilotning ustav sarmoyasida (fondida) qatnashish munosabati bilan olingan daromadlar va dividendlarni taqsimlash tarzidagi to'lovlar amaldagi ish haqi tarkibiga kiritilmaydi.

Pensiyaning hisoblab chiqish uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi ketma-ket ishlangan oltmish kalendar oyidagi amaldagi ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyentini qo'llagan holda qayta hisoblab chiqilgan umumiy miqdorini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyentini qo'llagan holda pensiyalarni hisoblab chiqish uchun amaldagi ish haqini qayta hisoblab chiqish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadi.

Mavsumiy ishlarda band bo'lgan xodimlarga pensiya tayinlashda pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi oxirgi o'n yildan istalgan ketma-ket besh mavsum uchun qayta hisoblab chiqilgan amaldagi ish haqini oltmishga bo'lish yo'li bilan aniqlanadi.

Pensiyaning hisoblash uchun qonun hujjatlarida pensiya tayinlanadigan sanaga belgilangan eng kam oylik ish haqining sakkiz baravari miqdoridan ortiq bo'lmagan summadagi o'rtacha oylik ish haqi qabul qilinadi.

Pensiya tayinlash uchun qabul qilinadigan o'rtacha oylik ish haqi eng kam oylik ish haqi miqdoridan kam bo'lgan yoki amaldagi ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar to'liq mavjud bo'lma-

gan hollarda pensiya miqdori qonun hujjatlarida pensiya tayinlashni so‘rab murojaat qilingan kunda belgilangan eng kam oylik ish haqidan kelib chiqib mintaqaviy koeffitsiyent hisobga olinmasdan hisoblab chiqiladi.

10.3. Pensiyalarning tayanch (bazaviy) miqdori. Pensiyaga ustamalar qo‘shib hisoblash

Tayinlanadigan pensiya miqdori pensiyaning bazaviy (tayanch) miqdoridan ish staji uchun pensiya oshirilishidan hamda ustama haqlardan shakllanadi.

Pensiyani hisoblash uchun pensiyalarning quyidagi bazaviy (tayanch) miqdorlari belgilanadi:

a) yoshga doir pensiyalar uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam emas;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasi uchun — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 55 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam emas;

d) boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a‘zosiga — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi miqdorida, biroq eng kam oylik ish haqining 50 foizidan kam emas;

e) har ikkala ota-onasini yo‘qotgan bolalarga (chin yetimlarga) boquvchisini yo‘qotganlik pensiyasi uchun yoki vafot etgan yolg‘iz onaning bolalariga har bir bola uchun — pensiyani hisoblash, qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 30 foizi, biroq eng kam oylik ish haqining 100 foizidan kam emas.

Pensiya tayinlash uchun talab qilinadigandan ortiq ish stajining har bir to‘liq yili uchun pensiyalarning bazaviy miqdorlari:

a) yoshga doir pensiyalar — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foiziga;

b) I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyalari — pensiyani hisoblash uchun qabul qilinadigan o‘rtacha oylik ish haqining 1 foiziga;

d) boquvchisini yo‘qotganlik pensiyalari oilaning har bir mehnatga layoqatsiz a‘zosining boquvchiga o‘rtacha oylik ish haqining 0,5 foiziga oshiriladi.

Har ikkala ota-onasini yo'qotgan bolalarga (chin yetimlarga) tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha pensiyalarini oshirish eng kam oylik ish haqining sakkiz baravari miqdori doirasida har ikkala ota-onaning ish haqi umumiy miqdoridan amalga oshiriladi.

Mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligiga chalinish oqibatida I va II guruh nogironlariga nogironlik pensiyasining bazaviy miqdori nogironlik bo'yicha pensiya tayinlangan kundan ish staji mavjud bo'lganda oshiriladi.

Shaxslarning ayrim toifalari pensiyaga ustama haq olish huquqiga ega va ularning miqdori quyidagicha belgilangan:

a) I guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 150 foizi;

b) II guruh urush nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 125 foizi;

d) ko'zi ojiz I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 100 foizi;

e) I guruh nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

f) II guruh yolg'iz nogironlariga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

g) urush qatnashchilariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi;

h) Ikkinchi jahon urushi davrida front orqasida ishlagan va harbiy majburiyatlarni bajargan shaxslarga — eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

i) o'limi harbiy xizmat majburiyatlarini bajarish yoki ichki ishlar organlarida xizmat qilish bilan bog'liq bo'lgan harbiy xizmatchilar va ichki ishlar organlari xodimlarining ota-onalariga va yangi nikohga kirmagan beva xotinlariga (beva erlariga) — eng kam oylik ish haqining 30 foizi;

j) O'zbekiston Respublikasi oldida alohida xizmatlarga ega bo'lgan shaxslarga — xizmatlariga qarab eng kam oylik ish haqining 100 foizidan 150 foizigacha;

k) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi farmonni amalga oshirish masalalari haqida 1995-yil 28-oktabrdagi 415-son qaroriga 1-ilovada ko'rsatilgan tashkilotlarda

ishlagan imtiyozli pensiya olish huquqiga ega bo'lgan artistlarga, Qonunning 10-moddasi „g“ bandiga muvofiq, yoshidan qat'i nazar — eng kam oylik ish haqining 75 foizi;

1) O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining „O'zbekistonda teatr va musiqa san'atini yanada rivojlantirishni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi farmonni amalga oshirish masalalari haqida 1995-yil 28-oktabrdagi 415-sonli qaroriga 2-ilovasida ko'rsatilgan lavozimlarda va tashkilotlarda ishlagan (erkaklar uchun kamida 25 yil va ayollar uchun kamida 20 yil) teatr, konsert tashkilotlarining artistlari va badiiy xodimlariga, teatr va musiqa san'atining ijodiy xodimlarini tayyorlash bilan band bo'lgan ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilar tarkibiga va konsertmeysterlariga — eng kam oylik ish haqining 50 foizi.

Ustamalar, tayinlanadigan pensiyalar turidan qat'i nazar, hisoblanadi. Agar pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan qonunda ko'zda tutilgan bir necha ustama haqni bir vaqtda olish huquqiga ega bo'lsa, u holda ustama haqlar bir vaqtning o'zida tayinlanishi mumkin.

Pensiya tayinlashni so'rab murojaat qilgan shaxsga uning tanloviga ko'ra ustamalardan biri qo'shib hisoblanishi mumkin.

Nazarda tutilgan ustama haqlardan tashqari, ishlamaydigan pensionerlarga O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Faxriy unvonlar uchun to'lovlar miqdorini oshirish to'g'risida“ 2007-yil 17-dekabrda PF-3942-sonli Farmoni ilovasiga muvofiq faxriy unvonlar uchun qo'shimcha haq qo'shib hisoblanadi¹.

Faxriy unvon uchun qo'shimcha haq, pensiyaga ustama haqlar soni va miqdoridan qat'i nazar, to'lanadi.

10.4. Pensiyani qayta hisoblash

Pensioner pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish uchun asos paydo bo'lgan taqdirda pensiyaning tayinlangan turi miqdorini qayta hisoblab chiqish to'g'risidagi ariza bilan yashaydigan joy bo'yicha Pensiya jamg'armasiga istalgan vaqtda murojaat qilishi mumkin va Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan besh kun muddatda ko'rib chiqiladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. 2007-yil, 12-son, 639-modda.

Pensiya miqdorini qayta hisoblash rad etilgan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limi tegishli qaror chiqarilgandan keyin besh kundan kechikmay rad etish sabablarini, qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibini ko'rsatgan holda pensionerga rad etish to'g'risidagi bildirishnomani berishi yoki yuborishi hamda ayni bir vaqtda taqdim etilgan hujjatlarni hujjatlar olinganligi to'g'risidagi tilxat bilan pensionerning qo'liga qaytarishi shart.

Quyidagi holatlar tayinlangan pensiya miqdorini qayta hisoblab chiqish uchun asos bo'lib xizmat qiladi:

a) pensioner tomonidan pensiya hujjatlar yig'majildida mavjud bo'lmagan va pensiya miqdoriga ta'sir ko'rsatadigan qo'shimcha hujjatlar taqdim etilishi;

b) nogironlik guruhining o'zgarishi;

d) boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchi oila a'zolari sonining o'zgarishi;

e) ustama haq olish huquqining paydo bo'lishi;

f) eng kam oylik ish haqi miqdorining o'zgarishi;

g) daromadlarning indeksatsiya qilinishi.

Oilaning voyaga yetmagan a'zosi (boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi) yoki belgilangan tartibda huquqiy layoqatsiz deb e'tirof etilgan shaxsning nomidan pensiya miqdorini qayta hisoblash to'g'risidagi ariza uning ota-onasi yoki qonuniy vakili yashaydigan joy bo'yicha Pensiya jamg'armasi bo'limiga berilishi mumkin.

Pensiya jamg'armasi bo'limi pensiya miqdorini qayta hisoblash to'g'risidagi masalani shaxs tegishli ariza bilan murojaat qilganda ko'rib chiqadi.

Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan barcha zarur hujjatlar bilan birga pensiya miqdorini qayta hisoblash to'g'risidagi ariza qabul qilingan sana pensiya miqdorini qayta hisoblash uchun murojaat qilingan kun hisoblanadi.

Quyidagi hollarda pensiya miqdorini qayta hisoblash to'g'risida ariza berish talab qilinmaydi:

— qonun hujjatlariga muvofiq eng kam oylik ish haqining miqdori o'zgarganda;

— tayinlangan pensiya miqdori kamayishiga olib kelgan holatlar yuz berganda;

— oilaning 16 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan a'zolaridan biri ta'lim muassasasidan berilgan uning o'quvchi ekanligi haqidagi ma'lumotnomani taqdim etgan taqdirda, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchi oila a'zolari soni o'zgarganda;

— nogironlik guruhi o'zgarganda.

Pensiya miqdorini qayta hisoblash to'g'risida komissiya tomonidan qaror qabul qilingandan so'ng pensiya miqdorini qayta hisoblash, pensioner, barcha zarur hujjatlar bilan birga, tegishli ariza bilan murojaat qilinsa kelgusi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi. Ish haqining eng kam miqdori o'zgargan taqdirda pensiya miqdorini qayta hisoblash ish haqining miqdori o'zgarishi uchun asos bo'lgan normativ-huquqiy hujjatda ko'rsatilgan sanadan boshlab amalga oshiriladi.

Pensiya miqdori kamayishiga olib kelgan holatlar yuz berganda (boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchi oila a'zolari soni o'zgarishi, nogironlik guruhining o'zgarishi), qayta hisoblash ushbu holatlar boshlangan oydan keyingi oyning birinchi kunidan boshlab amalga oshiriladi.

Pensiya tayinlangandan keyin ega bo'lingan mehnat staji va ish haqi hisobga olingan holda pensiya miqdorini qayta hisoblash amalga oshirilmaydi.

Pensiya miqdorini qayta hisoblash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilanadigan tartibda ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyenti qo'llangan holda amalga oshiriladi.

KALIT SO'ZLAR. Pensiyalarni hisoblash qoidalari. Pensiyani hisoblash uchun o'rtacha ish haqini aniqlash. O'rtacha ish haqini aniqlashda hisobga olinadigan va hisobga olinmaydigan daromadlar. Ish haqi haqidagi hujjatlar. Ish haqining yakka tartibdagi koeffitsiyentlari. 5 yildan kam ishlagan fuqarolar o'rtacha ish haqini hisoblash. Ish haqining bazaviy miqdori va uni aniqlash. Ish staji uchun qo'shimcha. Pensiyaga ustamalar.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Pensiyalarni hisoblash uchun ish haqi haqidagi qanday ma'lumotlarga tayaniladi?
2. Ish haqini hisoblash chog'ida qaysi davrdagi ish haqi to'g'risidagi ma'lumotlar e'tiborga olinishi lozim?
3. Oxirgi o'n yillik ish faoliyati davridagi besh yillik o'rtacha ish haqini aniqlash tartibi qanday?

4. Pensiyaning bazaviy miqdorlari qanday aniqlanishini tushuntirib bering.
5. Qaysi hollarda ortiqcha ish staji uchun qo'shimcha hisoblanadi?
6. Qaysi hollarda pensiyaga ustamalar qo'shib beriladi va uni qo'shib hisoblash qoidalari qanday?
7. Taqdim etilgan hujjatlar ishonchga sazovor bo'lmagan hollarda nima qilish lozim?
8. Soxta hujjatlar va huquqning suiiste'mol qilinishi bilan bog'liq hujjatlar taqdim etish oqibatlari haqida so'zlab bering.

XI BOB. PENSIYA TO‘LASHNING UMUMIY QOIDALARI

11.1. Pensiya to‘lashning umumiy tartibi. Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to‘lash. Pensiya uchun ushlab qolishning cheklanishi

Tayinlangan pensiyalarni to‘lash tartibi „Fuqarolarning davlat pensiya ta‘minoti to‘g‘risida“gi qonunda, shuningdek, 2011-yil 8-sentabrda 252-sonli qarori bilan tasdiqlangan „Davlat pensiyalarini tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risidagi Nizom“da belgilab berilgan.

Ishlamaydigan pensionerlarga pensiyalarni ular istiqomat qilib turgan joydagi ijtimoiy ta‘minot bo‘limlari to‘laydi.

Pensionerga hisoblab chiqarib qo‘yilgan pensiya, uning tomonidan o‘z vaqtida talab qilib olinmagan bo‘lsa, pul pensiyani olish maqsadida murojaat etilganidan oldingi uch yildan oshmagan davr uchun to‘lanadi.

Pensiyani tayinlovchi yoki to‘lovchi tashkilotning aybi bilan o‘z vaqtida olinmay qolgan pensiya puli o‘tgan davr uchun muddati cheklanmagan holda to‘lanadi.

Nogironlik pensiyasini oluvchi shaxs uzrsiz sabablarga ko‘ra belgilangan muddatda qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tish uchun TMEKga bormagan hollarda unga pensiya to‘lash to‘xtatib qo‘yiladi. Keyinchalik uni yana nogiron deb tan olingan taqdirda to‘xtatib qo‘yilgan kundan, lekin ko‘pi bilan o‘tgan bir oy mobaynida pensiya to‘lash davom ettiriladi.

Uzrli sabablarga ko‘ra qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tish muddati o‘tkazib yuborilsa, TMEK uni ana shu davr mobaynida nogiron bo‘lgan deb hisoblasa, pensiya to‘lovi to‘xtatib qo‘yilgan kundan boshlab to‘qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tish kunigacha, o‘tgan uch yil uchun davom ettiriladi. Bunda nogiron qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tkazish chog‘ida nogironlikning boshqa guruhiga (yuqori yoki past guruhga) o‘tkazilgan bo‘lsa, pensiya ko‘rsatib o‘tilgan vaqt uchun avvalgi guruh bo‘yicha to‘lanadi.

Uzrsiz sabablarga ko‘ra qayta tibbiy ko‘rikdan o‘tishga kelmagan nogironga pensiyani to‘lash to‘xtatilganiga besh yildan ortiq vaqt o‘tmagan bo‘lsa, ilgari tayinlangan pensiyani to‘lash nogironlik belgilangan kundan boshlab davom ettiriladi. Agar besh yildan ortiq vaqt o‘tgan bo‘lsa, pensiya yana umumiy asoslarda tayinlanadi.

Chin yetim (ota-onasidan judo bo'lgan) bolalarga to'liq davlat ta'minotida turgan davri mobaynida eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida pensiya to'lanadi.

Ota-onasining biridan ajralgan va to'liq davlat ta'minotida bo'lgan bolalarga eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida pensiya to'lanadi.

Shu davrdagi to'lanishi lozim bo'lgan pensiya puli bolaning nomiga jamg'arma bankida ochilgan omonatga o'tkazib qo'yiladi.

Pensioner vafoti munosabati bilan olinmay qolingan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadigan shaxslar doirasiga kiruvchi oila a'zolariga to'lanadi. Pensioner bilan u vafot etgan kunigacha birgalikda yashagan oila a'zolari, ular boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadiganlar doirasiga kirmaganliklari taqdirida ham bu pulni olish huquqiga ega bo'ladilar.

Pensioner vafot etgan oy uchun olinmay qolingan pensiya puli oila a'zolariga o'sha oy uchun va u vafot etgunga qadar o'tgan kunlari uchun to'lanadi.

Oilaning bir necha a'zolari murojaat etgan taqdirida pensiyaning ularga tegishli summasi o'zaro teng taqsimlanadi.

Pensioner vafot etgan taqdirda uning oilasiga yoki pensioner-ning dafn marosimini o'tkazgan shaxsга ikki oylik pensiya miqdorida, eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan oz bo'lmagan miqdorda dafn etish nafaqasi to'lanadi.

Nafaqa pullari pensioner vafot etganidan keyin 6 oy ichida murojaat etgan oila a'zolariga to'lanadi.

Qariyalar va nogironlar uylarida (pansionatlarida) yashovchi yolg'iz pensionerlarga pensiya ularning ta'minoti, sarf-xarajati uchun olingan holda tayinlangan pensiyaning kamida 10 foizi, urush nogironlariga esa kamida 20 foizi to'lanadi. Internat uylarida yashovchi pensionerlar, ruhiy bemorlarga pensiya to'lanmaydi.

Yoshga doir pensiya — pensiya olish huquqi paydo bo'lgan va murojaat etilgan kundan nogironlarga nogironlik belgilangan kundan boshlab murojaat qilingan bo'lsa, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi esa marhum vafot etgan (pensiya olish huquqi paydo bo'lgan) kundan boshlab olti oy ichida, boshqa hollarda — ariza berilgan kundan boshlab tayinlanadi hamda ishlamaydigan pensionerlarga ular doimiy istiqomat qilib turgan joydagi ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan to'lanadi.

Pensiya va nafaqa faqat pensionerning yoki nafaqa oluvchining yashash joyida (ro'yxatdan o'tgan manzilda) to'lanadi. Shu sababli topshiriqnoma va ro'yxat pensiya yoki nafaqa oluvchining yashash joyidagi aloqa bog'lamas (pochtamt) uchun haqiqiy hisoblanadi.

Pensiya va nafaqalarni to'lash to'lov hujjatlarida ko'rsatilgan qat'iy belgilangan muddatlarda amalga oshiriladi. Oylik to'lash muddati pensionerga birinchi to'lash paytida ma'lum qilinadi.

Pensiya va nafaqalarni to'lash muddati dam olish kuniga yoki bayram kuniga to'g'ri kelganda respublika banki bilan kelishib, joriy oy davomida belgilangan to'lash muddatidan uch kun oldin amalga oshiriladi.

Pensiya birinchi marta to'langanda pensiya oluvchi tomonidan topshiriqnoma pasporti asosida to'ldiriladi, pensiya puli miqdorini, pensiya olingan kunni ko'rsatib, imzo qo'yadi, pasport ma'lumotlari pochta xodimi tomonidan tekshirib ko'riladi.

Agar pensiya yoki nafaqa pulini oluvchi imzo qo'ya olmasa (savodsiz, salomatlik holati bo'yicha), u boshqa kishini yoki qarindoshini chaqirishi kerak (ijtimoiy ta'minot va aloqa bog'lamas xodimlaridan tashqari). U pul olishga qo'l qo'yadi va o'z pasportining raqami, seriyasi, kim tomonidan va qachon berilganligini ko'rsatadi. Pochtachi bu ma'lumotlarni ko'rsatilgan hujjat bilan solishtirib tekshiradi.

Pensioner, nafaqa oluvchi pensiya, nafaqa olish vakolatini boshqa kishiga ishonch qog'ozi orqali berishi mumkin, bunda ishonchnoma notarial tartibda yoki oluvchi yashaydigan joydagi mahalla, qishloq (posyolka), ovul fuqarolari yig'inida yoki ishonchnomani bergan pensioner davolanayotgan davolash muassasalari tomonidan tasdiqlanishi kerak.

Pensiya va nafaqani ijtimoiy ta'minot va pochta aloqasi xodimlariga ishonchnoma bo'yicha to'lash qat'iyani taqiqlanadi.

Chet elga doimiy yashash uchun chiqib ketishdan oldinroq tayinlangan pensiyalar tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga chiqib ketish to'g'risida ariza berilgan kundagi holatga ko'ra pensiya miqdori hisobidan chet elga chiqib ketish oldidan 6 oyligi oldindan to'lanadi.

Bu fuqarolarning chet elda bo'lgan vaqtida, agar davlatlararo bitimlarda (shartnomalarda) o'zga qoidalar nazarda tutilmagan bo'lsa, mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida tayinlangan pensiyalargina to'lanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 23-iyundagi qarori bilan „Mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi tufayli tayinlangan pensiyalarni boshqa mamlakatlarga o'tkazish tartibi to'g'risida Nizom“ tasdiqlangan.

Pensiyalar to'lash sohasida Mustaqil davlatlar hamdo'stligi a'zosi bo'lgan davlatlar o'rtasida 1992-yil 13-martda o'zaro bitim tuzilgan bo'lib, bitim asosida bu sohadagi o'zaro hamkorlik tartibga solinadi.

Pensiyalar va ular qo'shib beriladigan ustama haqlardan soliq olinmasligi belgilangan.

11.2. Ishlab turgan pensionerlarga pensiya to'lash

Ishlab turgan pensionerlarga pensiya to'lashning alohida qoidalari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2011-yil 30-aprelda 2222-son bilan ro'yxatga olingan „Ishlovchi pensionerlarga pensiya to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom“ bilan tartibga solinadi¹.

Mazkur Nizomga ko'ra:

a) Ikkinchi Jahon urushi nogironlariga, urush qatnashchilariga va ularga tenglashtirilgan shaxslarga. Urush nogironlariga va qatnashchilariga tenglashtirilgan shaxslar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 11-maydagi 249-son „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasining Qonunini ro'yobga chiqarish uchun zarur bo'lgan normativ hujjatlarni tasdiqlash haqida“gi qarorining 2—3-ilovalarida belgilab berilgan;

b) Ikkinchi Jahon urushi yillarida harbiy xizmatni o'tagan yoki front orqasida ishlagan shaxslar;

d) I va II guruh nogironlari;

e) Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan fuqarolar. Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan fuqarolar doirasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Kengashi Rayosati va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 6-apreldagi 170-sonli „Chernobil halokatidan ziyon ko'rgan O'zbekiston Respublikasida istiqomat qiluvchi fuqarolarni ijtimoiy himoyalash haqida“gi qarorida belgilangan;

f) fuqarolar yig'inlari va mahallalarning raislariga;

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011-yil, 18-son, 183-modda.

g) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlarida diniy ma'rifat va ma'naviy-axloqiy tarbiya bo'yicha maslahatchi lavozimlarida ishlovchi pensioner ayollarga — yoshga doir pensiyani olganda.

Qolgan barcha ishlovchi pensionerlarga ularga tayinlangan pensiyaning 50 foizi miqdorida pensiyalar to'lanadi.

Pensioner ishdan bo'shatilgan bo'lsa, korxona yoki muassasa pensiya to'lashni to'xtatadi va Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining pensioner yashash joyidagi bo'limiga qaysi muddatga qadar pensiya to'langanini ko'rsatilib, xabar yuboriladi.

Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik vazirligida ro'yxatda turgan pensionerlarga pensiyalar ular amalda doimiy yashab turgan joylaridagi xalq banki muassasalari orqali to'lanadi.

Mehnat shartnomasi asosida kalendar yili davomida ikki oydan ko'p bo'lmagan vaqt davomida ishlaganlari taqdirda pensiya to'la hajmda to'lanadi.

Pensioner to'liq yoki to'liqsiz ish vaqti rejimida ishlashidan qat'i nazar, bir kalendar yilida ikki oydan ko'p muddat ishlagani taqdirda tayinlangan pensiyaning 50 foizi to'lanadi.

Korxona va tashkilotlarning rahbarlari pensionerlarni ishga qabul qilganlari taqdirda 5 kunlik muddat ichida bu haqda pensionerning yashash joyidagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limiga xabar berishga majburlirlar.

Pensioner ishga qabul qilingan yoki xususiy tadbirkorlik bilan shug'ullana boshlagani haqida Pensiya jamg'armasi tuman bo'limini xabardor qilishi lozim, aks holda undan ortiqcha to'langan pensiya pullari undirib olinadi.

O'rindoshlik bilan ishlovchi pensionerlarga pensiya asosiy ish joyidan to'lanadi.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchi shaxslar ishga kirgan hollarda pensiya 50 foiz miqdorida ish joyidan to'lanadi.

Boshqa oila a'zolariga boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini oluvchi ishlovchi fuqarolarga (vasiylarga) pensiya ularning yashash joyidan to'liq miqdorda to'lanadi.

Xususiy (shaxsiy) tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi pensionerlarga, shuningdek, dehqon (fermer) xo'jaligida ishlovchilarga pensiya ularning yashash joyidagi ijtimoiy ta'minot idoralari tomonidan 50 foiz miqdorida to'lanadi (to'liq miqdorda pensiya olish huquqiga ega bo'lgan pensionerlardan tashqari).

Muddatidan oldin tayinlangan pensiya pensioner ishga qabul qilingan (tadbirkorlik faoliyati bilan yoki mustaqil daromad manbayi sanaluvchi boshqa faoliyat turi bilan shug'ullana boshlagan) zahoti to'lashdan to'xtatiladi.

Pensiya miqdori o'zgarishiga yoki pensiya to'lash to'xtatilishiga sabab bo'ladigan holatlar yuz bergan taqdirda (ishga kirish, oila a'zolari tarkibining o'zgarishi, to'liq davlat ta'minotiga o'tish va shu kabilar) pensiya oluvchi o'n kun muddatda bu haqda pensiya to'laydigan Pensiya jamg'armasi bo'limiga ma'lum qilishi shart.

Yuqorida ko'rsatib o'tilgan holatlar to'g'risida Pensiya jamg'armasi bo'limiga o'z vaqtida xabar berilmasligi munosabati bilan pensiyaning noqonuniy summasi pensioner yoki qonuniy vakil (ota-ona), shuningdek, ishonch bildirilgan shaxs (pensionerning vafot etganligi qasddan yashirilgan taqdirda) tomonidan qaytarilishi kerak.

11.3. Pensiya to'lash uchun sarflangan mablag'larni korxona va tashkilotlardan qaytarib olish asoslari va tartibi

Mulkchilik shaklidan qat'i nazar, korxonalar va tashkilotlar tomonidan boquvchisini yo'qotganlik uchun, shuningdek, xodimning mehnatda mayiblanishi yoki kasb kasalligiga uchraganligi oqibatidagi nogironlik uchun, pensiya yoshiga to'lguniga qadar tayinlangan pensiyalarni to'lash xarajatlarining o'rnini qoplovchi pulni ish haqi to'lashga mo'ljallangan mablag'lar hisobidan O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga o'tkazadi.

Korxonalar va tashkilotlar pensiya uchun (pensiya qayta hisoblanishi uchun) hujjatlarni o'z vaqtida taqdim etmaganlik yoki ishonchsiz ma'lumotlari bo'lgan hujjatlarni taqdim etish oqibatida pensionerga yetkazilgan zarar uchun uning oldida qonun hujjatlarida belgilanganidek javobgar bo'ladilar.

Korxona yoki pensioner tomonidan ma'lumotlari ishonchsiz hujjatlar taqdim etilganligi oqibatida davlatga zarar yetkazilgan taqdirda, keltirilgan zararining o'zni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga to'lanadi. Bunda korxona tomonidan yetkazilgan zararining o'zni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi bo'limidan tegishli xabar-

noma olingan kundan e'tiboran bir oy ichida, pensioner tomonidan yetkazilgan zararning o'rni esa nazarda tutilgan tartibda qoplanadi.

11.4. Fuqarolar tomonidan huquqlari suiiste'mol qilingani holda to'langan ortiqcha pensiya summalarini qaytarib olish

Pensiya olish huquqini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hamda taqdim etilgan hujjatlarning (ish staji to'g'risida, amaldagi ish haqi to'g'risida va shu kabilarning) ishonchliligi va asoslanganligi uchun ushbu hujjatlarni bergan tashkilotning mansabdor shaxsi hamda pensioner qonun hujjatlarida belgilangan tartibda javob beradi.

Ishonchsiz ma'lumotlar, pensiyaga taalluqli bo'lgan huquqlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan hujjatlardagi ma'lumotlarni buzuvchi tuzatishlar aniqlanganda, shuningdek, pensiyalarni tayinlash va to'lash uchun ish beruvchi yoki arxiv tomonidan berilgan yuqorida ko'rsatib o'tilgan hujjatlar soxtalashtirilganda va qalbakilashtirilganda davlatga yetkazilgan zarar summasini undirish uchun javobgarlik, qonun hujjatlarida belgilangan tartibda, ushbu hujjatlarni bergan tashkilotlar va arxivning mansabdor shaxslariga yuklanadi.

Pensioner tomonidan sodir etilgan suiiste'molliklar (ataylab noto'g'ri ma'lumotlar bilan hujjatlar taqdim etilishi, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tayinlangan oila a'zolari tarkibidagi o'zgarishlar to'g'risida ma'lumotlar taqdim etilmasligi) natijasida unga pensiyalar summasining ortiqcha to'lanishi tufayli davlatga yetkazilgan zararni to'lash majburiyati pensionerga yuklanadi.

Pensiyalar tayinlash va to'lashni nazorat qilish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Nazorat-taftish bosh boshqarmasi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladi.

11.5. Harbiy xizmatchilarga pensiya tayinlash va to'lash

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy tuzilmalarning harbiy xizmatchilariga (ofitserlar, praporshiklar, michmanlar va boshqa muddatdan tashqari harbiy xizmatdagi harbiy xizmat-

chilar) sobiq Ittifoqning bugungi kunda O'zbekiston Respublikasida amalda bo'lib turgan „Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunga muvofiq quyidagi pensiyalar tayinlanadi:

a) uzoq yillik harbiy xizmat pensiyasi;

b) harbiy xizmat nogironlik pensiyasi;

d) harbiy xizmatchi vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lib kelgan mehnatga yaroqsiz shaxslarga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi.

Yuqorida eslatib o'tilgan qonunda ushbu pensiyalarni olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi, pensiya tayinlash asoslari va shartlari ko'rsatib qo'yilgan.

Harbiy xizmatchi va uning oila a'zolarini pensiya bilan ta'minlash, pensiyani tayinlash hamda to'lash tegishli harbiy organlarning pensiya bo'limlari tomonidan qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan tartib hamda muddatlarda amalga oshiriladi.

1. Harbiy xizmatchilarga uzoq yillik xizmat qilganlik pensiyasini tayinlash:

„Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 13-moddasiga ko'ra uzoq yillik xizmat pensiyasini olish huquqiga quyidagilar ega bo'ladilar:

a) ofitserlar, praporshiklar, michmanlar, muddatdan tashqari xizmatni o'tayotgan harbiy xizmatchilar, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy organlarning boshliqlari hamda oddiy xizmatchilar tarkibidan bo'lgan shaxslari — kamida 20 yil va undan ko'p xizmat qilgan bo'lsalar;

b) ofitserlar, praporshiklar, michmanlar, o'rta, katta va oliy boshliqlar tarkibiga kiruvchi Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy organlarning xodimlari — 50 yosh va undan keyin ushbu harbiy xizmatdan yoshi tufayli yoki kasalligi, shtatlar soni qisqartirilganligi yoxud salomatligi ahvoli cheklanganligi oqibatida harbiy xizmatdan bo'shatilgan bo'lsalar hamda xizmatdan bo'shatilgan kunga kelib kamida 12 yil-u 6 oy harbiy xizmat muddatiga, kamida 25 yil umumiy mehnat stajiga ega bo'lsalar.

2. Uzoq yillik xizmat pensiyasining miqdori quyidagicha bo'ladi:

a) 20 yillik harbiy xizmat davri uchun pul to'lovlarining 40 foizi, yoshi yoki kasalligi tufayli xizmatdan bo'shatilgan harbiy xizmatchilarga esa — yillik to'lovlarning 45 foizi; 20 yildan

ortiqcha harbiy xizmatning har bir yili uchun tegishli oylik to'lovining 3 foizi, ammo uning 75 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda;

b) kamida 12 yil-u 6 oy xizmat qilgan, umumiy mehnat staji 25 yildan kam bo'lmagan 50 yoshdan oshgan harbiy xizmatchilar, ichki ishlar organlari, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy organlar xizmatchilari uchun umumiy 25 yillik ish staji uchun harbiy xizmatchi oyligining 40 foizi va 25 yildan ortiqcha har bir to'liq mehnat staji yili uchun 1 foizdan qo'shimcha haq miqdorida pensiya tayinlanadi;

d) harbiy xizmatchilarning eng kam pensiyasi miqdori pensiyalarning rasman belgilangan eng kam miqdoridan kam bo'lmashligi kerak;

e) harbiy xizmatchilarning pensiyalariga ularning qaramog'ida mehnatga yaroqsiz oila a'zolari borligi, ular I guruh nogironi yoki 80 yoshdan oshgan qariya-pensionerlar ekanligi hisobga olingan holda ustamalar qo'shib berish nazarda tutilgan.

3. Harbiy xizmatchilarga nogironlik pensiyasini tayinlash va pensiya olishga quyidagilar haqli bo'ladilar:

a) agar nogironlik harbiy xizmat burchini o'tash paytida yuz bergan bo'lsa;

b) harbiy xizmatdan bo'shatilganlaridan so'ng uch oy o'tmasdan yuz bergan bo'lsa;

d) nogironlik keyinchalik yuz bergan bo'lsa-da, ammo uning sabablari harbiy xizmatni o'tash davrida olingan yaralanish, kontuziya yoki jarohatlar oqibatida yuz bergan bo'lsa.

Nogironlik guruhleri, sabablari va yuz berish vaqti TMEK tomonidan qonun hujjatlarida ko'rsatilgan tartibda belgilanadi. Nogironlik, uning sabablariga ko'ra urush nogironi va harbiy xizmat bilan bog'liq bo'lmagan nogironlikka bo'linadi.

4. Harbiy xizmatchilarga quyidagi miqdorda nogironlik pensiyasi tayinlanadi:

a) I—II guruh urush nogironlariga ular oylik pul to'lovlarining 75 foizi;

b) III guruh urush nogironlariga — oylik maoshining 50 foizi;

d) boshqa nogironlarga: I—II guruhlar uchun 55 foiz, III guruh nogironlari uchun esa 30 foiz oylik maoshi miqdorida;

e) harbiy xizmatchilarning nogironlik pensiyalariga qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan miqdorda ustamalar qo'shib beriladi („Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 27-moddasi).

5. Harbiy xizmatchilarning oila a'zolari boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olishga quyidagi hollarda haqli bo'ladilar:

a) agar boquvchi harbiy xizmatni o'tash davrida vafot etgan bo'lsa;

b) agar boquvchi harbiy xizmatdan bo'shatilgach uch oy ichida vafot etsa;

d) agar boquvchi xizmatdan bo'shatilgach, 3 oydan so'ng vafot etgan bo'lsa, ammo uning o'limiga xizmatni o'tash davrida yuz bergan yaralanish, kontuziya va boshqa jarohatlar sabab bo'lgan bo'lsa;

e) vafot etgan pensioner harbiy xizmatchi pensiya olayotgan davrda yoki pensiya to'lash to'xtatilganidan so'ng 5 yil o'tmasdan vafot etgan bo'lsa;

f) harbiy harakatlar davrida bedarak yo'qolgan harbiy xizmatchilarning oila a'zolari vafot etgan harbiy xizmatchi oila a'zolariga tenglashtiriladilar.

6. Harbiy xizmatchi oila a'zosi sifatida boquvchisini yo'qotganlik pensiyasini olish huquqiga uning qaramog'ida bo'lib kelgan, mehnatga yaroqsiz quyidagi shaxslar haqli sanaladilar:

a) marhum harbiy xizmatchining 18 yoshga to'lmagan bolalari, uka-singillari, nabiralari, 18 yoshga yetgan bo'lsa-da nogiron farzandlari, uka, singillari, nabiralari (agar ularning mehnatga yaroqli ota-onalari bo'lmasa);

b) 60 yoshdan oshgan otasi, 55 yoshdan oshgan onasi yoki bu yoshga yetmasdan nogiron bo'lsalar;

d) marhumning 8 yoshga yetmagan farzandlarning parvarishi bilan band bo'lgan va ishlamayotgan xotini (eri), ota-onasi, bobosi, buvisi, opa-singillari yoshidan qat'i nazar;

e) marhumning bobosi va buvisi agar qonun bo'yicha ularni boqishga majbur bo'lgan boshqa qarindoshlari bo'lmasa;

f) ota-onasidan mahrum bo'lgan harbiy xizmatchining yetim bolalariga, ular to'liq davlat ta'minotida bo'lgan hollarda ham pensiya 100 foiz to'lanadi. Boshqa yetim bolalar (harbiy xizmatchi bolalari) davlat ta'minotida bo'lganlarida esa pensiyaning 25 foizi to'lanadi;

g) harbiy xizmatchining xotini (eri) yangi nikohga kirganida ham boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olish huquqini saqlab qoladi;

h) o'gay ota-ona vafot etgan harbiy xizmatchining o'gay farzandini kamida 5 yil tarbiyalagan yoki moddiy ta'minlagan bo'lsa, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqli oila a'zolari tarkibiga kiradi;

i) farzandlikka oluvchilar va farzandlikka olinuvchilar umumiy asoslarda boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqli bo'ladilar.

Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasining miqdori. Harbiy xizmatchi Vatanni himoya qilish va boshqa harbiy harakatlar chog'ida yaralanish, kontuziya yoki jarohatlardan vafot etgan (Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqa harbiy organlarning xodimlari)ning pensiya olishga haqli bo'lgan mehnatga yaroqsiz har bir oila a'zosiga marhum harbiy xizmatchi oylik maoshining 40 foizi miqdorida pensiya tayinlanadi.

Harbiy xizmat va harbiy burchni bajarish bilan bog'liq bo'lmagan sabablar tufayli vafot etgan harbiy xizmatchilarning qaramog'ida bo'lgan mehnatga yaroqsiz oila a'zolarining har biriga marhum harbiy xizmatchi oylik maoshining 30 foizi miqdorida pensiya tayinlanadi.

Harbiy xizmatchi oila a'zolariga tayinlanadigan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasining eng kam miqdorlari qonun hujjatlarida belgilangan („Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunning 40-moddasi).

Harbiy xizmatchi oila a'zolariga yagona pensiya tayinlanadi va har bir oila a'zosi talabi bilan umumiy boquvchisini yo'qotganlik pensiyasidan tegishli hissa ajratib berilishi mumkin.

Harbiy xizmatchilarga va ularning oila a'zolariga pensiyalar tayinlash tartibi, muddatlari hamda pensiyalarning to'lanish tartiblari „Harbiy xizmatchilarning pensiya ta'minoti to'g'risida“gi qonunda (qonunning VI (51—54-moddalari) va VII (55—63-moddalar bo'limlarida) hamda tegishli harbiy idora (Mudofaa vazirligi, Ichki ishlar vazirligi, Milliy xavfsizlik xizmati va boshqalar) tomonidan qabul qilinadigan idoraviy me'yoriy hujjatlar bilan¹ tartibga solinadi.

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 21-dekabrda ro'yxatga olingan, O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi pensionerlariga pensiyalarni to'lashning vaqtinchalik tartibi.

Harbiy xizmatchi yoki uning oila a'zolari harbiy xizmat pensiyasi o'rniga o'z xohishlari bilan umumiy (fuqarolik) pensiyalarini olishga ham haqli bo'ladilar.

KALIT SO'ZLAR. Pensiyalarni to'lovchi organlar. Pensiyalarni to'lash shakllari. Pensiyalarni aloqa muassasalari orqali to'lash. Pensiyalarni Xalq banki muassasalari orqali to'lash. Pensiyalardan ushlab qolishning cheklanganligi. Ishlayotgan fuqarolarga pensiya to'lash. To'liq davlat ta'minotidagi shaxslarga pensiya to'lash. Pensiyani vakillar orqali to'lash. Olinmasdan qolgan pensiyalarni to'lash.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Tayinlangan pensiyalarni to'lashning umumiy qoidalari haqida so'zlab bering.
2. Ishlamayotgan pensionerlarga pensiya to'lash va qanday tartibda to'lash kim tomonidan amalga oshiriladi?
3. Pensiyalardan ushlab qolish chegaralari qanday?
4. Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lash qanday tartibda amalga oshiriladi?
5. Davlat ta'minotiga olingan shaxslarga pensiya to'lash qanday amalga oshiriladi?
6. O'z vaqtida olinmasdan qolgan pensiyalarni to'lash tartibi va muddatlari qanday belgilangan?
7. Pensiyalarni vakillar (ishonchnoma) asosida olish tartibi qanday?

XII BOB. FUQAROLARNI NAFAQALAR BILAN TA'MINLASH

12.1. Nafaqalar bilan ta'minlash tushunchasi va nafaqalarning fuqarolar ijtimoiy ta'minotida tutgan o'рни

Fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash va ijtimoiy-moddiy muhofazalashning pensiyalardan keyingi ikkinchi o'ringa turadigan shakli nafaqalardan iborat bo'lib, ular vositasida nafaqat ishlaydigan fuqarolar, balki ishidan qat'i nazar ehtiyojmand barcha shaxslar, muhtoj oilalar qo'llab-quvvatlab kelinmoqda.

Aholining aniq yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan qonunchilik faoliyati tobora kuchayib bormoqda va hozirgi paytda ushbu masala o'zining zaruriy huquqiy bazasiga, bugungi kun talablarini o'zida aks ettiruvchi qonunchilik tizimiga ega bo'ldi. Bunda, ayniqsa, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996-yil 10-dekabrda „Bolali oilalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashni yanada kuchaytirish to'g'risida“gi Farmoni¹ va uning asosida qabul qilingan hukumat qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1999-yil 13-yanvardagi „Aholini aniq yo'naltirilgan ijtimoiy madad bilan ta'minlashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari rolini oshirish to'g'risida“gi Farmoni², 2002-yil 25-yanvardagi „Aholining ijtimoiy himoyaga muhtoj qatlamlarini aniq yo'naltirilgan tarzda qo'llab-quvvatlashni kuchaytirish to'g'risida“gi Farmoni³, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2007-yil 6-aprelda PQ-616-sonli „Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi Qarori⁴, 2009-yil 30-dekabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-4161-sonli „Fuqarolarning pensiya ta'minoti tizimini yanada takomillashtirish chora-tad-

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1997. 1-son, 7-modda.

² O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1999. 1-son, 36-modda.

³ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 2002. 1-son, 32-modda.

⁴ „O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami“, 2007. 15-son, 156-modda.

birlari to'g'risida“gi Farmoni¹ va boshqa hujjatlar muhim o'rin tutdi.

Nafaqa huquqiy kategoriya sifatida fuqarolarga yoki oilaga davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari, davlat budjeti hamda boshqa maxsus manbalardan pul shaklida, muntazam ravishda yoki bir marta ko'rsatiladigan ijtimoiy yordamdan iborat bo'lib, pensiyalardan farq qiladi va, odatda, yordamchi xususiyatga ega bo'ladi hamda fuqaro turmush kechirishining asosiy manbayi bo'lib hisoblanmaydi. Pensiyalarga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar — pul shaklida berilishi, qaytarib olinmaslik sharti bilan va tekinga berilishi kabilar nafaqalarga ham xosdir.

Pensiyalardan farqli o'laroq, nafaqalar vaqtinchalik xususiyatga ega, turmush darajasini ta'minlashning qo'shimcha manbai bo'lib sanaladi va nafaqalar tayinlanishida nafaqa oluvchining avvalgi mehnat faoliyati va mehnat staji unchalik katta ahamiyatga ega bo'lmaydi.

Nafaqalar o'z manbalariga ko'ra:

- 1) davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'laridan (Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'laridan) to'lanadigan nafaqalar;
- 2) davlat budjet mablag'laridan to'lanadigan nafaqalar;
- 3) boshqa manbalardan to'lanadigan nafaqalarga bo'linadi.

Davriyligiga ko'ra:

- 1) muntazam tarzda uzoq muddat davomida to'lanadigan nafaqalar;

- 2) bir marta to'lanadigan nafaqalarga bo'linadi.

Nafaqani oluvchilar toifasiga ko'ra:

- 1) ayrim fuqarolarga tayinlanadigan;
- 2) oilaga tayinlanadigan nafaqalar mavjud.

Bulardan tashqari, nafaqalar:

- 1) korxona va tashkilotlarning xodimlariga to'lanadigan;
- 2) bolalarga to'lanadigan;
- 3) nogironlarga to'lanadigan;
- 4) yolg'iz qariyalarga to'lanadigan nafaqalarga va boshqa turdagi nafaqalarga bo'linishi mumkin.

Nafaqalarning turlarini, ularni tayinlash va to'lashga oid qonunchilik qoidalarini bilish bu sohada qonunchilikning ta'minlanishi, ijtimoiy adolat qaror toptirilishida katta ahamiyatga ega.

¹ „Xalq so'zi“ gazetasi, 2009-yil 31-dekabr.

12.2. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha tayinlanadigan va to'lanadigan nafaqalar fuqarolarni nafaqalar bilan ta'minlashda yetakchi o'rin tutadi.

Ijtimoiy ta'minotning ushbu shakli fuqarolarga O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida nazarda tutilgan muhim huquqlarning amalga oshirilishini kafolatlaydi (Konstitutsiyaning 39-moddasi).

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lashning huquqiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (XVI bob, 282—294-moddalar)¹; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000-yil 15-noyabrda „O'zbekiston Respublikasida Pensiya ta'minoti tizimlarini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“gi qarori; 2001-yil 16-martda O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida ro'yxatga olingan „Majburiy badallar va davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha ajratmalarni Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga hisoblab chiqarish va to'lash tartiblari to'g'risida“gi yo'riqnoma²; O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001-yil 24-avgustdagi qarori bilan tasdiqlangan „Yuridik shaxs bo'lmasdan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning mehnat stajini hisobga olish va Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga badallar to'lash tartibi“ hamda „Dehqon xo'jaligi a'zolari ijtimoiy sug'urtasi va ijtimoiy ta'minoti to'g'risida“gi Nizom³, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2002-yil 25-yanvardagi 32-sonli „Ayollar va o'sib kelayotgan avlod sog'lig'ini mustahkamlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“gi Qarori⁴, 2007-yil 8-maydagi 95-sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining „Aholi bandligini oshirish hamda mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish organlari

¹ Qarang: O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi, T., „Adolat“, 2010-yil.

² Qarang: O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, Davlat qo'mitalari va idoralarining normativ hujjatlari Axborotnomasi. 2001-yil, 6-son.

³ Qarang: O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlari to'plami, 2001-yil, 16-son, 109-modda.

⁴ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami. 2002-yil, 1-son, 5-modda.

faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida“ 2007-yil 6-apreldagi PQ-616-sonli Qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari haqida“gi Qarori¹, 2011-yil 7-apreldagi 107-sonli „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida“gi „O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida“gi Qarori² va boshqalar muhim o'rin tutadi.

Davlat ijtimoiy sug'urta nafaqalari tayinlanishi va to'lanishida, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-mayda ro'yxatga olingan „Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida“gi Nizom bilan³ va boshqa bir qator me'yoriy hujjatlar bilan tartibga solinadi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlanishi nafaqa olishga talabgor fuqaroning (yoki uning oila a'zosini) mehnat faoliyati bilan, unga ish beruvchilar tomonidan yoki bevosita o'zi tomonidan Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga ijtimoiy sug'urta badallari o'z vaqtida, to'liq va muntazam ravishda to'lab berilganligi bilan bog'liq. Ya'ni, ijtimoiy sug'urta badallari to'lanmaydigan ish faoliyati bilan shug'ullanish yoki sug'urta badallarining muntazam to'lanmaganligi oqibatida ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalar olish huquqiga ega bo'lmaydi. „Sug'urta badallari to'lanmagan bo'lsa nafaqa ham tayinlanmaydi“ degan tamoyilga amal qilinadi. Ammo, O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 284-moddasi ikkinchi qismiga ko'ra: „Ish beruvchining davlat ijtimoiy sug'urtasi uchun badal to'lamaganligi sug'urta qilingan xodimni davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan ta'minlanish huquqidan mahrum qilmaydi“. Korxonalar ixtiyoriy to'lamagan yoki kechiktirgan sug'urta badallari keyinchalik majburiy tarzda undirib olinadi.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar ijtimoiy sug'urta qilingan xodimlarga, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida

¹ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami. 2007-yil, 5-son, 25-modda.

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 14-son, 142-modda.

³ Qarang: O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari, idoralari me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi. 2002-yil, 9-son.

ko'zda tutilgan hollarda, boshqa fuqarolarga ham beriladi. Umumiy qoidaga ko'ra xodim ish beruvchi bilan mehnat munosabatlarida (sinov davrida ham) bo'lgan davrda unda nafaqa olish huquqi paydo bo'lsa, beriladi. Ayrim hollarda ishdan bo'shagan xodimlarga ham tayinlanishi mumkin.

„Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida“gi Nizomning (keyingi o'rinlarda Nizom deb yuritiladi) 1-bandiga ko'ra Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan ijtimoiy sug'urta bo'yicha quyidagi nafaqalar beriladi:

- homiladorlik va tug'ish davri uchun;
- bola tug'ilganligi (suyunchi puli) uchun;
- qo'shimcha dam olish kuni uchun;
- dafn etish marosimi uchun.

Ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni tayinlash uchun umumiy ish stajini aniqlash va hisoblash tartibi yuqorida qayd etilgan Nizomda belgilangan bo'lib, unga ko'ra nafaqa tayinlanishida hisobga olinadigan umumiy ish stajiga quyidagilar kiradi:

a) faoliyat turi, mulkchilik va xo'jalik yuritish shakllaridan qat'i nazar, xodim davlat tomonidan ijtimoiy sug'urtalangan holda bajargan har qanday ish, agar u Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan bo'lsa.

Shirkat xo'jaligi (fermer xo'jaligi) a'zosi uzrsiz sabablarga ko'ra xo'jalikda belgilangan mehnatda ishtirok etish minimumini bajarmagan bo'lsa, ishlagan vaqtining amalda davom etgan davri hisobga olinadi.

Ijodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi xodimlarga ish staji ijodiy uyushmalar boshqaruvi tomonidan, uning birinchi bosilgan yoki dastlabki ijro etgan yoxud mazkur muallifning asari birinchi marta ommaga ko'rsatilgan kundan boshlab, agar u Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lab turgan bo'lsa, ish stajiga hisoblanadi;

b) harbiy xizmat, ichki ishlar, favqulodda vaziyatlar, milliy xavfsizlik organlaridagi hamda chegara qo'shinlaridagi xizmat davri;

d) harbiylashtirilgan soqchilik, maxsus aloqa organlari hamda tog'-qutqaruv qismlaridagi xizmat davri, qaysi idoraga bo'ysunishidan qat'i nazar;

e) diniy tashkilotlarda ishlagan davr, agar ular Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lab kelgan bo'lsalar;

f) yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxs va dehqon xo'jaligi a'zosining Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lagan davri;

g) alohida fuqarolarga yollanib ishlagan davr (uy xodimlari, kotibalar, enagalar, haydovchilar, qorovullar va boshqalar), agar ular Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari to'lab kelgan bo'lsalar;

h) asossiz ravishda jinoiy javobgarlikka tortilgan va keyinchalik oqlangan fuqarolarning qamoqda bo'lgan va mahbuslikni o'tagan davri.

Sanoatning mavsumiy tarmoqlaridagi korxonalarda band bo'lgan xodimlarga mavsum davomidagi ish bir yilga, mavsum davomida to'liq ishlamagan taqdirda, haqiqiy ishlagan davr hisobga olinadi.

Chet elda ishlagan davri, agar Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan sug'urta badallari to'lab kelingan bo'lsa va davlatlararo bitimlarda boshqa imtiyozli holat ko'zda tutilmagan bo'lsa, o'sha davr ish stajiga qo'shiladi.

O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining chet elda yollanib (bitim asosida) ishlagan ish davri Tashqi mehnat migratsiyasi masalalari agentligi tomonidan mehnat daftarchasiga kiritilgan hamda Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badali to'lab kelingan bo'lsa, ish stajiga hisoblanadi.

Dehqon xo'jaligi a'zosi, yil mobaynida ishlab, kamida 9 oy Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga belgilangan tartibda sug'urta badali to'lagan bo'lsa, ushbu davr kalendar yil hisoblanadi.

Yil mobaynida yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi fuqaroning asosiy faoliyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va ularni qayta ishlash bilan shug'ullangan hollarda. Mazkur yilda Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallari belgilangan tartibda kamida 9 oy mobaynida to'langan bo'lsa, stajga kalendar yil qo'shiladi.

12.3. Davlat ijtimoiy sug'urta nafaqalarining turlari

1. *Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi* hozirgi paytda davlat ijtimoiy sug'urtasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobidan emas, balki 2007-yil 1-yanvardan boshlab vaqtinchalik mehnatga layoqatsizlarga nafaqa to'lash bilan bog'liq xarajatlar:

Budjet tashkilotlari tomonidan — mehnat haqi jamg'armasiga ajratiladigan budjet mablag'lari doirasida;

xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan — foyda solig'ini hisoblashda mazkur xarajatlar soliqqa tortiladigan bazadan chiqarib tashlangan holda shaxsiy mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

Mazkur nafaqani to'lash shartlari va tartiblari „Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom“da belgilab berilgan. Shu sababli ushbu nafaqa turiga oid qoidalarni ko'rib chiqamiz.

„Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik“ tushunchasi qonun hujjatlarida keng ma'noda talqin etiladi va kasallik yoki jarohat olish tufayli mehnatga bo'lgan layoqat vaqtincha yo'qolib qolishidan boshqa bir qator holatlarni ham o'z ichiga oladi.

„Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida“gi Nizomning 9-bandiga ko'ra quyidagi hollarda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi berilishi ko'zda tutilgan:

a) vaqtincha mehnat qobiliyatini yo'qotish bilan bog'liq kasallikda, shikastlanishda;

b) sanatoriy-kurortlarda davolanganda;

d) kasallangan oila a'zosini parvarishlash zarur bo'lganda;

e) karantinda;

f) sil yoki kasb kasalligi tufayli vaqtincha boshqa ishga o'tkazilganda;

g) mehnat qobiliyatini tiklash yoki yasama a'zo (protez) qo'ydirish uchun reabilitatsiya muassasalarida davolanganda.

Demak, vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik tushunchasi ancha keng ma'noga ega.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi faqat belgilangan tartibda, berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (kasallik varaqasi) asosidagina tayinlanishi mumkin.

„Ishlayotgan fuqarolarning va o'quvchilarning vaqtincha mehnatga layoqatsizligini O'zbekiston Respublikasi davolash-profilaktika muassasalarida ekspertizadan o'tkazish to'g'risidagi Nizom“ O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 19-yanvarda ro'yxatga olingan bo'lib¹, unga asosan nogiron bo'lmasa-da,

¹ O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi, 2000-yil, 2-son.

muayyan mehnat sharoitiga muhtoj shaxslar uchun tavsiya etiladigan ishlar; uzoq yoki umrbod mehnat qobiliyatini yo'qotgan shaxslarni aniqlash va ularni tekshirish uchun TMEKlarga yuborish; davolash-dagnostika jarayonlarini to'g'ri tashkil etish, mehnatga layoqatsizlik sabablarini tahlil qilish va ularni bartaraf etish yuzasidan tavsiyalar berish kabi tadbirlar amalga oshiriladi. Mazkur Nizomga ko'ra vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlikni ekspertizadan o'tkazishga vakolatli bo'lgan davolash-profilaktika organlari, ularning vakolatlari, huquqlari va majburiyatlari hamda javobgarliklari belgilab berilgan.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2000-yil 19-yanvar kuni „Mehnatga qobiliyatsizlik varaqalari va ma'lumotnomalarini berish tartibi to'g'risida“gi yo'riqnoma ro'yxatga olingan¹.

Ushbu yo'riqnomada ko'rsatilishicha, mulkchilik shakli, xo'jalik faoliyatining turidan qat'i nazar, barcha korxona, muassasa, tashkilotlarda yollanib ishlovchi, yakka tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi, dehqon xo'jaliklarida mehnat qiluvchi barcha xodimlarning vaqtincha mehnatga qobiliyatsizligi O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligi tomonidan tasdiqlangan shakllardagi mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi, tegishli hollarda esa ma'lumotnoma bilan tasdiqlanadi.

Ish haqi saqlanmagan holdagi ishlamayotgan, ta'tilda bo'lgan shaxslar, harbiy xizmatchilar (erkin yollanganlardan tashqari), attestatsiya qilingan Ichki ishlar vazirligi xodimlariga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi berilmaslik ko'zda tutilgan.

Ambulatoriya-poliklinika sharoitida davolanganida mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi davolovchi shifokor tomonidan 5 kunga berilishi mumkin. 5 kun o'tgach, har safar 10 kun muddatga davolovchi shifokor tomonidan bo'lim boshlig'i bilan birgalikda, bo'lim boshlig'i bo'lmaganida esa shifokorlar maslahat komissiyasi (VKK) raisi bilan birgalikda bemor sog'ayguniga qadar yoki u tibbiy mehnat ekspert komissiyasiga yuborilguniga qadar uzaytirilishi mumkin.

Uzoq vaqt kasal bo'lgan shaxslarda mehnatga qobiliyatsizlik alomatlari paydo bo'lgan kundan boshlab belgilanganidan uzoqroq vaqt davomida mehnatga layoqati tiklanmaganligi taqdirida

¹ O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi, 2000-yil, 2-son.

nogironlik boshlanganligi masalasini ko'rib chiqish uchun TMEK tibbiy ko'rigiga yuborilishi lozim.

Alkogolli ichimlik iste'mol qilishi oqibatida kasal bo'lgan yoki jarohat olgan shaxslarga mehnatga qobiliyatsizlik varaqasi o'rniga ma'lumotnoma beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mehnat qobiliyatini yo'qotganlik varaqasi rasmiylashtirilishining to'g'ri yuritilishi, uning yuzasidan moliya operatsiyalarining amalga oshirilishi, ushbu varaqalarning hisobga olinishi ular yuzasidan hisobotlar to'g'riligi ustidan nazorat olib boradi.

Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yo'qolgan hollarda, nafaqa, uning o'rniga takroriy berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa, mehnat qobiliyati yo'qolgan birinchi kundan to u tiklanguniga qadar yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasi (TMEK) tomonidan nogironlik belgilanguniga qadar, hatto bu davrda xodim bilan mehnat shartnomasi bekor qilingan hollarda ham beriladi.

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarini, magistratura, aspirantura, klinik ordinatura, doktoranturani tamomlagan va belgilangan tartibda ishga yuborilgan shaxslarga nafaqa to'lash, ular ishga chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Xodimning mehnatga qobiliyatsizlik kunlari yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'til davriga to'g'ri kelgan hollarda, vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlar uchun nafaqa to'lanadi.

Sanatoriy-kurortda davolanishda, agar asosiy va qo'shimcha ta'til xodimning sanatoriyda davolanishi uchun yetarli bo'lmasa, nafaqa beriladi. Bunday holda sanatoriy-kurortda davolanishning barcha davri uchun (yo'llanma, davolanish muddati) sanatoriyga borish-kelish vaqtini qo'shib, ammo xodimning yillik ta'tilini chiqarib tashlagan holda nafaqa beriladi.

Asosiy va qo'shimcha ta'tildan sanatoriyga borishdan oldin foydalangan bo'lsa ham nafaqa uni chiqarib tashlagan holda beriladi. Bunda ish beruvchi ta'tilning yetmaydigan vaqti uchun xodim bilan kelishib, unga ish haqi saqlanmagan ta'til beradi.

Ikkinchi Jahon urushi nogironlariga, baynalmilal jangchilarga, Chernobil AES falokati oqibatlarini tugatishda qatnashgan shaxslarga, shuningdek, sanatoriyga davolanishni davom ettirish uchun davolash muassasalaridan o'tkir miokard infarkti bilan

kasallangan, jarrohlik uslubi bilan yurakning aorta-koronar shuntrovkasi va anevrizmlari, oshqozonning yarali kasalligi, o'n ikki barmoq ichak kasalligidan davolangan va o't pufagini olib tashlashdan keyin bevosita yuborilgan xodimlarga, shuningdek, sil kasalligi bilan og'riganlarga nafaqa sanatoriyda bo'lgan barcha vaqt uchun beriladi.

O'n olti yoshgacha bo'lgan nogiron bolani tarbiyalayotgan ota-onalardan biriga (homiya yoki vasiya), nogiron bolaning sanatoriyda davolangan barcha davri uchun (sanatoriyga borib-kelish vaqtini hisobga olib) unga yakka tartibda parvarish zarurligi to'g'risidagi tibbiy xulosa mavjud bo'lganda nafaqa beriladi.

Uch yoshgacha bo'lgan bolani yoki 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolani parvarishlashda band bo'lgan ona kasal bo'lib, bolani parvarishlashga qurbi yetmay qolgan hollarda, parvarish bilan band bo'lgan boshqa oila a'zolari yoki qarindoshlariga (mehnatga layoqatsizlik varaqasiga asosan) nafaqa beriladi.

Oilaning kasal bo'lgan a'zosiga qarash bo'yicha vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bemor birovning parvarishiga muhtoj bo'lgan, lekin 7 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

O'n to'rt yoshga yetmagan bemor bolaga qarash uchun vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi bolaga parvarish kerak bo'lgan, ammo 14 kalendar kunidan oshmagan davr uchun beriladi.

Agarda xodim karantin vaqtida sanitariya-epidemiologiya xizmati organlari tomonidan atrofidagi shaxslar orqali yuqumli kasallikka chalinish xavfining oldini olish maqsadida ishdan chetlatilgan bo'lsa to'lanadi.

Mavsumiy va vaqtinchalik ishlarda band bo'lgan xodimlarga mehnatda mayiblanish yoki kasb kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik, homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa umumiy asoslarda, boshqa sabablar oqibatidagi vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mavsumiy yoki vaqtinchalik ish to'g'risida tuzilgan mehnat shartnomasida ko'rsatilgan ish kunlari doirasida to'lanadi.

Ishlayotgan nogironlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari, ketma-ket ikki oydan va kalendar yilda uch oydan oshmagan muddatga beriladi.

Ishlayotgan Ikkinchi Jahon urushining nogironlariga va imtiyozlari jihatdan ularga tenglashtirilgan boshqa nogironlarga, Chernobil AESdagi falokat yoki uning oqibatlarini bartaraf etish

bo'yicha ishlarni bajarish bilan bog'liq sabablarga ko'ra, nogiron bo'lgan shaxslarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi (mehnatda mayiblanish hodisalari yoki kasb kasalligidan tashqari), ketma-ket to'rt oygacha yoki kalendar yilda besh oygacha beriladi.

Agar ishlovchi nogironning vaqtinchalik mehnatga qobiliyatsizligi mehnat qilayotganda mayiblanish yoki kasb kasalligi tufayli mayiblanish yuz bersa, nafaqa fuqaro to'la sog'ayguniga qadar yoki mehnatda mayiblanish, kasb kasalligi bilan bog'liq nogironlik guruhi qayta ko'rib chiqilgunga qadar to'lanadi.

Sil kasalligi oqibatida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa, shaxs to'la sog'aygunga qadar, lekin ko'pi bilan 10 oyga beriladi.

Xodim sil kasalligi bilan qayta kasallanganda yoki sil kasalligi oqibatida nogiron deb hisoblanganda nafaqa ko'pi bilan 6 oyga beriladi.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-mayda ro'yxatga olingan „Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom“ga ko'ra vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik quyidagi davrlarga to'g'ri kelganda nafaqa to'lanmaydi:

- ish haqi saqlanmagan ta'til;
- bolani parvarishlash bo'yicha ta'til;
- ish vaqtincha to'xtatilganda;
- xodim ishdan (lavozimdan) chetlashtirilib, ish haqi to'lash to'xtatib qo'yilganligi sababli ishlamagan;
- harbiy o'quv yoki tekshiruv yig'ini;
- ishlab chiqarishdan ajralmagan holda o'quv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qo'shimcha ta'til.

Ushbu davrlarda boshlanib, davom etayotgan mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi xodim ishga chiqishi (lavozimga tiklanishi) lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi hollarda berilmaydi:

- ishdan yoki boshqa vazifalardan bo'yin tovlash maqsadida o'z salomatligiga ataylab ziyon yetkazgan yoxud o'zini kasallikka solganda;
- giyohvandlik yoki mastlik bilan bog'liq harakatlar oqibatida, shuningdek, spirtli va giyohvandlik moddalarini iste'mol qilish natijasida kasallikka chalinganda (jarohatlanganda);
- jinoyat sodir qilish vaqtida jarohatlanganda;

- sud qarori asosida majburiy davolanishga yuborilganda (ruhiy kasallardan tashqari);
- hibsda bo'lgan davrda;
- sud-tibbiyot ekspertizasidan o'tish davrida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlanishidan oldin uzrsiz sabablarga ko'ra ishga kelmagan, ular uchun shifokor belgilagan tartibni buzgan yoki uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda shifokor ko'rigiga yoki tibbiy-mehnat ekspertiza komissiyasiga (TMEK) kelmagan xodimlar qoidani buzish ro'y bergan kundan boshlab korxonaning Ijtimoiy sug'urta bo'yicha komissiyasi belgilaydigan muddatga nafaqadan mahrum qilinadilar.

Yuridik shaxs bo'lmagan tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanuvchi shaxslar hamda dehqon xo'jaligi a'zolari, Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasiga sug'urta badallarini to'lamagan, shifokor belgilagan tartibni buzgan yoki uzrsiz sabablarga ko'ra belgilangan muddatda shifokor ko'rigiga yoki TMEKga kelmagan hollarda, buzish sodir bo'lgan kundan boshlab ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan belgilangan muddatga nafaqadan mahrum qilinadilar.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi ish stajining davomiyligidan qat'i nazar ish haqining 100 foizi miqdorida quyidagilarga to'lanadi:

- ishlayotgan Ikkinchi Jahon urushi qatnashchilariga;
- baynalmilal jangchilarga va ularga tenglashtirilgan boshqa shaxslarga;
- qaramog'ida 16 yoshga (o'quvchilar 18 yoshga) yetmagan uch yoki undan ortiq bolalari bo'lgan xodimlarga;
- Chernobil AESdagi avariya oqibatlarini tugatishda qatnashgan xodimlarga;
- Chernobil AESdagi avariya natijasida radioaktiv ifloslanish zonasidan evakuatsiya qilingan va ko'chirilgan, qon hosil qiluvchi organlar kasalliklari (o'tkir leykoz), qalqonsimon bez va xavfli o'smalar (adenoma, rak) bilan bog'liq kasalliklarga chalingan xodimlarga;
- mehnatda mayiblanish va kasb kasalligi natijasida vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik paydo bo'lgan xodimlarga.

Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklar (sil kasalligi, onkologiya kasalliklari, yangidan paydo bo'ladigan xatarli o'simlar, jinsiy yo'l bilan o'tadigan kasalliklar, SPID, moxov (lepra) kasalligi, ruhiy kasalliklar) bo'yicha hisobda turgan

xodimlarga ular tomonidan davlat ijtimoiy sug'urta badali to'lagan davrining (umumiy ish stajining) davomiyligiga bog'liq ravishda vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik nafaqasi quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

a) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga ish haqining 100 foizi miqdorida;

b) umumiy ish staji 5 yildan 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga — ish haqining 80 foizi miqdorida;

d) umumiy ish staji 5 yilgacha bo'lgan xodimlarga — ish haqining 60 foizi miqdorida.

Qonun hujjatlarida ko'zda tutilgan xodimlardan tashqari qolgan xodimlarga vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

a) umumiy ish staji 8 yil va undan ortiq bo'lgan xodimlarga hamda 21 yoshga yetmagan chin (sag'ir) yetimlarga — ish haqining 80 foizi miqdorida;

b) umumiy ish staji 8 yilgacha bo'lgan xodimlarga — ish haqining 60 foizi miqdorida.

Tegishli hollarda tayinlangan vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa quyidagi miqdorlarda to'lanadi:

a) O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlari safidagi muddatli xizmatdan bo'shatilgandan so'ng bir oy ichida kasal bo'lib qolgan sobiq harbiy xizmatchilarga — respublikada belgilangan eng kam ish haqi miqdorida;

b) boshqa hollarda — ish haqining 60 foizi miqdorida.

Vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik bo'yicha nafaqa barcha hollarda belgilangan eng kam ish haqidan kam bo'lmasligi va nafaqa hisoblab chiqarilgan ish haqidan yuqori bo'lmasligi lozim.

Nafaqa miqdori vaqtincha mehnatga qobiliyatsizlik boshlangan kungacha, mehnat daftarchasi yoki uning o'rniga berilgan boshqa hujjat, shuningdek, ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan berilgan ma'lumotnoma asosida hisoblangan umumiy ish stajiga muvofiq aniqlanadi.

2. *Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa.* Ishlayotgan ayollarga 70 kalendar kunidan iborat homiladorlik ta'tili va bola tug'ilgach 56 kalendar kuni (egizak bola tug'ilsa yoki tug'ish og'ir kechgan hollarda 70 kalendar kuni) miqdorida homiladorlik va tug'ish ta'tili beriladi. Ushbu ta'til davrida ayolning ish joyi (lavozimi) saqlanib qolinadi hamda ularga ushbu davr uchun davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan nafaqa beriladi.

„Davlat ijtimoiy sugʻurta boʻyicha nafaqalar tayinlash va toʻlash tartibi toʻgʻrisidagi Nizom“ga muvofiq homiladorlik va tugʻish boʻyicha nafaqani tayinlash va toʻlash uchun belgilangan tartibda berilgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi asos boʻladi.

Homiladorlikning 30 haftasigacha roʻy bergan tugʻuruqlar chogʻida homiladorlik va tugʻish boʻyicha mehnatga layoqatsizlik varaqasi DPM tomonidan tirik bola tugʻilgan hollarda 126 kalendar kuniga beriladi, bolaning oʻlik tugʻilishi yoki bolaning tugʻuruq sodir boʻlgandan keyin dastlabki 168 soat (7 kun) davomida vafot etishi hollarida esa mehnatga layoqatsizlik varaqasi 70 kalendar kuniga beriladi.

Onaning tugʻuruq chogʻida yoki tugʻuruqdan keyingi davrda vafot etishi hollarida qolgan kunlarga boʻlgan mehnatga layoqatsizlik varaqasi yangi tugʻilgan bolani parvarish qilishni amalga oshirayotgan shaxsga beriladi.

Bevosita tugʻuruqxonadan yangi tugʻilgan chaqaloqlarni farzandlikka olgan yoki ularga vasiylik qilishni zimmasiga olgan shaxslarga mehnatga layoqatsizlik varaqasi bola farzandlikka olingan (vasiylik tayinlangan) kundan boshlab ellik olti kun oʻtgunga qadar beriladi. Ikki yoki undan ortiq yangi tugʻilgan chaqaloqlarni farzandlikka olish (vasiylikning tayinlanishi) hollarida mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoki maʼlumotnoma bola tugʻilgan kunidan boshlab 70 kalendar kuniga beriladi.

Homilador ayol homiladorlik va tugʻish taʼtilini rasmiylashtirish uchun oʻz vaqtida murojaat qilmagan hollarda mehnatga layoqatsizlik varaqasi, agar murojaat qilish tugʻuruq kunidan boshlab 6 oydan kechiktirmay amalga oshirilgan boʻlsa, murojaat qilish kunidan eʼtiboran beriladi.

Homiladorlik va tugʻish boʻyicha berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi yoʻqolgan hollarda nafaqa uning oʻrniga takroriy berilgan vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi (dublikat) asosida beriladi.

Homiladorlik va tugʻish boʻyicha nafaqa (shu jumladan, homila tushgan hollarda) vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida koʻrsatilgan barcha davr uchun toʻlanadi.

Ishni vaqtinchalik toʻxtatish yoki ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oʻquv yurtlarida tahsil olish munosabati bilan berilgan qoʻshimcha taʼtil davrida, homiladorlik va tugʻish boʻyicha taʼtil berilgan holda, nafaqa koʻrsatilgan davr tugagandan keyin ayol taʼtilga chiqishi lozim boʻlgan kundan boshlab beriladi.

Xodim yillik (asosiy va qo'shimcha) ta'tilda va bolani parvarishlash uchun ta'tilda bo'lgan vaqtda homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til berilganda, nafaqa homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'tilning vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasida ko'rsatilgan barcha kunlari uchun beriladi. Bolani parvarishlash bo'yicha ta'til davri uchun nafaqa tarif stavkasidan (lavozim maoshidan) va ta'til boshlanishidan oldingi 12 oy mobaynida olingan mukofotlarning o'rtacha oylik summasidan hisoblab chiqariladi. Bunda vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi ochilgan kuniga bo'lgan tarif stavkasi joylarda belgilangan tuman koeffitsiyenti va ustalarni hisobga olgan holda olinadi.

Ish haqi to'lash to'xtatilib, ishdan (lavozimdan) chetlashtirish oqibatida ayol ishlamagan davrida homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til uchun mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilgan holda nafaqa to'lanmaydi. Agar homiladorlik va tug'ish bo'yicha ta'til ishga qo'yilgandan keyin ham davom etadigan bo'lsa, nafaqa u ishga chiqishi lozim bo'lgan kundan boshlab beriladi.

Homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa ish haqining 100 foizi miqdorida beriladi.

3. *Bola tug'ilganda beriladigan nafaqa (suyunchi puli).* „Davlat ijtimoiy sug'urta bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom“ga ko'ra:

bola tug'ilgandan so'ng beriladigan bir martalik nafaqa O'zbekiston Respublikasi hududida belgilangan eng kam oylik ish haqining ikki baravari miqdorida beriladi;

ish haqiga koeffitsiyent qo'llaniladigan tumanlarda nafaqa ushbu koeffitsiyentlarni hisobga olgan holda belgilanadi;

ishlayotgan ayollarga hamda ishlab chiqarishdan ajralgan holda oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida tahsil olayotgan ayollarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa tegishli ish yoki o'qish joyidan to'lanadi;

bolaning onasi ishlaydigan va o'qimaydigan hollarda nafaqa bolaning ishlaydigan yoki ishlab chiqarishdan ajralgan holda o'qiydigan otasi yoki ota-ona o'rnini bosuvchi shaxslarga to'lanadi;

ishlamaydigan va o'qimaydigan ota-onalarga bola tug'ilganda nafaqa Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasining tuman (shahar) bo'limlari tomonidan tayinlanadi va to'lanadi;

farzandlikka olingan bolalarga bola tug'ilganda beriladigan bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi;

agar ayol homiladorlik bo'yicha ta'til davrida ishdan bo'shab, shu davr mobaynida homiladorlik va tug'ish bo'yicha nafaqa olgan bo'lsa, bir martalik nafaqa umumiy asoslarda beriladi;

bola o'lik tug'ilgan hollarda nafaqa to'lanmaydi.

4. *Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa.* O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 230-moddasiga ko'ra:

Nogiron bolasini tarbiyalayotgan ota-onaning biriga (vasiyga, homiyga) bola o'n olti yoshga to'lgunga qadar davlat ijtimoiy sug'urtasi mablag'lari hisobidan bir kunlik ish haqi miqdorida haq to'lagan hamda oyiga qo'shimcha bir dam olish kuni beriladi.

Ishlayotgan ota-onaning biri (vasiy, homiyni) nogiron bolani tarbiyalayotganligi haqida bergan arizasi hamda uni tasdiqlovchi hujjat asosida ish beruvchi buyruq chiqaradi va ushbu huquqdan foydalanayotgan ota yoki ona (homi, vasiy) bilan kelishib, har oyning aniq sanasida bir kun qo'shimcha dam olish kuni berilishi belgilanadi.

Nogiron bolalarni tug'uruq bo'limlari (chaqaloqlar, bolalar uylari)dan farzandlikka olgan shaxslarga ham ushbu nafaqa tayinlanaveradi.

5. *Dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa.* O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 288-moddasiga muvofiq: Sug'urta qilingan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etganda qonun hujjatlarida belgilangan miqdorda va tartibda dafn etish marosimi uchun nafaqa to'lanadi.

„Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalarni tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi Nizom“ hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 14-iyundagi 174-sonli qarori bilan tasdiqlangan „Dafn etishga nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom“da mazkur nafaqani tayinlash asoslari, shartlari, tartibi bu nafaqani olish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi belgilab berilgan.

Nizomning 5-bandiga ko'ra „Nafaqa marhumning eriga (xotiniga), ota-onasiga, farzandlariga va boshqa qarindoshlariga yoki marhumning qonuniy vakiliga, bunday shaxs bo'lmagan taqdirda esa — dafnni amalga oshirish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa shaxsga tayinlanadi va to'lanadi“.

Dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan shaxs deganda marhumning eri (xotini), ota-onasi, farzandlari va boshqa qarindoshlari yoki qonuniy vakili, bunday shaxslar bo'lmagan taqdirda esa — dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan boshqa jismoniy shaxslar nazarda tutiladi.

Marhum harbiy xizmatchilar, harbiy yig'inlarga chaqirilgan fuqarolar, ichki ishlar organlarining harbiy xizmatni o'tashda (harbiy yig'inlar), ichki ishlar organlaridagi xizmatni o'tashda vafot etgan xodimlarga yoki tinch davrda jarohat (yaralanish, jarohat, kontuziya) natijasida vafot etgan xodimlarga, shuningdek, xizmatda bo'lishning cheklangan yoshiga to'lgandan keyin, salomatligining holatiga ko'ra yoxud tashkiliy-shtat tadbirlari munosabati bilan harbiy xizmatdan yoki ichki ishlar organlaridagi xizmatdan bo'shatilgan marhum fuqarolar mazkur Nizomda nazarda tutilgan tartibda emas, balki tegishli marhum harbiy xizmatni (harbiy yig'inlarni) o'tagan, ichki ishlar organlarida xizmat qilgan vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralar mablag'lari hisobiga amalga oshiriladi.

Dafn etish nafaqasi fuqarolarga quyidagi hollarda tayinlanadi va to'lanadi:

- a) davlat pensiyasi oluvchi pensioner;
- b) davlat ijtimoiy nafaqasini oluvchi fuqaro;
- d) xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi;
- e) bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etganda yoki o'lik bola tug'ilganda (perinatal o'lim);
- f) ish bilan band bo'lgan yoki band bo'lmagan shaxs, fuqarolarning ayrim toifalariga tegishli bo'lgan shaxs yoki bola vafot etgan taqdirda.

Dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan va marhumning dafn etilishini tashkil etgan yuridik shaxslarga nafaqa to'lanmaydi.

Nafaqa — unga bo'lgan huquq yuzaga kelgan kundan boshlab 6 oy mobaynida murojaat qilish mumkin va ushbu muddatning uzrli sabablarsiz o'tkazib yuborilishi nafaqa olishga bo'lgan huquqning barham topishiga olib keladi.

Pensioner vafot etgani taqdirda u olishi lozim bo'lgan va pensionerning vafoti munosabati bilan olinmay qolgan pensiya puli meros tarkibiga kiritilmasdan boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi bilan ta'minlanadigan shaxslarga to'lanadi. Ota-onasi, eri (xotini), shuningdek, pensioner bilan vafot etgan kunigacha birgalikda yashagan oila a'zolari bu pulni boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi

bilan ta'minlanadiganlar doirasiga kirmaganlari taqdirida ham olish huquqiga ega bo'ladilar.

Pensioner vafot etgan oy uchun olinmay qolgan pensiya puli ko'rsatib o'tilgan oila a'zolariga oyning u vafot etgunga qadar o'tgan kunlari uchun to'lanadi.

Oilaning bir necha a'zosi murojaat etgan taqdirda pensiya ularga tegishli summasi ularning o'rtasida teng taqsimlanadi.

Pensioner vafot etgan taqdirda uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan oz bo'lmagan miqdorda dafn etish nafaqasi to'lanadi.

Ko'rsatib o'tilgan pullar, ularni olish uchun pensioner vafot etganidan keyin 6 oy ichida murojaat etilsa, nafaqa to'lanadi:

— davlatdan ijtimoiy nafaqa oluvchi fuqaro; xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi; bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etganda yoki o'lik bola tug'ilganda (perinatal o'lim); ish bilan band bo'lgan yoki band bo'lmagan shaxs, fuqarolarning ayrim toifalariga tegishli bo'lgan shaxs yoki bola vafot etgan taqdirda dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan shaxsga eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida nafaqa to'lanadi.

Xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi vafot etgan taqdirda nafaqa uni tayinlagan tashkilot tomonidan to'lanadi, keyinchalik ko'rsatib o'tilgan sarf-xarajatlar qonun hujjatlariga muvofiq O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi mablag'lari hisobiga qoplanadi.

Ish haqiga tuman koeffitsiyenti belgilangan tumanlarda va joylarda nafaqa miqdori tuman koeffitsiyentlari hisobga olinmasdan belgilanadi. Nafaqa qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ishonchnoma bo'yicha to'lanishi mumkin. Nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza marhumning yashash joyidagi Pensiya jamg'armasi bo'limiga beriladi.

Dafn etish majburiyatini zimmasiga olgan shaxsning quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda berilgan arizasi nafaqa to'lash uchun asos hisoblanadi:

— FHDY organi tomonidan berilgan o'lim to'g'risidagi guvohnoma nusxasi va o'lim to'g'risidagi ma'lumotnomaning asl nusxasi. O'lik bola tug'ilganda yoki bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etgan taqdirda (perinatal o'lim) qonun hujjat-

larida belgilangan tartibda berilgan perinatal o'lim to'g'risidagi ma'lumotnomaning asl nusxasi;

— ariza beruvchining pasporti nusxasi;

— o'lik bola tug'ilganda yoki bola hayotining birinchi haftasi mobaynida vafot etgan taqdirda perinatal o'lim to'g'risidagi ma'lumotnoma belgilangan tartibda ikki nusxada rasmiylashtiriladi.

Nafaqa tayinlash rad etilgan taqdirda Pensiya jamg'armasi bo'limiga murojaat qilingan kunda, rad etish sabablari va qabul qilingan qaror yuzasidan shikoyat qilish tartibi ko'rsatilgan, ariza beruvchi taqdim etgan barcha hujjatlarning asl nusxalari ilova qilingan holdagi bildirishnomani ariza beruvchining qo'lga beradi yoki unga pochta orqali jo'natadi.

Ariza beruvchi nafaqa tayinlash yoki nafaqa tayinlashni rad etish to'g'risidagi qaror yuzasidan bevosita sudga yoki Pensiya jamg'armasi bo'limining yuqori organiga shikoyat qilishi mumkin.

Xodim yoki uning qaramog'idagi oila a'zosi vafot etgan taqdirda nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza tashkilot ma'muriyatiga beriladi.

Nafaqa xodimning asosiy ish joyi bo'yicha tashkilotning ijtimoiy sug'urta komissiyasi (keyingi o'rinlarda komissiya deb ataladi) tomonidan tayinlanadi. Komissiya tashkilot tarkibi va raisi tashkilot rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi.

Komissiyalar bo'lmagan tashkilotlarda nafaqa tashkilot rahbarining buyrug'i bilan bunday vakolat berilgan shaxs tomonidan tayinlanadi.

Nafaqa tayinlashni so'rab ish beruvchiga berilgan arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilingan holda berilgan ariza nafaqa tayinlash uchun asos hisoblanadi:

a) qonun hujjatlarida belgilangan tartibda FHDY organi tomonidan berilgan o'lim to'g'risidagi guvohnoma nusxasi va o'lim to'g'risidagi ma'lumotnomaning asl nusxasi;

b) xodimning qaramog'idagi oila a'zosi vafot etgan taqdirda — fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi ma'lumotnomasi yoki marhumning xodim bilan qarindoshligi darajasini tasdiqlaydigan hujjat (tug'ilish haqidagi guvohnoma, nikoh to'g'risidagi guvohnoma va boshqalar);

d) ariza beruvchi pasportining nusxasi.

Tashkilotda, uning rahbariyati tasdiqlaganidek, mablag'lar yo'qligi yoki yetarli emasligi tufayli nafaqa to'lash mumkin bo'lmagan, shuningdek, nafaqa tayinlash uchun murojaat qilingan

muddat mobaynida tashkilot tugatilgan taqdirda nafaqa Pensiya jamg'armasi bo'limi tomonidan tayinlanadi.

Nafaqaning asossiz va noqonuniy to'lanishi holatlari aniqlangan taqdirda ariza beruvchiga to'langan nafaqa summasi sud tartibiga ko'ra undiriladi.

Ana shunday holatlarni bartaraf etish maqsadida fuqarolar o'rtasida qonunchilik targ'ibotini kuchaytirish, fuqarolarimizga o'z haq-huquqlari va uning amalga oshirilishi haqida kerakli ma'lumotlarni berish, ularning huquqiy bilim va saviyalarini oshirish ustida muntazam ish olib borish dolzarb vazifalardan ekanini qayd etishni lozim deb o'ylaymiz.

Dafn etish marosimi uchun nafaqa xodim yoki uning qaramog'ida bo'lgan quyidagi oila a'zolari vafot etganda beriladi:

a) turmush o'rtog'i;

b) 18 yoshga to'lmagan yoki vaqtincha mehnatga qobiliyatsiz (yoshidan qat'i nazar) bolalari, aka-ukalari va opa-singillari;

d) ota-onasi;

e) bobosi yoki buvisi.

Yashash uchun mustaqil mablag' manbayiga ega bo'lgan (ish haqi, pensiya, stipendiya oluvchi, shirkat xo'jaligining mehnatga qobiliyatli a'zolari hisoblanuvchi va hokazo) oila a'zolari qaramog'ida turgan deb hisoblanmaydi.

Xodim vafot etganda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oila a'zolariga yoki dafn o'tkazishni o'z zimmasiga olgan shaxslarga beriladi.

Oilaning vafot etgan a'zosini dafn etish marosimi uchun nafaqa ishlovchi xodimga beriladi.

Ayolning homilasi tushgan hollarda dafn etish marosimi uchun nafaqa berilmaydi.

Dafn etish marosimi uchun nafaqa eng kam oylik ish haqining uch baravari miqdorida beriladi.

Ishlamaydigan pensioner vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa uning oilasiga yoki pensionerning dafn marosimini o'tkazgan shaxsga ikki oylik pensiya miqdorida, lekin eng kam oylik ish haqining ikki hissasidan kam bo'lmagan miqdorda, ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan to'lanadi.

Ish haqiga rayon koeffitsiyenti belgilangan joylarda dafn etish marosimi uchun nafaqa miqdori ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lmagan tarmoqlar uchun beriladigan tuman koeffitsiyentini hisobga olgan holda aniqlanadi.

Muddatli harbiy xizmatga chaqirilgan xodim yoki uning oila a'zosi vafot etgan taqdirda dafn etish marosimi uchun nafaqa, agar unga so'nggi ish haqi to'langan kundan bir oydan ko'p vaqt o'tmagan bo'lsa beriladi.

Oliy, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalarida, tahsil olayotgan shaxslar, shuningdek, ularning oila a'zolari vafot etgan taqdirda, dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda to'lanadi.

Maktablar, kurslarning (kadrlar malakasini oshirish, qayta tayyorlash va tayyorlash bo'yicha), shuningdek, malaka oshirish institutlari o'quvchilari va tinglovchilari yoki ularning oila a'zolari vafot etganda, agar ular kurslarga, maktablarga, institutlarga korxona tomonidan yuborilgan bo'lsalar va ularning o'qish davridagi ish haqi to'la yoki qisman saqlanib qolgan bo'lsa, dafn etish marosimi uchun nafaqa umumiy asoslarda beriladi.

KALIT SO'ZLAR. Nafaqa. Davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalari. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi. Homiladorlik va bola tug'ilish davri uchun nafaqa. Bir martalik nafaqa. Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa. Dafn etish nafaqasi. Davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalarini tayinlash va hisoblash.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Nafaqa tushunchasiga ta'rif bering va ularning pensiyalardan farqini ko'rsating.
2. Davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalari haqida nimalarni bilasiz?
3. Davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalarini tayinlash va to'lashga oid qanday qonun hujjatlarini bilasiz?
4. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlikni ekspertiza qilish tartibi qanday?
5. Vaqtincha mehnatga layoqatsizlik varaqasi berilish tartibi qaysi qonun hujjati bilan belgilanadi?
6. Homiladorlik va tug'ish nafaqasi berilish tartibi va muddatlari haqida nimalarni bilasiz?
7. Bir martalik nafaqa (suyunchi puli) nima?
8. Qo'shimcha dam olish kuni uchun nafaqa kimlarga beriladi?
9. Davlat ijtimoiy sug'urtasi nafaqalarini hisoblash va to'lash tartibi qanday?

XIII BOB. IJTIMOIIY NAFAQALAR BILAN TA'MINLASH

13.1. Budjet hisobidan tayinlanadigan nafaqalar va boshqa moddiy yordamlar

Mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolarni ijtimoiy ta'minlash maqsadida nafaqalar tayinlash O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-apreldagi 107-sonli „Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga hamda „O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida“gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida“ qarorida nazarda tutilgan¹. Ushbu qarorga binoan ish staji mavjud bo'lmagan hollarda qarilik, nogironlik va boquvchisini yo'qotganlik nafaqalarini tayinlash va to'lash shartlari hamda tartiblari belgilab berilgan.

Yuqoridagi qaror bilan tasdiqlangan „Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan qariyalarga va mehnatga layoqatsiz fuqarolarga nafaqalar tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom“ qarilik, nogironlik va boquvchisiz qolganlik nafaqalarini tayinlashni nazarda tutadi.

Yosh bo'yicha nafaqa. Yosh bo'yicha nafaqa ish stajiga ega bo'lmagan yoki yoshga doir pensiya tayinlash uchun 5 yildan kam, pensiya tayinlash uchun yetarli ish stajiga ega bo'lmagan, va Oila kodeksiga ko'ra ularni boqishga majbur bo'lgan yaqin qarindoshlari bo'lmagan shaxslarga tayinlanadi:

- erkaklarga — 65 yoshga yetganlarida;
- ayollarga — 60 yoshga yetganlarida.

Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tomonidan amalga oshirilgan tekshiruv natijalariga ko'ra nafaqa so'rab murojaat etgan shaxs qarindoshlarining moddiy nochorligi aniqlangan hollarda nafaqa o'zlarining keksa qarindoshlariga moddiy yordam ko'rsata olmaydigan qarindoshlar bor bo'lgan taqdirda ham tayinlanishi mumkin.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011-yil, 14-son, 142-modda.

Haq to'lanadigan ish bajara oladigan yoki boshqa daromad manbayiga ega bo'lgan shaxslarga nafaqa tayinlanmaydi.

Pensiya jamg'armasi tuman bo'limi tomonidan mahalla fuqarolar yig'ini bilan birgalikda o'tkazilgan tekshirish natijalari nafaqa tayinlash yoki uni rad etish uchun asos bo'ladi.

Qarilik nafaqasining miqdori qat'iy summada belgilanadi va hayot darajasiga mutanosib tarzda indeksatsiya qilib boriladi.

Nogironlik nafaqasi. Nogironlik bo'yicha nafaqa nogironlik sodir bo'lgan hollarda, ya'ni mehnat qobiliyati doimiy yoki uzoq muddatga yo'qotilganda, faqat birinchi va ikkinchi guruh nogironlariga tayinlanadi va to'lanadi.

Fuqarolarning mehnat qobiliyatlarini yo'qotganlik darajasini aniqlash uchun tibbiy tekshirishni faqat tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) ular haqidagi Nizom asosida shahar yoki tuman Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi yo'llanmasi bo'yicha amalga oshiradilar.

Ishlab turgan yoki yashashning boshqa manbalariga ega bo'lgan I va II guruh nogironlariga nafaqa tayinlanmaydi.

Boquvchisini yo'qotganlik bo'yicha nafaqa. Pensiya tayinlash uchun zarur bo'lgan ish stajiga ega bo'lmagan shaxs vafot etgan taqdirda uning qaramog'ida bo'lgan oila a'zolari nafaqa olish huquqiga egadirlar.

Oilaning mehnatga layoqatsiz a'zolari qatoriga „Fuqarolarning davlat pensiya ta'minoti to'g'risida“ O'zbekiston Respublikasi qonunining 19-moddasida ko'rsatilgan shaxslar kiritiladilar.

Vafot etganning oila a'zolariga nafaqalar miqdori quyidagicha belgilanadi:

a) oilaning uch va undan ortiq mehnatga layoqatsiz a'zosiga — vafot etgan fuqaro olgan yoki olish huquqiga ega bo'lgan yoshga doir nafaqaning 100 foizi;

b) oilaning mehnatga layoqatsiz ikkita a'zosiga — nafaqaning 75 foizi;

d) oilaning mehnatga layoqatsiz bir a'zosiga — nafaqaning 50 foizi.

Ijtimoiy ta'minot nafaqasi (nafaqalari)ni olish huquqiga ega bo'lgan fuqarolar shu huquq paydo bo'lgandan so'ng muddat bilan cheklashsiz istalgan vaqtda uning tayinlanishi uchun murojaat qilishlari mumkin.

Nafaqa tayinlash va to'lash shahar yoki tuman Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tomonidan amalga oshiriladi.

Nafaqa tayinlash to'g'risidagi arizani qabul qilib olgan ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan ariza beruvchiga ariza qabul qilingan sana ko'rsatilgan holda ariza va unga ilova qilingan hujjatlar qabul qilinganligi haqida tilxat beriladi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi (mazkur Nizomning 4-bandi).

Agar nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza pochta orqali yuborilsa hamda barcha zarur hujjatlar taqdim etilsa, ariza jo'natilgan joyning pochta shtempelida ko'rsatilgan sana nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda qanday hujjatlarni qo'shimcha ravishda taqdim etish kerakligi ariza beruvchiga ma'lum qilinadi. Agar bu hujjatlar qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish zarurligi to'g'risida bildirish olingan kundan boshlab 3 oydan kechikmay taqdim etilsa, nafaqa tayinlash to'g'risida ariza qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda taqdim etilgandan keyin 10 kundan kechikmay ko'rib chiqiladi.

Nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qiluvchi nafaqa tayinlashni rad etish haqidagi qaror ustidan yuqori turuvchi organga shikoyat qilishi mumkin, javobdan qoniqmagan taqdirda esa sudga shikoyat qilish huquqiga ega.

Tayinlangan, biroq oluvchi tomonidan o'z vaqtida talab etilmagan nafaqa summasi nafaqa olish uchun murojaat qilingandan oldingi o'tgan vaqt uchun ko'pi bilan uch yilga to'lanadi.

Nafaqa tayinlagan yoki nafaqa to'layotgan organning aybi bilan o'z vaqtida olinmagan nafaqa summasi o'tgan vaqt uchun biror-bir muddat bilan cheklashsiz to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan holda nafaqaning 12 oyga tegishli bo'lgan summasi bir yo'la to'lanadi, qolgan qismlari esa har oyda nafaqaning joriy qismiga qo'shimcha tarzda oylik nafaqadan oshmaydigan teng ulushlarda to'lanadi.

Tayinlangan nafaqa oilaning nafaqa tayinlashda hisobga olinadigan son tarkibi o'zgargan;

— ish haqining eng kam miqdori o'zgargan;

— rayon koeffitsiyenti belgilangan (bekor qilingan) yoki uning miqdori o'zgargan;

— aholi daromadlari indeksatsiya qilingan hollarda qayta hisoblab chiqiladi.

Nafaqalarni to'lash har oyda ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq nafaqa to'lanadigan oydan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Ishonchnoma bo'yicha nafaqa davlat pensiyasini ishonchnoma bo'yicha to'lash uchun belgilangan tartibda to'lanadi.

Nafaqa oluvchi O'zbekiston Respublikasidan tashqariga ko'chib ketganda nafaqa to'lash to'xtatiladi.

Bolalikdan nogironlar (nogiron bolalar)ga nafaqalar tayinlash. Bolalikdan nogironlarga nafaqa tayinlash va to'lash Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 24-apreldagi 107-sonli „Fuqarolarning davlat Pensiya ta'minoti to'g'risida“gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga hamda O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksiga o'zgartish va qo'shimchalar kiritish haqida“gi O'zbekiston Respublikasi qonunini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash haqida“ qarori bilan nazarda tutilgan¹.

Har oylik nafaqalarni olish huquqiga Tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (TMEK) tomonidan bolalikdan I yoki II guruh nogironlari deb tan olingan ish stajiga ega bo'lmagan 16 yoshdan katta bo'lgan shaxslar, shuningdek, Tibbiy maslahat komissiyasining xulosasiga ko'ra nogiron deb topilgan 16 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar nafaqa olish huquqini beruvchi tibbiy ma'lumotlar² mavjud bo'lgan taqdirda ega bo'ladilar.

Nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza bolalikdan I yoki II guruh nogironi bo'lgan fuqaroga yashash joyidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan beriladi.

Mehnatga layoqatsiz deb topilgan I yoki II guruh bolalikdan nogiron shaxsga, shuningdek, nogiron farzandga nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza ota-onalardan biri yoki vasiy tomonidan yashash joyi bo'yicha beriladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami. 2011-yil, 14-son, 142-modda.

² Qarang: „16 yoshgacha bo'lgan bolalarni nogiron deb topish haqida tibbiy xulosa berish tartibi to'g'risida“gi Nizom. „O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami“, 2009-yil, 38-son, 419-modda.

Vasiy ariza bilan murojaat qilgan hollarda vasiylik organining vasiy qilib tayinlash to'g'risidagi qarorining bir nusxasi ilova qilinadi.

Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limi I yoki II guruh bolalikdan nogironning arizasiga ular tomonidan Tibbiy mehnat-ekspert komissiyasidan olingan tekshirish dalolatnomasidan ko'chirmani ilova qiladi.

Nogiron bolaga nafaqa tayinlash chog'ida sog'liqni saqlash muassasalari tomonidan belgilangan tartibda beriladigan tibbiy xulosa taqdim etiladi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Agar nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza pochta orqali yuborilsa hamda barcha zarur hujjatlar taqdim etilsa, ariza jo'natilgan joyning pochta shtempelida ko'rsatilgan sana nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Arizaga barcha zarur hujjatlar ilova qilinmagan hollarda qanday hujjatlarni qo'shimcha ravishda taqdim etish kerakligi ariza beruvchiga ma'lum qilinadi. Agar bu hujjatlar qo'shimcha hujjatlarni taqdim etish zarurligi to'g'risida bildirish olingan kundan boshlab 3 oydan kechikmay taqdim etilsa, nafaqa tayinlash to'g'risida ariza qabul qilib olingan kun nafaqa tayinlash to'g'risida murojaat qilingan kun deb hisoblanadi.

Ariza barcha zarur hujjatlar bilan birgalikda taqdim etilgandan keyin 10 kundan kechikmay ko'rib chiqiladi.

Murojaat qiluvchi nafaqa tayinlashni rad etish haqidagi qaror ustidan yuqori organga shikoyat qilishi mumkin. Ariza beruvchi javobdan qoniqmagan taqdirda nizo belgilangan tartibda sud orqali hal etiladi.

Nafaqa murojaat qilingan kundan boshlab tayinlanadi.

I va II guruh bolalikdan nogironlarga nafaqa nogironlikning butun davriga tayinlanadi. Nogiron bolalarga nafaqa tibbiy xulosada belgilangan muddatga tayinlanadi.

Nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogironning yoxud nafaqa tayinlangan nogiron bolalarning ota-onalari yashaydigan joy bo'yicha tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan tayinlanadi va to'lanadi. Vasiylarga nafaqa ularning yashash joylari bo'yicha to'lanadi.

Nafaqalarni to'lash har oyda ijtimoiy ta'minot bo'limlari tomonidan belgilangan muddatlarda, biroq nafaqa to'lanadigan oydan keyingi oyning 5-kunidan kechikmay amalga oshiriladi.

Nafaqa to'lash uchun davlat pensiyasi ishonchnoma bo'yicha belgilangan tartibda bajariladi.

I yoki II guruh bolalikdan nogiron yoxud nogironlikni qayta tekshirishdan o'tkazish muddati kechiktirib yuborilganda nafaqa nogironlarga davlat pensiyasi tayinlash uchun nazarda tutilgan tartibda amalga oshiriladi.

Nafaqa oluvchi O'zbekiston Respublikasi hududi doirasida doimiy yashash uchun boshqa tuman (shahar)ga ko'chganda nafaqani to'lash yangi yashash joyi bo'yicha tegishli ijtimoiy ta'minot bo'limi tomonidan nafaqa oluvchining shaxsiy hujjatlar yig'majildi olingandan keyin mana shu tuman (shahar)da davom ettiriladi. Bunday holda nafaqa to'lash ilgarigi yashash joyi bo'yicha nafaqa to'lash to'xtatilgan vaqtdan boshlab davom ettiriladi.

Nafaqa to'lash to'xtatilishi yoki qayta tiklanishiga olib kelgan boshqa holatlar (I va II guruh bolalikdan nogiron yoki nogiron bola internat-uyga to'liq davlat ta'minotiga o'tkazilganda yoki undan qaytarib yuborilganda va shu kabilar) paydo bo'lganda nafaqa to'lash shu holat paydo bo'lgan oydan keyingi oyning 1-kunidan boshlab to'xtatiladi yoki tiklanadi.

Tayinlangan, biroq oluvchi tomonidan o'z vaqtida talab etib olinmagan nafaqa summasi nafaqa olish uchun murojaat qilingandan oldingi o'tgan vaqt uchun ko'pi bilan uch yilga to'lanadi.

Nafaqa tayinlangan yoki nafaqa to'layotgan organning aybi bilan o'z vaqtida olinmagan nafaqa summasi o'tgan vaqt uchun biror-bir muddat bilan cheklashsiz to'lanadi. Ko'rsatib o'tilgan holda nafaqaning 12 oyga tegishli bo'lgan summasi bir yo'la to'lanadi, qolgan qismlari esa har oyda nafaqaning joriy qismiga qo'shimcha tarzda oylik nafaqadan oshmaydigan teng ulushlarda to'lanadi.

Tayinlangan nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogironga u olayotgan ish haqi, stipendiya, aliment yoki daromadlarning boshqa turlaridan qat'i nazar to'lanadi.

Nogiron bolaga tayinlangan nafaqa boshqa nafaqalar olinishidan qat'i nazar to'lanadi.

Tayinlangan nafaqa I yoki II guruh bolalikdan nogiron yoki nafaqa tayinlangan nogiron bola to'liq davlat ta'minotida bo'lgan vaqt uchun to'lanmaydi.

Leprozoriylarda bo'lgan I va II guruh bolalikdan nogironlarga, shuningdek, nogiron bolaga nafaqa leprozoriylarda bo'lgan vaqt uchun to'lanadi.

Nogironlik nafaqasining miqdori qonun hujjatlariga binoan belgilanadi.

Bolalikdan nogironlarga nafaqalarni to'lash, yetkazib berish va yuborish xarajatlari respublika budjeti hisobiga amalga oshiriladi.

Bir yo'la beriladigan nafaqani olish uchun marhumning oila a'zolari yoki boshqa shaxslar marhum vafotidan boshlab 6 oy ichida vafot etgan shaxs nafaqa oluvchi sifatida hisobda turgan tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limiga murojaat qilishlari lozim.

Bunday nafaqani olish uchun:

a) vafot etganlik haqidagi ma'lumotnoma (asl nusxasi);

b) dafn etish arizachi tomonidan amalga oshirilgani haqida fuqarolar yig'ini ma'lumotnomasi bilan taqdim etiladi.

Fuqarolarga beriladigan boshqa turdagi nafaqalar. Fuqarolarga qonun hujjatlariga ko'ra boshqa shakldagi nafaqalarning ham to'lanishi nazarda tutilgan. Ular ijtimoiy ta'minot huquqi mavzusi doirasiga kirmasa-da, ammo aholini ijtimoiy jihatdan himoya qilishning, muayyan voqea-hodisalar bilan bog'liq tarzda yuz bergan noqulay sharoitlarda ularni moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashning muhim shakllaridan hisoblanadi. Ushbu nuqtayi nazardan qaraganda, mazkur nafaqa turlarini ham qisqacha ko'rib o'tish maqsadga muvofiq bo'ladi.

Bunday nafaqalar jumlasiga quyidagilarni kiritish mumkin:

1) ishsizlik nafaqasi;

2) ishdan bo'shash paytida beriladigan nafaqa;

3) yosh oilalarga beriladigan moddiy yordam;

4) ishlab chiqarishda yuz bergan baxtsiz hodisalar tufayli halok bo'lgan yoki sog'lig'iga shikast yetganda bir yo'la beriladigan nafaqa.

Ishsizlik nafaqasi. O'zbekiston Respublikasining 1998-yil 1-maydagi „Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida“gi qonunining 29-moddasiga ko'ra, Bandlikka ko'maklashish va aholini ijtimoiy muhofaza qilish tuman (shahar) markazlari tomonidan belgilangan tartibda ishsiz shaxs deb e'tirof etilgan fuqarolarga ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

Nafaqaning miqdori va to'lanishining eng uzoq muddati ham „Aholini ish bilan ta'minlash to'g'risida“gi qonunda va uning asosidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan¹.

Avval ishlagan, ishidan va ish haqi (mehnat daromadi)dan mahrum bo'lgan shaxslarga ular ishlagan davridagi ish haqining 50 foizi miqdorida, ammo eng kam oylik ish haqidan kam bo'lmagan hamda nafaqani hisoblash paytida O'zbekiston Respublikasida tarkib topgan o'rtacha ish haqidan ortiq bo'lmagan miqdorda ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

Harbiy xizmatdan, Ichki ishlar va Milliy xavfsizlik xizmatidan, boshqa harbiy organlardagi harbiy xizmatdan bo'shatilgan shaxslar avval ishlagan bo'lsalar, ish haqlarining 50 foizi miqdorida, avval ishlamagan shaxslarga ishsizlik nafaqasi eng kam oylik ish haqining 100 foizi miqdorida tayinlanadi.

Birinchi marta ish qidirayotgan va ishsizlik nafaqasi olish huquqiga ega bo'lgan shaxslarga eng kam oylik ish haqining 75 foizi miqdorida ishsizlik nafaqasi tayinlanadi.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga bir martalik moddiy yordamlar ham ko'rsatilishi mumkin.

Ishsizlik nafaqasi birinchi marta ish qidirayotgan shaxslarga bir kalendar yili davomida 13 haftagacha, avval ishlagan shaxslarga esa yil davomida 26 haftagacha bo'lgan muddat davomida to'lanishi mumkin.

Ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarga ishsizlik nafaqasini tayinlash va to'lash tartiblari O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998-yil 23-noyabrda ro'yxatga olingan „Ishsiz fuqarolarni ish bilan ta'minlashga ko'maklashuvchi davlat jamg'armasi mablag'laridan ajratiladigan moddiy yordam ko'rsatish tartibi, miqdori va shartlari to'g'risida“gi Nizomda ko'rsatib qo'yilgan.

Ishdan bo'shatilayotgan xodimlarga beriladigan nafaqa. O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksida nazarda tutilgan bo'lib, unga ko'ra muayyan sabablar bilan ishdan bo'shatila-

¹ Qarang: Mehnat vazirligining 1999-yil 24-apreldagi 2/4 sonli qarori bilan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 1999-yil 3-iyulda 763-son bilan ro'yxatga olingan „Mehnat organlarida ro'yxatga olingan va ishsiz deb e'tirof etilgan shaxslarni kasbga tayyorlash va qayta tayyorlash, ularning malakasini oshirish davrida stipendiyalar to'lash tartibi to'g'risida Nizom“. O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralari me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi. 1999-yil. 8-son.

yotgan shaxslarga ishdan bo'shatilayotganlarida bunday nafaqalarning berilishi belgilangan.

Mehnat kodeksining 109-moddasiga ko'ra: mehnat shartnomasi bekor qilingan quyidagi hollarda ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi:

— ish beruvchining tashabbusi bilan, xodim o'zining mehnat vazifalarini bajarmaganligi sababli shartnomaning bekor qilinishi bundan mustasno;

— taraflar ixtiyoriga bog'liq bo'lmagan, ushbu kodeksning 106-moddasi 1 va 2-bandlarida nazarda tutilgan holatlarga binoan. Mehnat shartnomasi ushbu kodeksning 106-moddasi 4-bandiga binoan bekor qilinganda ishdan bo'shatish nafaqasi to'lanadi, ishga qabul qilish yuzasidan belgilangan qoidalar xodimning aybi bilan buzilgan hollar (sudning muayyan lavozimni egallash yoki muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etish haqidagi hukmini yashirish, soxta hujjatlar taqdim etish va hokazo) bundan mustasno;

— xodim yangi mehnat shartlari asosida ishni davom ettirishni rad etganligi sababli (89-moddaning to'rtinchi qismi).

Ishdan bo'shatish nafaqasining miqdori o'rtacha oylik ish haqidan kam bo'lishi mumkin emas.

Ishdan bo'shatish nafaqasi o'rtacha oylik ish haqining saqlab qolinishi bilan hamda foydalanilmagan mehnat ta'tili uchun beriladigan yoki ishdan bo'shatilish haqida oldindan ogohlantirish o'rniga to'lanadigan kompensatsiya puli bilan almashtirib yuborilmasligi lozim. Ishdan bo'shatish nafaqasi yuqoridagi to'lovlar berilgan — berilmaganligidan qat'i nazar to'lanaverishi lozim.

Yosh oilalarga beriladigan moddiy yordam. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1999-yil 17-mayda 729-tartib raqami bilan ro'yxatga olingan „Moddiy jihatdan qo'llab-quvvatlashga muhtoj bo'lgan yosh oilalarga ko'rsatiladigan mablag'larni tashkil toptirish va sarflash tartibi to'g'risida“gi Nizom asosida ko'rsatiladi¹.

Ushbu Nizomga ko'ra yosh oilalarga bir martalik qaytarib olinmaydigan moddiy yordam shaklida, foiz olinmaydigan qarz berib turish tarzida yoki boshqa shakllarda moddiy ko'mak

¹ O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi. 1999-yil, 9-son.

berilishi mumkin. Ko'rsatiladigan beg'araz yordam miqdori, beriladigan foizsiz qarz, undan foydalanish tartibi va muddatlari yuqoridagi Nizom asosida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan belgilanadi.

Bunday yordamni olishda kelin yoki kuyov nogiron bo'lsa, qarindoshlari va boshqa yordam beruvchi yaqinlari bo'lmasa, kam ta'minlangan oilalardan bo'lsa, kelin yoki kuyov fuqarolar yig'ini faoliyatida muntazam ishtirok etsa, afzallikdan foydalana-dilar.

Yosh oila tomonidan moddiy yordam ko'rsatishni so'rab berilgan ariza fuqarolar yig'ini tomonidan belgilangan muddatda va tartibda ko'rib chiqiladi.

13.2. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan va to'lanadigan nafaqalar

Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga tayinlanadigan va to'lanadigan nafaqalar. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1996-yil 10-dekabrda 437-son qarori bilan tasdiqlangan Nizom asosida mazkur nafaqa tayinlanadi¹.

Ushbu nafaqani kam ta'minlangan, bolaligidan homiylikka (vasiylikka) olingan 16 yoshgacha (umumta'lim maktablarida, akademik litseylar va kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan 16 yoshdan 18 yoshgacha) bolalari bo'lgan oilalarga tayinlanadi va to'lanadi.

Nafaqa ota-onalardan birining shaxsiy arizasi asosida 6 oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi, ushbu muddat tugagach arizachi yangi muddatga nafaqa to'lashni davom ettirish to'g'risida ariza bilan murojaat qilish huquqiga ega. Nafaqa har oyda to'lanadi va undan soliq olinmaydi.

Doimiy yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga nafaqa tayinlash to'g'risida yozma ariza bilan murojaat qilgan hollarida esa ushbu organ raisi (oqsoqoli)ning taqdim-nomasiga binoan tayinlanadi.

Nafaqa tayinlash to'g'risidagi ariza ota yoki ona tomonidan oilaning yashash joyidagi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organining raisi nomiga yoziladi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Hukumatining qarorlari to'plami. 1996-yil, 12-son, 35-modda.

Oilaga nafaqa:

— bir bolali oilalar uchun — eng kam oylik ish haqining 50 foizi miqdorida;

— ikki bolali oilalar uchun — 100 foiz miqdorida;

— uch bolali oilalar uchun — 140 foiz miqdorida;

— to'rt va undan ko'p bolali oilalar uchun — 175 foiz miqdorida belgilanadi.

Agar belgilangan tartibda nafaqa tayinlash davr mobaynida o'zgarsa, nafaqa miqdori eng kam oylik ish haqining miqdori o'zgargan oydan boshlab tegishli ravishda ko'payadi;

— nogiron chaqaloqli (bolali) oilalar;

— ota-onasiz qolgan bolalarning tarbiyasi bilan qarindoshlari shug'ullanadigan oilalar;

— bolalarning ota-onasidan biri yoki ikkalasi ham nogiron bo'lgan oilalar;

— ota-onadan biri yoki ikkalasi ham ishsiz bo'lgan, Bandlikka ko'maklashish markazlarida ish qidiruvchi sifatida hisobda turgan oilalar nafaqa bilan ta'minlanishda imtiyozli huquqdan foydalanadilar.

Bolalari to'liq davlat ta'minotida bo'lgan oilalarga, agar oiladagi bolalarning hammasi ham to'liq davlat ta'minotida bo'lmasa, u holda nafaqa davlat ta'minotida bo'lmagan bolalarni hisobga olgan holda to'lanadi;

— ota-onasi qonunchilikda belgilangan tartibda ota-onalik huquqlaridan mahrum etilgan oilalarga;

— moddiy boyligi (daromadi) bolalarining jismoniy, aqliy va ma'naviy-axloqiy jihatdan maqbul rivojlanishini ta'minlash imkonini beradigan oilalarga nafaqa tayinlanmaydi.

Oilalarga nafaqa tayinlash va to'lash to'g'risidagi qaror shaharcha, qishloq, ovul fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) yoki fuqarolar yig'ini tomonidan shunday masalalarni hal etish uchun vakil qilingan Komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Nafaqa tayinlash uchun arizaga quyidagi hujjatlar qo'shib topshiriladi:

a) oila a'zolarining tarkibi to'g'risida yashash joyidan ma'lumotnoma;

b) bolalarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomalari nusxasi;

d) vasiylik (homiylilik)da bo'lgan bolalarga nafaqa tayinlash chog'ida vasiylik (homiylilik) huquqini belgilovchi organning qaroridan ko'chirma;

e) fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi talabiga ko'ra — oila a'zolarining daromadlari haqida ma'lumotnoma;

f) 16 dan 18 yoshgacha bo'lgan bolalarga mazkur shaxs haqiqatan ham o'quv yurtida o'qiyotganligi va stipendiya olmasligi to'g'risida o'quv yurtidan ma'lumotnoma.

Zarur bo'lgan hujjatlarning asl nusxalari yoki belgilangan tartibda tasdiqlangan ko'chirma nusxalari taqdim etilishi mumkin.

Arizalar maxsus ro'yxatga olish daftarida fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli)ning kotibi tomonidan amalga oshiriladi.

Oilaning nafaqaga muhtojligini aniqlash uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi huzurida maxsus komissiya tuziladi, uning tarkibi fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli) tomonidan tasdiqlanadi.

Komissiya tarkibiga o'zini o'zi boshqarish organining maslahatchilari va kotibi, tuman (shahar) hokimligi tomonidan vakil qilingan, nafaqalar tayinlash va ularni to'lashda fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organiga amaliy yordam ko'rsatuvchi tuman (shahar) „Bandlikka ko'maklashish markazi xodimi, shuningdek, zarurat bo'lganda tuman (shahar) soliq va moliya organlarining vakillari kiradi.

Maxsus komissiya nafaqa olish uchun murojaat qilgan oilaning moddiy va mulkiy ahvolini ariza berilgan sanadan boshlab ikki hafta muddatda tekshiradi hamda ko'rib chiqish asosida nafaqa tayinlash to'g'risida yoki nafaqa tayinlashni rad etish haqida fuqarolar yig'iniga ikki hafta muddatda taklif kiritadi.

Oilaning moddiy va mulkiy ahvolini tekshirish natijalari yuzasidan tekshirish dalolatnomasi tuziladi va unda quyidagilar majburiy tartibda ko'rsatilishi kerak:

- tekshirilayotgan oilaning tarkibi;
- tekshirilayotgan oila umumiy daromadining miqdori;
- oila a'zolari daromadlari shakllanishining asosiy manbalari;
- katta yoshdagi (mehnatga layoqatli) oila a'zolarining ish bilan ta'minlanganligi to'g'risida ma'lumotnoma.

Har bir oila a'zosiga to'g'ri keladigan oilaning umumiy daromadini aniqlash uchun barcha turdagi daromadlar qo'shib chiqiladi va hosil bo'lgan summa oila a'zolari soniga taqsimlanadi (daromadlar deganda: soliq solinadigan daromadlar, pensiyalar, stipendiyalar va ijtimoiy xususiyatga ega bo'lgan boshqa to'lovlar,

shuningdek, shaxsiy yordamchi xo'jalikdan olinadigan daromadlar hisobga olinadi). Ikki va undan ortiq oy uchun oila a'zolarining daromadlari hisobga olinishi kerak bo'lgan hollarda — hisobga olinishi kerak bo'lgan davr uchun oila a'zolarining umumiy daromadi oila a'zolarining soniga va mazkur davrdagi oylar soniga taqsimlanadi.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi mezonlarini va nafaqa tayinlash uchun asoslarni o'zini o'zi boshqarish organi schotlaridagi mablag'lar miqdoridan va nafaqaning belgilangan miqdorlaridan kelib chiqqan holda mustaqil ravishda belgilaydi.

Nafaqa tayinlash to'g'risida qaror qabul qilish chog'ida arizachining fuqarolar yig'inida (komissiya yig'ilishida) ishtirok etishi majburiydir. Arizachi uzrli sabab (kasallik yoki boshqa uzrli sabablar) bilan qatnashmagan hollarda fuqarolar yig'iniga oilaning balog'at yoshiga yetgan boshqa a'zosi qatnashishi shart. Arizachi yoki oilaning boshqa vakili qatnashmagan hollarda mazkur oilaga nafaqa tayinlash to'g'risidagi masala ko'rib chiqilmaydi va u fuqarolarning keyingi yig'inida (komissiya yig'ilishida) ko'rib chiqish uchun qoldiriladi.

Nafaqa tayinlash rad etilgan hollarda rad etish sababi ko'rsatiladi hamda tegishli qaror qabul qilingandan so'ng 5 kun muddatda arizachi bu haqda yozma ravishda xabardor qilinadi.

Mehnat faoliyatidan bo'yin tovlab yurgan va jamiyatga xilof ravishda turmush kechirayotgan ota-onalarning qarovsiz qolgan bolalariga ota-onalarining yozma arizalarisiz fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli)ning taqdimnomasiga binoan fuqarolar yig'ini tomonidan nafaqa tayinlanishi mumkin. Bunday hollarda nafaqa natura shaklida berilishi mumkin. Bunda komissiya a'zolaridan hisob beruvchi shaxs tayinlanadi.

Tayinlangan, ammo o'z vaqtida talab qilib olinmagan (to'lanmagan) nafaqalar o'tgan vaqt uchun to'liq miqdorda to'lanadi. Bunday hollarda nafaqa olinmagan barcha davr uchun nafaqa bir yo'la to'lanadi. Bunda agar arizachi mazkur nafaqaga zarurati bo'lmaganligidan uni o'z vaqtida olmaganligi aniqlansa, ya'ni oila nafaqaga muhtoj bo'lmasa, o'zini o'zi boshqarish organi raisi (oqsoqoli)ning taqdimnomasiga ko'ra, fuqarolar yig'ini yoki komissiya bundan keyin nafaqa berishni bekor qilish to'g'risida qaror qabul qilishi mumkin.

Kam ta'minlangan oilalarga ko'rsatiladigan moddiy yordam. Ijtimoiy yordamning bu shakli O'zbekiston Respublikasi Vazir-

lar Mahkamasining 1994-yil 24-avgustdagi 434-sonli qarori bilan tasdiqlangan (keyingi qo'shimcha va tuzatishlari bilan) „Kam ta'minlangan oilalarni hisobga olish, ularga moddiy yordam tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida Nizom“ga muvofiq amalga oshiriladi¹.

Kam daromadli oilalarga har oylik moddiy yordam tayinlash va uning miqdorini belgilash to'g'risidagi qaror, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari — qo'rg'on, qishloq, ovul va shahar mahallalari fuqarolarining yig'inlari, yuqoridagi masalalarni hal etish uchun vakil qilingan komissiya tomonidan qabul qilinadi.

Komissiya tarkibiga fuqarolar yig'ini (vakillar yig'ilishi) tomonidan ushbu hududda istiqomat qiluvchi eng obro'-e'tiborli va hurmatga sazovor fuqarolar orasidan saylanadi. Unga fuqarolar yig'inining raisi boshchilik qiladi. Komissiya a'zolari 2 yil muddatga, fuqarolar yig'ini raisi esa uning butun vakolati davriga saylanadi. Mazkur komissiya a'zolarining tarkibi kamida 20 kishidan iborat bo'lib, har yili ellik foizga yangilanadi.

Moddiy yordam oilaga olti oy muddatga tayinlanadi va to'lanadi. Ushbu muddat tugagach, agar oilada moddiy ahvol yaxshilanmagan bo'lsa, yordam yangi muddatga tayinlanishi mumkin.

Moddiy yordam fuqarolarning doimiy yashash joyidagi o'zini o'zi boshqarish organlariga yoki qo'rg'on, qishloq, ovul, mahallasiga yozma ravishda ariza bilan yordam so'rab murojaat qilgan oilalarga, ayrim hollarda esa fuqarolar yig'ini raisi (oqsoqoli)ning tavsiyasiga binoan tayinlanadi.

Arizachining moddiy yordamga muhtojlik darajasini va unga beriladigan oylik moddiy yordamning miqdorini belgilash uchun fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari huzurida maxsus komissiyalar tuziladi, uning tarkibiga ushbu organlarning maslahatchilari, kotibi, shuningdek, zarurat bo'lganda tuman (shahar) soliq hamda moliya organlarining, Bandlikka ko'maklashish markazlarining vakillari kiradilar.

Ariza berilgan kundan boshlab ikki hafta muddatda yordam so'ragan oilaning moddiy va mulkiy ahvolini tekshiradi.

¹ O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami, 1994-yil, 8-son, 40-modda.

Tekshiruv natijalari dalolatnoma bilan rasmiylashtiriladi, uni komissiyaning barcha a'zolari imzolaydilar. Dalolatnomada quyidagi ma'lumotlar aks ettiriladi:

— tekshirilayotgan oilaning tarkibi, unda birga yashovchilarning hammasi, qarindoshligi bo'lgan va birga umumiy ro'zg'or yurituvchilar hisobga olinadi;

— oilaning doimiy daromad manbayiga ega bo'lmagan va Bandlikka ko'maklashish markazlarida ro'yxatga olinmagan mehnatga qobiliyatli yoshdagi a'zolari, bola ikki yoshga to'lgunga qadar unga qarovchi ayollar, shuningdek, 18 yoshgacha bo'lgan o'quvchilar bundan mustasno;

— oilaning tekshirish vaqtidagi jami pul daromadlarining manbalari va miqdori;

— tomorqa uchastkasi maydoni va undan daromad olish imkoniyatlari;

— oila mol-mulkining qiymati (dala-hovli, avtomobil, mototsikl va zeb-ziynatlarning mavjudligi);

— oilaning muhtojlik darajasi haqidagi komissiya xulosasi va har oyda beriladigan moddiy yordamning tavsiya qilinayotgan miqdori haqida komissiya xulosasi.

Oilaga moddiy yordam tayinlash haqida qaror qabul qilishda arizachining fuqarolar yig'inida (yig'ilishida) yoki komissiya yig'ilishida qatnashishi shart.

Moddiy yordam tayinlash rad etilgan taqdirda yig'ilish bayonida uning asoslangan sabablari qayd etiladi va bu haqda fuqarolar yig'ini (yig'ilishi) yoki komissiya yig'ilishi qarori ustidan shikoyat qilishga yo'l qo'yilmaydi.

Moddiy yordam to'lash muddati tugaganda, yordam ko'rsatilayotgan oilaning moddiy ahvoli o'zgarganda, doimiy yashash joyi o'zgarganda oilaga moddiy yordam to'lash to'xtatiladi.

Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-martda 1112-son bilan ro'yxatga olingan „Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risida“gi Nizomga asosan bunday nafaqalar tayinlanishi va to'lanishi mumkin¹.

¹ „O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralariining me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi“, 2002-yil, 5-son.

Bolani parvarish qilish uchun to'lanadigan nafaqa qo'rg'on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolari yig'in yoki maxsus vakolatli komissiya tomonidan, ona yoki bolani parvarish qilayotgan boshqa shaxs qo'rg'on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolar yig'ini raisi nomiga beradigan arizasiga binoan tayinlanadi. Mazkur shaxs ro'yxatdan o'tkazilgan fuqarolarning arizasi o'zini o'zi boshqarish organiga beriladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinadi:

a) bolaning tug'ilganlik haqidagi guvohnomasidan ko'chirma nusxa;

b) mehnat daftarchasidan ko'chirma nusxa — ilgari ishlaganlar uchun;

d) ariza topshirilgan oygacha oila a'zolarining oxirgi o'n ikki oydagi daromadlari to'g'risida ma'lumotnoma;

e) bolaning nogironligi to'g'risida guvohlik beruvchi VKK xulosasining ko'chirma nusxasi (zarurat bo'lganda);

f) nikohning bekor qilinganlik to'g'risidagi guvohnomaning ko'chirma nusxasi yoki tegishli sud qarorlaridan ko'chirmalar (zarurat bo'lganda);

g) amalda parvarish qiladigan shaxslar tomonidan bolaning onasi yo'qligi haqida hujjat, bolaning onasi vafot etganligi to'g'risida guvohnoma, onani onalik huquqlaridan mahrum qilish to'g'risida sud organlari tomonidan berilgan ma'lumotnomani yoki bolaning (bolalarning) onasi bolani parvarish qilish nafaqasini olmasligini tasdiqlaydigan boshqa hujjatlar qo'shimcha ravishda taqdim etiladi.

Nafaqa tayinlash uchun zarur hujjatlar belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalarda taqdim etiladi.

Bolani parvarish qilish nafaqasini tayinlash uchun qo'rg'on, qishloq, ovul, mahalla fuqarolarining yig'inida yoki ushbu nafaqani tayinlash va to'lash masalalarini hal etish uchun fuqarolar yig'ini vakolat bergan komissiya tomonidan qabul qilingan qaror asos bo'lib hisoblanadi.

Bolani parvarish qilish nafaqasi oila daromadini hisobga olgan holda tayinlanadi.

Quyidagi hollarda nafaqa oila daromadlaridan qat'i nazar tayinlanadi:

a) to'liq bo'lmagan oilada bolani (bolalarni) tarbiyalayotgan ota va onalarga. Bunda bolaning to'liq bo'lmagan oilada ona (ota) tomonidan tarbiyalanish faktini, muayyan holatlarni hisobga

olgan holda, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi belgilaydi;

b) nogiron bolani tarbiyalayotgan onalarga (yoki ularning o'rnini bosadigan shaxslarga). Bunda bolalarning qaysi biri nogiron ekanligining ahamiyati yo'q.

Bolani parvarish qilish nafaqalarini to'lash quyidagi hollarda to'xtatiladi:

a) parvarish qilinayotgan bola ikki yoshga to'lganda;

b) bolaning ixtisoslashtirilgan muassasaga to'liq davlat ta'minotiga berilishida;

d) bola vafot etganda;

e) oila bola bilan doimiy yashash uchun O'zbekiston Respublikasidan tashqariga chiqib ketganda;

f) qayta ish faoliyatini davom ettirganda;

g) boshqa joyga ko'chganda;

h) tayinlangan muddatning birinchi o'n ikki oyi oxiridagi holat bo'yicha oila har bir a'zosining daromadlari belgilangan mezondan oshib ketsa.

Bolani parvarish qilish nafaqasini to'lashni to'xtatishga olib keluvchi holatlar to'g'risida nafaqa oluvchi o'zini o'zi boshqarish organlariga ma'lum qilishi shart.

Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi aybi bilan o'z vaqtida olinmagan bolani parvarish qilish nafaqasi o'tgan vaqt uchun biror-bir muddat bilan cheklashsiz to'lanadi. Ko'rsatilgan hollarda bolani parvarish qilish nafaqasining summalari bir vaqtda to'lanadi.

Tayinlangan, biroq o'z vaqtida talab qilinmagan (to'lanmagan) bolani parvarish qilish nafaqalari o'tgan vaqt uchun ushbu nafaqalar to'lanishi kerak bo'lgan davrda nazarda tutilgan miqdorlarda to'lanadi.

Atayin noto'g'ri yoki soxta (qalbaki) hujjatlar bo'yicha bolani parvarish qilish nafaqasini olish faktlari aniqlanganda bunday hujjatlarni taqdim etgan shaxs javobgarlikka tortiladi, ortiqcha to'langan summalar esa belgilangan tartibda undirilishi kerak.

Davlat korxonalarida ishlaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-martda 1113-son bilan ro'yxatga olingan „Ishlayotgan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to'lash tartibi to'g'risidagi

Nizom“ga muvofiq bola ikki yoshga to‘lgunga qadar uni parvarishlash uchun har oylik nafaqa tug‘ilgan, farzandlikka yoki vasiylikka olingan bola ikki yoshga to‘lgunga qadar uni parvarishlayotgan shaxslarga, ya’ni onaga, otaga, farzandlikka olgan shaxsga, vasiyga yoki boshqa qarindoshlarga tayinlanadi va to‘lanadi¹.

Budjet sohasida mehnat qilayotgan onalarga ushbu Nizom asosida emas, balki O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2002-yil 14-martda 1112-son bilan ro‘yxatga olingan „Ishlamaydigan onalarga bola ikki yoshga yetgunga qadar uni parvarish qilganligi uchun oylik nafaqa tayinlash va to‘lash tartibi to‘g‘risida“gi Nizomga asosan amalga oshiriladi².

Davlat budjetidan ta‘minot oluvchi muassasa va tashkilotlarda ishlovchi onalarga mazkur nafaqa tegishli hollarda ular doimiy yashab turgan fuqarolar yig‘ini tomonidan tayinlanadi.

Bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqa tayinlash uchun quyidagi hujjatlar taqdim qilinadi:

a) bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqa tayinlash haqidagi ariza;

b) bola tug‘ilganligi to‘g‘risidagi guvohnoma nusxasi.

Bolaning onasi o‘rniga bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqani oluvchi shaxslar qo‘shimcha ravishda onaning yo‘qligini tasdiqlovchi hujjat — guvohnoma, onaning onalik huquqidan mahrum etilganligi haqida sud organlari bergan ma’lumotnoma yoki bolaning (bolalarning) onasi bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqani olish imkoniyati yo‘qligini tasdiqlovchi boshqa hujjatlarni taqdim etadilar.

Bolani parvarish qilish bo‘yicha nafaqa to‘lovi quyidagi hollarda bekor qilinadi:

a) parvarish qilinayotgan bola ikki yoshga to‘lganda;

b) bola ixtisoslashtirilgan muassasaga (go‘daklar uyiga) to‘liq davlat ta‘minotiga joylashtirilganda;

d) bola vafot etganda;

e) oila, bola bilan birgalikda, doimiy yashash uchun O‘zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga chiqib ketganda.

¹ O‘zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo‘mitalari va idoralarining me‘yoriy hujjatlari Axborotnomasi, 2002-yil, 5-son.

² Qarag: O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 28-fevralda 1113-1-son bilan ro‘yxatga olingan o‘zgartirish. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2008-yil, 8—9-sonlar, 52-modda.

Bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa to'lovi bekor qilinishiga olib keluvchi holatlar haqida nafaqa oluvchi shaxs, nafaqa to'lovini amalga oshirayotgan organni xabardor qilishi shart.

Nafaqa oluvchi shaxs vafot etganda yoki ota-onalik huquqidan mahrum bo'lganda yoxud bola vasiylikdan olib qo'yilgan hollarda nafaqa amalda bolani parvarishlayotgan shaxsга ushbu nafaqa to'langan so'nggi oyning keyingi oyidan boshlab tayinlanadi.

Bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa puli bila turib noto'g'ri yoki qalbaki (soxta) hujjatlar bo'yicha olinganligi aniqlangan hollarda, bunday hujjatlarni taqdim qilgan shaxslar javobgarlikka tortiladilar, ortiqcha to'langan summalar belgilangan tartibda undirib olinadi.

Bolani parvarish qilish bo'yicha nafaqa to'lovi bekor qilinishiga olib keluvchi holatlar haqida o'z vaqtida xabar berilmaganda, to'lovni amalga oshirayotgan organning qarori bo'yicha ortiqcha to'langan summalar belgilangan tartibda nafaqa olgan shaxsdan undiriladi.

Bola parvarishlash uchun nafaqa to'lovi korxonalarda (tashkilotlarda) ishlayotgan onalar (ona o'rnini bosuvchi shaxslar) uchun ushbu korxonalarining (tashkilotlarning) o'z mablag'lari hisobidan amalga oshiriladi.

KALIT SO'ZLAR. Ijtimoiy nafaqalar. Ijtimoiy nafaqalarning umumiy tavsifi. Mehnat stajiga ega bo'lmagan fuqarolarga nafaqa tayinlash. Qarilik nafaqasi. Nogironlik nafaqasi. Boquvchisini yo'qotganlik nafaqasi. Nogiron bolalar va bolalikdan nogiron shaxslarga nafaqalar. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam. Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga nafaqa. Ishlayotgan va ishlamayotgan shaxslarga bola parvarishlash nafaqalari.

Bilimingizni sinab ko'ring

1. Ijtimoiy nafaqalar haqida nimalarni bilasiz va ularning davlat ijtimoiy nafaqalaridan qanday farqi bor?
2. Ijtimoiy nafaqalarning tayinlanish mezonlari qanday?
3. Qarilik, nogironlik va boquvchisidan judo bo'lganlik nafaqalari haqida so'zlab bering.
4. Kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam ko'rsatish shartlari va tartiblari qaysi huquqiy hujjatda belgilangan?
5. Voyaga yetmagan bolalari bo'lgan oilalarga qancha muddatga va qanday miqdorda nafaqa tayinlanadi?
6. Bola parvarishlash ta'tili davri uchun nafaqa tayinlash shartlari qanday?

XIV BOB. FUQAROLARGA KO'RSATILADIGAN BOSHQA IJTIMOIIY YORDAMLAR VA IMTIYOZLAR

14.1. Ijtimoiy himoya choralari va ularning umumiy tavsifi

Aholiga beriladigan ijtimoiy yordam va ijtimoiy qo'llab-quvvatlash yo'nalishlaridan biri — ularga natural xizmatlar shakllarida hamda turli ijtimoiy imtiyoz va yengilliklar tarzida yordamlar ko'rsatilishidan iborat. Ijtimoiy yordam ko'rsatish shakllari xilma-xil ko'rinishlarda bo'lib, mohiyat jihatdan davlatimiz tomonidan amalga oshirib kelinayotgan manzilli, ehtiyojmandlarga ko'rsatiladigan aniq ijtimoiy himoyaning amalda ro'yobga chiqarilishini anglatadi.

Yuqorida ta'kidlanganidek, hozirgi paytda aholining muhtoj qatlamlari o'nlab turdagi ijtimoiy yordamlardan foydalanmoqdalar, ularga turli ijtimoiy imtiyoz va yengilliklar berilmoqda, ularning barchasi ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar va oilalarni moddiy turmush sharoitini yuksaltirish, ta'minlanganlik darajasini oshirishga qaratilgandir. Bunday yordamdan foydalanuvchi fuqarolar orasida qariyalar, yosh bolalar, bolali oilalar, nogironlar yetakchi o'rinni egallamoqda.

Aholining muhtoj tabaqalariga ko'rsatiladigan yordamlarni aniq tavsiflash va to'g'ri tasniflash, har bir ijtimoiy yordam ko'rsatish shaklini, mazmun-mohiyatini, maqsad-vazifasini, roli-o'rnini aniq tasavvur etish bunday yordamni ko'rsatish bilan bevosita shug'ullanayotgan shaxslar uchun, bu sohada faoliyat yurituvchi mutaxassis-kadrlar uchun muhim amaliy ahamiyatga ega. Bunday yordamlarning ijtimoiy mohiyati va huquqiy asoslaridan yaxshi xabardor bo'lish, to'g'ri tushunib yetish natijasida uning o'z vaqtida, to'la hajmda tegishli shaxslarga yetkazilishini ta'minlaydi hamda ijtimoiy adolat va qonunchilik tamoyillarining mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy yordamdan foydalanishga haqli bo'lgan shaxslar toifalari xilma-xil bo'lib, doirasi juda keng. Ular qatoriga qariyalar, nogironlar, boquvchisiz qolgan fuqarolar hamda yolg'iz keksa nogironlar, ko'p bolali kam ta'minlangan oilalar, maktab o'quvchilari, urush qatnashchilari va boshqa shaxslar kiradilar.

Ijtimoiy himoyaning muayyan shakli va uni ko'rsatishga taalluqli maxsus normativ-huquqiy hujjatning bevosita o'zida bunday yordam olishga haqli shaxslar doirasi, yordam ko'rsatishni amalga oshiruvchi davlat organi yoxud fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi, yordam ko'rsatish shartlari hamda tartiblari belgilab qo'yiladi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi 240-sonli „O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining tibbiy-ijtimoiy muassasalari to'g'risidagi Nizomlarni tasdiqlash haqida“gi qaroriga ko'ra: „Saxovat“ keksalar va nogironlar uchun internat uylari to'g'risida Nizom; „Muruvvat“ nogironlar uchun internat uylari to'g'risida Nizom; „Muruvvat“ nogiron bolalar uchun internat uylari to'g'risida Nizom; Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar to'g'risida Nizom; Urush va mehnat faxriylari uchun respublika pansionati to'g'risida Nizom tasdiqlangan¹.

14.2. Ijtimoiy muhofaza yordamining turlari

Aholining ehtiyojmand qatlamlariga beriladigan ijtimoiy yordam shakllari ham rang-barang ko'rinishlarga ega va ularni quyidagi turlarga bo'lish mumkin:

1) qariyalar, nogironlar va bolalarni to'liq davlat ta'minotiga olish; ularni maxsus tashkil etilgan mehribonlik, muruvvat va sahovat uylarida yashashlarini ta'minlash;

2) qarovsiz qolgan yolg'iz qariyalar hamda nogironlarga oziq-ovqat mahsulotlari bilan natural moddiy yordam ko'rsatish, maishiy va boshqa natural xizmatlarni bepul amalga oshirish;

3) qariyalar, nogironlar va muayyan kasalga chalingan shaxslarga reabilitatsiya maqsadlarida sanatoriy-kurort xizmatlarini ko'rsatish;

4) nogiron fuqarolarga protez-ortopediya, harakatlanish vositalari berish va u bilan bog'liq bo'lgan xizmatlarni ko'rsatish;

5) maktab yoshidagi bolali oilalarga moddiy va boshqa yordamlar ko'rsatish;

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2011-yil, 34—35-sonlar, 348-modda.

6) fuqarolarning muayyan toifalariga turar joy, maishiy transport, aloqa, soliq, tibbiy, farmatsevtika va boshqa sohalarda imtiyozlar berish;

7) qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa turdagi ijtimoiy xizmatlarni ko'rsatish.

Aholining muayyan toifalariga ko'rsatiladigan ijtimoiy xizmatlar va beriladigan imtiyozlar iqtisodiy tushuncha sifatida davlat va jamiyat tomonidan ushbu maqsadlar uchun ajratiladigan mablag'larning sarflanishidan iborat bo'lsa, yuridik tushuncha sifatida u fuqarolarga Konstitutsiyaga muvofiq berilgan ijtimoiy yordam olish huquqlarining amalga oshirilishidan iboratdir.

Bozor iqtisodiy munosabatlari kuchayib va chuqurlashib borayotgan, boqimandalik kayfiyatlariga barham berilayotgan sharoitda nochor va teng raqobatlashishga qodir bo'lmagan aholi tabaqalarining real ijtimoiy himoya qilinishi muhim ahamiyatga egadir.

Yolg'iz qariyalar, yolg'iz nogironlar va ota-ona parvarishidan mahrum bo'lgan bolalarni davlat ta'minotiga olinishining mohiyati — yolg'iz qariyalar, kimsasiz nogironlar, yetim bolalar haqida amalda g'amxo'rlik qilish ahvoliga qarab jamiyatning, uning a'zolarining, davlatning madaniy hamda ma'naviy-axloqiy saviyasiga baho beriladi va ushbu ko'rsatkichlar insonparvarlik darajasini belgilovchi muhim mezonlardan hisoblanadi.

Mamlakatimizda ana shu tamoyillarga amal qilingani holda qariyalar, nogironlar, yetim-yesirlar haqida alohida g'amxo'rlik qilib kelinmoqda. 2002-yilning „Qariyalarni qadrlash yili“, 2007-yilning „Ijtimoiy himoya yili“, 2010-yilning „Barkamol avlod yili“ deb e'lon qilinishi, avvalgi yillarning nogironlar, ayollar, bolalarga, qishloq ahlini ijtimoiy qo'llab-quvvatlashga bag'ishlanganligi hamda shu munosabat bilan zarur davlat dasturlari ishlab chiqilib, hayotga tatbiq etib kelinayotganligi davlatimiz va jamiyatimizda inson va uning manfaatlari oldingi o'rinlarda turishini ko'rsatadi.

Bugungi kunda respublikamizda ko'plab „Saxovat uylari“, „Mehribonlik uylari“, „Muruvvat uylari“ faoliyat ko'rsatib kelinmoqda va ularda bir necha o'n minglab nochor fuqarolar davlat va jamiyat mehr-muruvvatidan bahramand bo'lmoqdalar.

Yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat

faxriylari pansionati, „Saxovat“ va „Muruvvat“ uylarida davlat ta'minotiga olish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2008-yil 30-iyulda 1648-son bilan ro'yxatga olingan. „Yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, „Saxovat“ va „Muruvvat“ uylariga rasmiylashtirish tartibi to'g'risida qoidalar“¹ga ko'ra pensiya yoshiga yetgan, alohida uyda, xonadonda, yotoqxonada yashayotgan va farzandlari (shu jumladan, asrab olingan farzandlari), eri (xotini) bo'lmagan hamda qonun hujjatlariga muvofiq homiylik belgilanmagan yolg'iz keksalar, pensionerlar va I yoki II guruh nogironlari hamda yoshidan qat'i nazar uzluksiz davom etuvchi ruhiy xastaligi oqibatida mehnatga layoqatsiz, o'zgarlar parvarishiga muhtoj bo'lgan I yoki II guruh nogironlari farzandlari (shu jumladan, asrab olingan farzandlari), eri (xotini) bo'lishi, qonun hujjatlariga muvofiq vasiylik yoki homiylik belgilanishidan qat'i nazar O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tizimidagi Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, „Saxovat“ va „Muruvvat“ uylariga joylashtirilishi mumkin.

Yolg'iz keksalar, pensionerlar va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy muassasalarga joylashtirish uchun vazirlik huzurida Respublika urush va mehnat faxriylari pansionati, „Saxovat“ va „Muruvvat“ uylariga rasmiylashtirish bo'yicha Maxsus komissiya tashkil etiladi.

„Saxovat“ uyiga rasmiylashtiriladigan yolg'iz keksa, pensioner va I va II guruh nogironining — o'zining turar manzilidagi tuman (shahar) ijtimoiy ta'minot bo'limi boshlig'i nomiga uni „Saxovat“ uyiga rasmiylashtirishni so'rab yozgan arizasi asosida amalga oshiriladi.

„Muruvvat“ uylariga rasmiylashtiriladigan 14 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar uchun ota-onalari tomonidan farzandini bolalar „Muruvvat“ uyiga rasmiylashtirishni so'rab yozilgan ariza asos bo'ladi.

14 yoshdan 18 yoshgacha bo'lgan ruhiy kasallikdan nogironlar uchun davlatning vakolatli idorasi (vasiylik yoki homiylik

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2008-yil, 35—36-son, 353-modda.

tayinlovchi organ) tomonidan tayinlangan homiy yoki vasiy tomonidan yozilgan ariza, nogiron tomonidan yozilgan ariza asos bo'ladi.

18 yoshdan yuqori bo'lgan ruhiy kasallikdan I va II guruh nogironlari uchun davlatning vakolatli idorasi (sud qarori bilan) tomonidan tayinlangan homiy yoki vasiy tomonidan yozilgan ariza, nogiron tomonidan yozilgan ariza asos bo'ladi.

Bulardan tashqari, quyidagi hujjatlar ham talab etilishi lozim:

a) homiylik yoki vasiylik to'g'risidagi hujjat;

b) yolg'iz keksa, pensioner va nogiron shaxsning pasporti (asli va pasportning fuqaro to'g'risidagi ma'lumotlar va uning ro'yxatga qo'yilganligi qayd etilgan varag'i nusxasi), 16 yoshgacha bo'lgan bolalarning tug'ilganlik to'g'risidagi guvohnomasining asli va nusxasi, nogiron bolalar ota va onasining pasporti hamda fuqaro to'g'risidagi ma'lumotlar va uning ro'yxatga qo'yilganligi qayd etilgan varag'i nusxasi, pensiya guvohnomasi;

d) nogironlik haqida Tibbiy mehnat ekspert komissiyasi ma'lumotnomasi (nogiron uchun), 16 yoshgacha bolalar uchun Tibbiy maslahat komissiyasi xulosasi;

e) ambulator kartasidan yoki kasallik tarixidan ko'chirma (albatta, qon va siydik tahlili, qonning Vasserman reaksiyasi va Avstraliya antigeniga tahlili, ko'krak qafasi fluorografiyasi, bolalar uchun og'iz-burun bo'shlig'ining bakteriologik tahlili (Lyoffler surtmasi);

f) ruhiy-asab kasalliklari dispanseri Tibbiy maslahat komissiyasi xulosasi;

g) sil kasalliklari dispanseri xulosasi;

h) onkologik dispanser xulosasi;

i) teri-tanosil kasalliklari dispanseri xulosasi;

j) yolg'iz keksa, pensioner va nogironning 2 ta fotosurati (6 x 4 hajmda);

k) turar joyidan ma'lumotnoma;

l) texnik inventarizatsiyalash byurosi (BTI) tomonidan yolg'iz keksa, pensioner va nogironning uy-joyi to'g'risidagi ma'lumotnoma (14 yoshgacha bo'lgan nogiron bolalar bundan mustasno);

m) yolg'iz keksa, pensioner va nogironning pensiyasi (nafaqasi) to'g'risida ma'lumotnoma;

n) yolgʻiz keksa, pensioner yoki nogironning moddiy-maishiy ahvoli toʻgʻrisidagi dalolatnoma (mazkur Qoidalarining 3-ilovasi);

o) „Saxovat“ uyiga rasmiylashtiriladigan fuqaroning yolgʻizligini tasdiqlovchi turar manzilidagi mahalla fuqarolar yigʻini komissiyasi dalolatnomasi;

p) „Saxovat“ uyiga rasmiylashtiriladigan fuqaroning yolgʻizligini tasdiqlovchi turar manzilidagi mahalla fuqarolar yigʻini komissiyasi yigʻilishi dalolatnomasi asosida tuman (shahar) hokimi tavsiya xati yoki yolgʻiz keksa, pensioner va nogironning yolgʻizlar roʻyxatiga olinganligi toʻgʻrisida tuman (shahar) hokimi qarori.

Ota-ona parvarishi va taʼminotidan mahrum boʻlib qolgan voyaga yetmagan bolalarni, yolgʻiz keksalar, yolgʻiz nogironlarni „Mehribonlik“, „Saxovat“ va „Muruvvat uylari“da moddiy taʼminlash, ularga ijtimoiy xizmatlar koʻrsatish normalari va tartiblari ushbu muassasalar haqida tasdiqlangan Nizomlarga muvofiq amalga oshiriladi.

Oilaviy bolalar uylari. Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007-yil 31-iyuldagi 158-sonli qarori bilan tasdiqlangan Nizom¹ ga koʻra, ota-onasining qarovisiz qolgan bolalarni tarbiyalash, oʻqitish, sogʻlomlashtirish, aqliy, psixologik va jismoniy rivojlantirish, ularni ijtimoiy moslashtirish va muhofaza qilish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish, ular uchun oiladagiga yaqin zarur sharoitlar vujudga keltirish oilaviy bolalar uyining asosiy vazifalari hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uyi tuman (shahar) hokimining qarori boʻyicha tashkil etiladi, qayta tashkil qilinadi va tugatiladi. Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni xohlovchi oilaning tegishli arizasi, vasiylik va homiylik organining, tuman va shaharlar hokimliklari huzuridagi balogʻatga yetmaganlar bilan ishlash komissiyasining bolalarni oʻz tarbiyalariga olish mumkinligi toʻgʻrisidagi xulosasi tuman (shahar) hokimining qaror qabul qilishi uchun asos hisoblanadi.

Oilaviy bolalar uyi muassasa shaklida tashkil etiladi va tegishli tuman (shahar) hokimligida yuridik shaxs sifatida roʻyxatdan oʻtkaziladi.

¹ Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi qonun hujjatlari toʻplami, 2007-yil, 31—32-son, 318-modda.

Oilaviy bolalar uyi tashkil etishni xohlovchi er-xotin — o‘zining yashash joyidagi vasiylik va homiylik organiga ariza bilan murojaat qiladi.

Arizada er-xotinning familiyasi, ismi, otasining ismi, yashash joyi, bolalari (o‘zlariniki, farzandlikka olganlari) mavjud bo‘lgan taqdirda — ularning soni va yoshi ko‘rsatiladi.

Arizaga quyidagilar ilova qilinishi kerak:

— ma‘lumoti to‘g‘risidagi hujjatlarning, nikohdan o‘tganlik to‘g‘risidagi guvohnomaning belgilangan tartibda tasdiqlangan nusxalari;

— ish va o‘qish joyidan ma‘lumotnoma (ishlamayotgan yoki belgilangan tartibda ishsiz deb e‘tirof etilganlar uchun — mahalliy mehnat organlarining yoki yashash joyidagi o‘zini o‘zi boshqarish organlarining ma‘lumotnomasi);

— mehnat daftarchasidan ko‘chirma (ish staji mavjud bo‘lsa);

— oila a‘zolari ko‘rsatilgan holda yashash joyidan ma‘lumotnoma;

— er-xotinda sanitariya qoidalari va normalariga muvofiq bo‘lgan mulk huquqi, ijara shartlarida (ijaraga olingan) yoki boshqa qonuniy asoslarda turar joy mavjudligini tasdiqlovchi hujjat (tegishli turar joy mavjud bo‘lmagan taqdirda arizada xizmat turar joyi bilan ta‘minlash zarurligi ko‘rsatiladi);

— Tibbiy maslahat komissiyasining er-xotinning sog‘lig‘i to‘g‘risidagi xulosasi, psixiatriya va narkologiya muassasalari, teritanosil kasalliklari dispanseri ma‘lumotnomalari.

Arizani topshirish vaqtida er-xotinning shaxsini tasdiqlovchi hujjat ko‘rsatiladi.

Agar Nizomda boshqacha tartib nazarda tutilmagan bo‘lsa, O‘zbekiston Respublikasining FHDY organi tomonidan nikohdan o‘tgan, 35 yoshdan 50 yoshgacha bo‘lgan fuqarolari tarbiyalovchi ota-ona bo‘lishlari mumkin.

Quyidagi shaxslar tarbiyalovchi ota-ona bo‘lishlari mumkin emas:

— tarbiyalashga olinayotgan bolalar bilan qarindoshligi bo‘lganlar;

— belgilangan tartibda muomalaga layoqatsiz yoki muomalaga layoqatlilik cheklangan deb e‘tirof etilganlar;

— ota-onalik huquqlaridan mahrum etilganlar yoki ota-onalik huquqi cheklanganlar;

— oʻzlariga yuklangan majburiyatlarni zarur darajada bajar-
maganlik uchun vasiylik (homiylilik) majburiyatidan chetlash-
tirilganlar;

— agar farzandlikka olish ularning aybi bilan sud tomo-
nidan bekor qilingan boʻlsa, sobiq farzandlikka olganlar;

Oʻzbekiston Respublikasi Sogʻliqni saqlash vazirligi tomo-
nidan belgilanadigan kasalliklar roʻyxatiga muvofiq bolalarni
tarbiyalashga olishi taqiqlanadigan kasalligi mavjud boʻlganlar;

— qasddan qilgan jinoyati uchun sudlanganlar.

Bolalarni oilaviy bolalar uyiga tarbiyalash uchun berish,
tarbiyalovchi ota-onalar va tarbiyalanuvchi bolalarning huquq va
majburiyatlari, oilaviy bolalar uyi taʼminoti va uni moddiy-texnik
taʼminlash normalari va tartiblari hamda boshqa masalalar yuqo-
rida qayd etilgan Nizomga muvofiq belgilanadi.

14.3. Pensioner va nogironlarni sanatoriy va kurortlarda davolash

Pensionerlar va nogironlarni sanatoriy-kurortlarga yuborish
orqali davolash, salomatliklarini muntazam nazorat qilib turish
ularga koʻrsatiladigan ijtimoiy yordamning asosiy tarkibiy qismini
tashkil qiladi.

Oʻzbekiston Respublikasining 1996-yil 29-avgustdagi „Fuqa-
rolar sogʻligʻini saqlash toʻgʻrisida“gi qonunining 21—22-mod-
dalarida hamda 2008-yil 11-iyulda yangi tahrirda qabul qilingan
„Oʻzbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish
toʻgʻrisida“gi qonunga muvofiq pensioner va nogiron boʻlib qol-
gan fuqarolar zarur tibbiy-ijtimoiy yordamni olish huquqiga,
shu jumladan, sanatoriy va dam olish uylarida sogʻlomlashtirish
xizmatidan foydalanishga haqli ekanliklari koʻrsatib oʻtilgan.

Nogironlarni reabilitatsiya qilishning maqsadi nogironlarga
toʻlaqonli turmush kechirish hamda oʻz huquqlari va potensial
imkoniyatlarini roʻyobga chiqarish imkonini beruvchi ijtimoiy
maqomini, oʻziga oʻzi xizmat koʻrsatishga va kasbiy faoliyatning
har xil turlariga doir qobiliyatlarini tiklashdan iboratdir.

Pensionerlar va nogironlarni sanatoriy-kurortlar, dam olish
uylariga yuborish asoslari, muddatlari, tartiblari Oʻzbekiston
Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2005-yil 6-iyulda 1489-
son bilan roʻyxatga olingan „Nogironlar va pensionerlarni

sanatoriy-kurort sihatgoh yo'llanmalari bilan bepul ta'minlash tartibi to'g'risida Yo'riqnoma¹da belgilangan bo'lib, unga ko'ra¹ ishlamayotgan nogironlar va pensionerlar ehtiyojmand bo'lganlari taqdirda belgilangan tartibda sanatoriy va kurortlarga bepul yo'llanma bilan ta'minlanadilar.

Yo'riqnomada Ikkinchi Jahon urushi nogironlari hamda qatnashchilari va ularga tenglashtirilgan shaxslar, shuningdek, I-guruh nogironini yetaklab yuruvchi shaxslar, front ortidagi mehnat frontida halol xizmati va harbiy xizmati uchun sobiq Ittifoq orden va medallari bilan taqdirlanganlar, Chernobil atom elektr stansiyasidagi falokatni bartaraf etishda qatnashgan va nogiron deb topilganlar, yadro poligonlari va boshqa yadro-radiatsiya obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan shaxslar. Shuningdek, bo'sh joylar bo'lgani taqdirda sanatoriy va dam olish uylariga yo'llanma yolg'iz pensionerlarga, I va II guruh nogironlariga, ko'zi ojiz I guruh nogironini yetaklab yuruvchi shaxslarga, yosh bo'yicha pensiya oluvchilarga berilishi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2011-yil 23-avgustdagi 240-sonli qaroriga ko'ra „Keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylar to'g'risida Nizom“ tasdiqlangan bo'lib, mazkur hujjat O'zbekiston Respublikasi Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining keksalar va nogironlar, urush va mehnat faxriylari uchun sanatoriylarni (keyingi o'rinlarda sanatoriylar deb ataladi) tashkil etish va ularning faoliyati tartibini belgilaydi.

Quyidagilar sanatoriylarning asosiy vazifalari hisoblanadi:

- davolash-reabilitatsiya xizmatlari ko'rsatishga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va ularning xalqaro darajasini ta'minlash yo'li bilan tibbiyot fani va amaliyotining zamonaviy talablarini hisobga olgan holda dam oluvchilarni to'laqonli sanatoriy-kurortda davolash, sog'lomlashtirish va ularning dam olishini tashkil etish;

- dam oluvchilarni sog'lomlashtirishda tabiiy davolash omillaridan eng yuqori darajada foydalanish;

- sanatoriy faoliyatini tashkil etishning bozor mexanizmlarini qo'llash;

- dam oluvchilarga ko'rsatiladigan sanatoriy-kurort xizmatlari ro'yxatini kengaytirish;

¹ O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2005-yil, 27-son, 196-modda.

— moddiy va moliyaviy resurslardan oqilona va samarali foydalanish, dam oluvchilar uchun eng yuqori darajada sog'lomlashtiruvchi natijani ta'minlash imkonini beradigan sanatoriylar faoliyat ko'rsatishi darajasiga erishish.

14.4. Nogironlarga protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari berish

Nogironlarni reabilitatsiya qilish, ular o'zlarini jamiyatning teng huquqli va to'laqonli a'zolari deb his qilishlari uchun imkon yaratish shakllaridan biri — protez-ortopediya buyumlari (sun'iy organlar) hamda reabilitatsiya-texnika vositalari bilan ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2003-yil 27-martda 1229-son bilan ro'yxatga olingan „O'zbekiston Respublikasining muhtoj fuqarolarini protez-ortopediya buyumlari hamda reabilitatsiya-texnika vositalari bilan ta'minlash tartibi to'g'risidagi Yo'riqnoma“¹ ga ko'ra protez-ortopediya buyumlariga ehtiyojmand fuqarolar bepul (ishlab chiqarishdagi jarohat yoki kasb kasalligi tufayli nogiron bo'lib qolganlarida ish beruvchi hisobidan) ta'minlanadilar.

Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009-yil 17-iyundagi 166-sonli qarori bilan tasdiqlangan „Sotib olingan reabilitatsiya, texnika vositasi yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun kompensatsiya to'lash tartibi to'g'risida Nizom“² ga ko'ra „O'zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to'g'risida“gi Qonuniga muvofiq nogironlarga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda bepul berilishi kerak bo'lgan, ammo ular o'z hisobidan sotib olingan reabilitatsiya-texnika vositalari yoki ko'rsatilgan xizmatlar uchun kompensatsiya to'lash tartibi nazarda tutilgan.

Yo'riqnoma protez-ortopediya buyumlari va reabilitatsiya-texnika vositalari turlarini, uni berish hamda foydalanish tartibi va muddatlarini, shuningdek, ana shunday buyumlar berilishi lozim bo'lgan nogironlar doirasini belgilab beradi.

Protez-ortopediya buyumini olish uchun nogiron shaxs qonun hujjatlarida nazarda tutilgan hujjatlarni Budjetdan tashqari

¹ O'zbekiston Respublikasi vazirliklari, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari Axborotnomasi. 2003-yil., 5—6-sonlar.

² O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2009-yil, 25-son, 286-modda.

Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limiga taqdim etishi lozim.

Maktab yoshidagi bolali oilalarga moddiy va boshqa yordam ko'rsatish. Ijtimoiy yordamning bu turi avvaldan turli shakllarda (bepul tushliklar berish, kiyim-kechak, o'quv darsliklari bilan bepul ta'minlash va hokazo) mavjud edi.

Yetim bolalar va ota-onadan qarovsiz qolgan to'liq davlat ta'minotidagi (bolalar uylaridagi) bolalarni ijtimoiy himoya qilish maqsadida ular umumta'lim maktablarini bitirib chiqayotganlarida kiyim-bosh, poyabzal sotib olish uchun 2002-yilda eng kam ish haqining 80 barobari, 2003-yilda esa 100 barobari miqdorida bir yo'la nafaqa berish nazarda tutildi.

Chaqaloqlar uyidan chaqaloqlarni farzandlikka, tarbiyasiga olgan ota-onalarga har bir chaqaloq uchun eng kam ish haqining uch barobari miqdorida har oylik nafaqa berish belgilab qo'yildi.

14.5. Fuqarolarning ayrim toifalariga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar

Aholini ijtimoiy himoyalash va qo'llab-quvvatlash maqsadida ularga turli-tuman imtiyozlar berish ko'zda tutilgan. Bu imtiyozlar foydalanishga haqli bo'lgan shaxslar doirasiga, imtiyoz turlari va ularning ijtimoiy mohiyatiga hamda boshqa xususiyatlariga ko'ra guruhlarga ajratilishi mumkin. Davlat Budgeti hisobidan fuqarolarga beriladigan ijtimoiy yordamni amalga oshirish shakli sifatida ular fuqarolar kundalik turmushida muhim o'rin tutmoqda. Shuni ko'rsatib o'tish kifoyaki, bugungi kunga kelib imtiyoz va yengilliklarning umumiy soni yuzdan ortiq shaklda amalga oshirilmoqda.

Biroq, bozor munosabatlari sharoitida boqimandalik, davlat va jamiyat hisobiga yashash, o'z jismoniy va aqliy salohiyatini ishga solishdan bo'yin tovlashga toqat qilish mumkin emas. Shu sababli, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 18-moddasi, 2-qismiga ko'ra: „Imtiyozlar faqat qonun bilan belgilab qo'yilgan hamda ijtimoiy adolat prinsiplariga mos bo'lishi shart“.

Ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadidagi imtiyozlar va yengilliklardan foydalanish huquqiga ega bo'lgan shaxslar doirasi

pensionerlar, nogironlar, yolg'iz qariyalar, ko'p bolali va kam ta'minlangan oilalar bilangina cheklanib qolmasdan, ijtimoiy ahamiyati katta bo'lgan muayyan kasb va vazifalarda band bo'lgan shaxslarni (pedagoglar, shifokorlar va boshqalar) hamda boshqa toifadagi fuqarolarni ham o'z ichiga qamrab olgandir.

Imtiyoz va yengillik berilishi obyektlari ham xilma-xil bo'lib, turar joy kommunal xizmatlar, tibbiy xizmatlar, farmatsevtika ta'minoti, transport-aloqa xizmati, soliq va boj to'lovlari kabilarni o'z ichiga olgan.

Imtiyoz va yengilliklar hajmi turli toifadagi fuqarolar uchun turlicha belgilangan bo'lib, bunda uning davlat va jamiyat oldidagi xizmati, moddiy-ijtimoiy ahvoli va boshqa ko'rsatkichlar e'tiborga olingan.

Imtiyozlardan foydalanish asoslari va shartlari ham turlicha bo'lib, fuqaroning avvalgi davrdagi xizmati, avvalgi davrdagi yoki bugungi kunda bajarib kelayotgan vazifasi, oilaviy ahvoli kabilardan iborat bo'lishi mumkin.

Imtiyoz va yengilliklardan foydalanishning umumiy tartibiga ko'ra imtiyozdan foydalanish huquqiga ega bo'lgan fuqaro yoki oila shunday imtiyoz yoki yengillikni berishi lozim bo'lgan davlat yoki jamoat organiga, korxona-tashkilotga yozma ariza bilan murojaat qilishi hamda imtiyozdan foydalanish huquqini tasdiqlovchi zarur hujjatlarni taqdim etishi lozim.

Imtiyozdan foydalanish huquqi bekor bo'lganida yoki o'zgarganida, foydalanuvchi shaxs bu haqda belgilangan muddat ichida imtiyoz beruvchi organi, tegishli hollarda — boshqa organlarni ham xabardor qilib qo'yishi shart.

Soxta hujjatlar asosida yoki noto'g'ri ma'lumotlar taqdim etgan holda imtiyozdan foydalanayotgan shaxslar qonun hujjatlariga muvofiq ma'muriy yoki jinoiy javobgarlikka tortiladilar hamda noto'g'ri berilgan imtiyoz tarzidagi zararlar ulardan to'liq undirib olinadi.

Endi fuqarolarga beriladigan imtiyozlar va yengilliklarning asosiy guruhlarini qisqacha tavsif hamda tahlil etishga harakat qilamiz.

1. *Tibbiy va farmatsevtika xizmatlari ko'rsatish bilan bog'liq imtiyozlar.* Bunday imtiyozlar beriladigan fuqarolarning toifalari tegishli qonun hujjatlarining o'zida nazarda tutib qo'yiladi va ushbu hujjatlarda belgilangan tartibda beriladi.

Tibbiy xizmat ko'rsatish va dori-darmon vositalari bilan ta'minlash yuzasidan imtiyozlar — O'zbekiston Respublikasining „Fuqarolar sog'lig'ini saqlash to'g'risida“gi qonuni¹ (qonunning 17-moddasi) hamda uning asosida qabul qilinadigan me'yoriy hujjatlarga binoan beriladi².

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi-ning 1997-yil 2-dekabrdagi 532-sonli „Davolash-profilaktika muassasalarini mablag' bilan ta'minlash tizimini takomillash-tirish to'g'risida“gi qaroriga ko'ra, ijtimoiy ahamiyati katta bo'lgan ayrim kasallik turlariga chalingan bemorlar turg'un davolash-profilaktika muassasalarida ovqatlanish to'lovidan ozod qilinadilar (Qarorning 1-ilovasi). Bunday kasalliklar qatoriga:

- onkologik kasalliklar;
- sil kasalligi;
- ruhiy kasalliklar;
- ixtisoslashtirilgan muassasalarda giyohvandlik;
- moxov kasalligi;
- nurlanish kasalligiga chalingan bemorlar;
- yuqumli kasalliklar;
- sifilis;
- OIV kasalligini yuqtirganlar (OITS);
- shoshilinch tibbiy yordam ko'rsatish chog'ida bemor-larning shifoxonada bo'lishi cheklangan muddatlarining tasdiqlan-gan standartlari bo'yicha reanimatsiya tadbirlarini va intensiv terapiyani talab etuvchi holatlar;
- darajasidan qat'i nazar kamqonlik kasalligiga chalingan homilador ayollar va tug'gan ayollar;
- endokrinologik kasalliklar kiritilgan.

Pullik kasalxonalar va pullik bo'limlarda bu imtiyoz amal qilmaydi.

Shuningdek, turg'un davolash-profilaktika muassasalarida kasallikning turidan qat'i nazar ovqatlanish to'lovidan ozod qili-nadigan aholi toifalari ham belgilangan bo'lib, ular jumlasiga (pullik kasalxonalar va bo'limlardan tashqari) quyidagi toifadagi fuqarolar kiritilganlar:

¹ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Axborotnomasi. 1996-yil, 9-son, 128-modda.

² Qar ang: O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1993-yil 8-yanvardagi „Aholini dori-darmon vositalari bilan ta'minlashga doir qo'-shimcha chora-tadbirlar to'g'risida“gi qarori va boshqa qarorlar. O'zbekiston Respublikasi Hukumati qarorlari to'plami. 1993-yil, 1-son, 1-modda.

1. Bolalikdan nogironlar.
2. Chin yetimlar.
3. I va II guruh nogironlari.
4. 1941—1945-yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar.

5. Budjetdan tashqari Pensiya jamg'armasi tuman (shahar) bo'limlarida hisobda turuvchi yolg'iz nafaqaxo'rlar.

6. 1941—1945-yillarda mehnat fronti qatnashchilari.

7. Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslar.

8. Baynalmilalchi jangchilar.

9. 17 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'smirlar.

10. Mudofaa ishlari bo'limlarining yo'llanmalari bo'yicha 18—27 yoshli chaqiriq yoshidagilar. Yuqorida qayd etib o'tilgan qarorning 4-ilovasida ambulatoriya davolashida dori-darmonlar bepul beriladigan kasalliklar va shaxslar ro'yxati ham nazarda tutilgan va ular qatoriga quyidagilar kiradi:

1. Onkologik kasalliklar.

2. Sil kasalligi.

3. Moxov kasalligi.

4. Endokrinologik kasalliklar.

5. Ruhiy kasalliklar.

6. OIV kasalligini yuqtirganlar (OITS).

7. Yurak klapanlarini protezlash va organlarni almashtirish bo'yicha operatsiyalardan keyin.

8. O'zgaralar yordamiga muhtoj yolg'iz nafaqaxo'rlar.

9. 1941—1945-yillardagi urush davrida mehnat fronti qatnashchilari.

10. 1941—1945-yillardagi urush qatnashchilari va nogironlari hamda ularga tenglashtirilgan shaxslar.

11. Chernobil AESidagi halokat oqibatlarini tugatishda qatnashgan nogiron shaxslar.

12. Baynalmilalchi jangchilar.

13. Yadro poligonlarida va boshqa radiatsiya-yadro obyektlarida harbiy xizmatni o'tagan pensiya yoshidagi shaxslar.

2. Soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar yuzasidan beriladigan imtiyozlar.

Aholining muhtoj tabaqalarini soliqlar va boshqa majburiy to'lovlardan ozod qilish yoki ularning miqdorini kamaytirish ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar turmush ko'rsatkichlarining

yuksaltirilishida muhim ahamiyat kasb etuvchi moddiy qo‘llab-quvvatlash choralaridan bo‘lib, ularni ijtimoiy-moddiy qo‘llab-quvvatlash usullaridan sanaladi¹⁰¹.

KALIT SO‘ZLAR. Ijtimoiy xizmatlar. Ijtimoiy xizmatlarni ko‘rsatuvchi davlat va jamoat organlari. Ijtimoiy xizmatdan foydalanuvchi subyektlar. Natural ijtimoiy xizmatlar. Ijtimoiy xizmat ko‘rsatish mezonlari. Ijtimoiy xizmatning shakllari va turlari. Davlat ta‘minotiga olish — ijtimoiy himoya chorasi sifatida. „Mehribonlik uylar“, „Saxovat uylari“, „Muruvvat uylari“ga joylashtirish shartlari va tartibi. Nogironlarni rehabilitatsiya qilish. Sanatoriy va kurortlarda sog‘liqni tiklash. Ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar.

Bilimingizni sinab ko‘ring

1. Ijtimoiy yordam nima?
2. Ijtimoiy yordam kimlarga ko‘rsatiladi?
3. Ijtimoiy xizmatlar va yordamlarning manzilliligi nimani anglatadi?
4. Natural shakldagi ijtimoiy xizmatlar nima degani?
5. Davlatning to‘liq ta‘minotiga olish nima degani va uning shart hamda tartiblari qanday?
6. Qariyalar va nogiron fuqarolarga qanday ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatiladi?
7. Dori-darmon va farmatsevtika sohasidagi imtiyozlar kimlarga beriladi?
8. Nogironlarni protez-ortopediya buyumlari bilan ta‘minlash nima degani?
9. Yakka-yolg‘iz qariyalar va nogironlarga o‘z uylarida ijtimoiy xizmat ko‘rsatish kim tomonidan va qanday tartibda amalga oshiriladi?

¹⁰¹ Q a r a n g : O‘zbekiston Respublikasining Soliq kodeksi. — T., „NORMA“, 2010-yil.

XV BOB. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDA IJTIMOIIY TA'MINOT VA IJTIMOIIY HIMOYA

15.1. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi

Rivojlangan mamlakatlarda uzoq yillik taraqqiyot va to'plan-gan boy tajriba asosida ancha mukammalashgan huquqiy tizim va mexanizmlar yaratilgan va ular samarali ishlab turgan bo'lsa, rivojlanib kelayotgan mamlakatlarda bu sohadagi qonunchilik shakllanish va takomillashish bosqichidadir.

Barcha davrlarda va jamiyatlarda ham aholini ijtimoiy ta'min-lash hamda ijtimoiy himoya qilish ijtimoiy zaif aholi qatlamlarini moddiy-ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, ularga davlat va jamiyat ko'magi, g'amxo'rliqi ko'rsatilishi orqali ijtimoiy adolatni o'rna-tish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikka erishish, jamiyatning turli qatlamlari o'rtasida o'zaro totuvlik, tinchlik va barqarorlikni saqlab turish maqsadlarini ko'zlaydi.

Bugungi kunda insoniy aloqalar va kommunikasiya vositalari keng taraqqiy topgan sharoitda ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy muhofaza sohasidagi o'zaro tajribalarni baham ko'rish, yutuq-lardan birgalikda foydalanish imkoniyati mislsiz kengaymoqda. Xorijiy mamlakatlar qonunchilik tizimi va uni qo'llash tajribasini diqqat bilan o'rganish har qanday mamlakat uchun ham, ay-niqsa o'z mustaqil taraqqiyot yo'liga yaqin davrlarda kirgan, rivoj-lanayotgan mamlakatlar uchun foydadan holi emasligi ayondir.

Jahondagi mamlakatlarda aholini pensiya va nafaqalar bilan ta'minlashning turli-tuman tizimlariga amal qilinadi. Ularning aksariyatida jamg'arib boriladigan pensiya ta'minotiga amal qiladi va uning mablag'lari shakllanishida bo'lg'usi pensioner o'zining ish haqi va boshqa daromadlaridan to'lanadigan badallari bilan ishtirok etadi.

Boshqa mamlakatlarda esa davlat pensiya ta'minoti tizimlari joriy qilingan bo'lib, ishlovchilarning oylik maoshlaridan davlat solig'i shaklida maqsadli ravishda budjetga o'tkazilgan mablag'lar hisobidan qat'iy normalangan tarzda pensiya ta'minoti amalga oshiriladi.

Masalan, **Yaponiyada** ijtimoiy himoya bevosita pul to'lovlarini amalga oshirish orqali hamda ijtimoiy natural yordamlar va imtiyozlar berish yo'li bilan olib boriladi. Demografik noxush

tendensiyalarga qarshi kurashish maqsadida (aholining qarish ko'rsatkichlari muntazam ortib borayotgani, tug'ilishning esa kamayib borayotgani) yosh bolali oilalarni, keksalarni qo'llab-quvvatlashga oid dasturlar qabul qilindi. Shuni qayd etish kerakki, bugungi kunda Yaponiya jahondagi eng uzoq umr ko'radiganlar yurti bo'lib, o'rtacha umr kechirish yoshi ayollar uchun 84 yoshni, erkaklar uchun esa 77 yoshni tashkil etadi¹.

Yaponiyada ijtimoiy himoyaning besh toifasi nazarda tutilgan bo'lib, ular:

- hayotni muhofaza qilish;
- ijtimoiy ta'minotni amalga oshirish;
- ijtimoiy sug'urtalash;
- sog'liq va gigiyenani ta'minlash;
- ishsizlik nafaqasi berish.

Yaponiyada pensiya ta'minoti tizimi. Yaponiyada milliy pensiya tizimi va ishlayotganlarning pensiya sug'urtasi pensiya ta'minoti tizimi faoliyat ko'rsatadi.

Pensiya yoshi milliy pensiya ta'minoti tizimi orqali pensiya tayinlashda 65 yosh, ishlovchilar uchun ijtimoiy sug'urta pensiyasida 60 yoshdir. Ammo, ijtimoiy sug'urta pensiyasida ham pensiya yoshini 65 yosh qilib belgilashga harakat qilinmoqda.

Germaniyada ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya tizimi takomillashgan bo'lib, bu sohada o'nlab qonunlarga amal qilinmoqda². Davlat pensiyasi bilan bir qatorda nodavlat pensiya tizimlariga ham amal qilinadi va ishlovchilarning o'zlari tomonidan oldindan to'lab turilgan badallar hisobiga jamg'arib boriladigan pensiya tayinlanadi va to'lanadi.

Bu mamlakatda yashovchi ota-onalar bolalari uchun nafaqa olishga haqli bo'ladilar (Kindergeld). Nafaqaning miqdori oiladagi bolalar soniga bog'liq. Bolalarga tayinlangan nafaqa ular 18 yoshga kirgunlariga qadar, agar ular o'qishni davom ettirayotgan, kasb o'rganayotgan bo'lsalar, nafaqa ularga 27 yoshga yetgunlariga qadar to'lanishi mumkin³.

Fransiya Respublikasi. Bu mamlakatda ijtimoiy ta'minot va ijtimoiy himoya aholining tobora keng qatlamlarini qamrab

¹ Qarang: Suneo Inako. Современное право Японии. М., 1981.

² Masalan, o'nta kitobdan iborat Ijtimoiy ta'minot kodeksi, „Ijtimoiy ta'minot to'g'risida“gi, „Bolalarga federal nafaqalar to'g'risida“gi, „Ijtimoiy yordam to'g'risida“gi va boshqa qonunlar mavjud.

³ Шапаян. Основы гражданского права Германии. М., 1996.

olayotgani bilan e'tiborga loyiq. Pensiya ta'minoti mablag'lari tadbirkorlar va xodimlar to'laydigan badallardan, qisman davlat ajratadigan mablag'lardan tashkil topadi¹.

Pensiya ta'minoti bilan bog'liq bo'lgan munosabatlar 1956-yilda qabul qilingan ijtimoiy ta'minot kodeksi bilan tartibga solinadi. Ushbu qonunda pensiya, ishlab chiqarishda jarohat olishi, kasb kasalligiga chalinishi tufayli nogiron bo'lgan, boquvchisini yo'qotgan shaxslarga nafaqalar tayinlash va to'lash nazarda tutilgan. Pensiya yoshi 65 yosh, ammo 37,5 yil sug'urta badali to'langan holda pensiya yoshi erkaklar uchun ham, ayollar uchun ham 60 yoshni tashkil qiladi.

Bolalarga va yosh bolali oilalarga nafaqalar tayinlash va to'lash 1986-yilgi „Bolalarga to'lanadigan nafaqalar to'g'risida“gi qonun bilan tartibga solinadi.

Amerika Qo'shma Shtatlari. Ijtimoiy ta'minot asosan tadbirkorlar va yollanib ishlovchi xodimlar tomonidan to'lanadigan badallar hisobiga tashkil topadigan mablag'lardan amalga oshiriladi. Ayni paytda kambag'al oilalarga, nogironlarga, bevalarga, yolg'iz onalarga federal budjet hisobidan bepul ovqat uchun talonlar, nafaqalar berish ko'zda tutilgan.

Ijtimoiy ta'minot to'g'risidagi qonun 1935-yilda qabul qilingan. Keyinchalik ijtimoiy ta'minot masalalarida irqchilikka yo'l qo'ymaslikka qaratilgan, imtiyozli tibbiy xizmat ko'rsatishga oid, nogironlar to'g'risidagi va boshqa qonunlar qabul qilingan².

Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi a'zosi bo'lgan hamkorlarimizdagi ijtimoiy ta'minot qonunchilik tizimlari va bu sohada faoliyat yurituvchi davlat boshqaruvi organlari bir-biriga yaqin bo'lib, sobiq Ittifoq davlati davridagi asosiy shakliy jihatlarini saqlab qolmoqda. Ayni payta bu sohada tabaqalanish yaqqol ko'zga tashlanmoqda va bugungi kunda davlat pensiya ta'minoti tizimlari bilan bir qatorda nodavlat pensiyasi ham tez rivojlanib bormoqda. Bozor munosabatlarining chuqurlashib borayotgani va bu mamlakatlarda pensiya qonunchilik tizimlari islohoti tufayli boqimandalik kayfiyatlariga asta-sekin barham berilib, har bir fuqaroning davlat va jamiyat boyliklariga ko'proq hissa qo'shishiga qarab ta'minotni amalga oshirish yo'liga o'tilmoqda.

¹ Дюшер Ф. Конституционная защита прав и свобод личности. М., 1993; Франция. Конституция и законодательные акты. М., 1989.

² Qarang: Боботов С.В. Введение в правовую систему США. М., 1997.

KURSNI O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILAYOTGAN ADABIYOTLAR

1. *Karimov I.A.* Vatanimizning bosqichma-bosqich va barqaror rivojlanishini ta'minlash — bizning oliy maqsadimiz. T.17. — Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2009-yil. — 280-b.

2. *Karimov I.A.* Jahon inqirozining oqibatlarini yengish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish va taraqqiy topgan davlatlar darajasiga ko'tarish sari. T. 18. — „O'zbekiston“ NMIU, 2010-yil. — 280-b.

3. *Karimov I.A.* Mamlakatimizni modernizatsiya qilish va kuchli fuqarolik jamiyati barpo etish — ustuvor maqsadimizdir. O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 27-yanvar. // Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. — Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2010-yil.

4. *Karimov I.A.* Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligini yanada yuksaltirishdir. 2009-yilning asosiy yakunlari va 2010-yilda O'zbekistonni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruza, 2010-yil 29-yanvar. // Asosiy vazifamiz — Vatanimiz taraqqiyoti va xalqimiz farovonligi yanada yuksaltirishdir. — Toshkent: „O'zbekiston“ NMIU, 2010-yil.

5. *Karimov I.A.* Mamlakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish konsepsiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisida qilingan ma'ruza. „Xalq so'zi“. 2010-yil 12-noyabr.

6. *Karimov I.A.* O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 20-yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so'zi. „Xalq so'zi“. 2011-yil 1-sentabr.

7. *Karimov I.A.* Bizning yo'limiz — demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va modernizatsiya jarayonlarini izchil davom ettirish yo'lidir. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 19 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi ma'ruza. „Xalq so'zi“. 2011-yil 8-dekabr.

O'QUV VA MAXSUS ADABIYOTLAR

1. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Mualliflar jamoasi. — Toshkent, TDYI, 2005.
2. Андреев В.С. Право социального обеспечения. М., «Юридическая литература» 1997.
3. Tursunov Y., Shayimxonov Z. Ijtimoiy ta'minot huquqi. Darslik. TDYI, 2003.
4. Usmanova M.A., Tursunov Y., Gaziyeu Sh. Aholini yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va uning huquqiy asoslari. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2006, 158-b.
5. Usmanova M.A. O'zbekistonda ijtimoiy himoya: fuqarolik-huquqiy jihatlar. T., TDYI, 2006. 198-b.
6. Ahmedov D. Q. Bozor munosabatlari sharoitida davlat ijtimoiy himoya siyosatining huquqiy jihatlar. T., TDYI, 2006. 209-bet.
7. M.A. Usmanova. Aholini yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va uning huquqiy asoslari. O'quv qo'llanma. T., TDYI, 2009. 210-b.
8. Леонов А.С. Социальные права: Россия и Европа. — М.: Социальная защита, 1998, — С.127.
9. Мачульская Е.Е. Практикум по праву социального обеспечения. — М.: Норма, 1998. — С. 252.
10. Пуперс Д. Введение в законодательство о социальной защите в странах членах Европейского сообщества. — Лёвен: Институт Центральной и Восточной Европы, 1994. — №2. — с 170.
11. Sodiqov X.M., Bobojonov P.R., Qo'chqorov B.T. Onalik va bolalikni himoya qilish masalalari bo'yicha qonun hujjatlari to'plami. — Toshkent: O'zR Adliya vazirligi, 2004. — 656-b.
12. Usmanova M., Tursunov Y., Gaziyeu Sh. Aholini yo'naltirilgan ijtimoiy qo'llab-quvvatlash va uning huquqiy muammolari. O'quv qo'llanma. — Toshkent: TDYI, 2006. — 109-b.
13. Holbekov A., Matiboyev T.B. Ijtimoiy adolat va demokratiya: barqaror taraqqiyot yo'lida. — Toshkent: Yangi asr avlodi, 2004. —156-b.
14. G'ulomov M. Mahalla — fuqarolik jamiyati asosi. — Toshkent: Adolat, 2003. — 302-b.
15. Тучкова Е.Г., Захаров М.Л. «Социальное обеспечение и обслуживание пенсионеров». М.: «Наука», 1992 г.
16. Сулейманова Г.В. Социальное обеспечение и социальное страхование. М.: Экспертное бюро, 1998.
17. Тучкова Э.Г. Право социального обеспечения: Нормативные акты о пособиях и компенсационных выплатах. — М., 1995. — с 235.
18. «Ijtimoiy ta'minot huquqi» o'quv qo'llanma. jamoa hammuallifligi T., «Moliya», 2000.
19. «Ijtimoiy ta'minot huquqi» o'quv qo'llanma. Tursunov Y., Usmanova M.A. T. TDYUI., 2004-y.
20. Sh. Ismoilov. Ijtimoiy ta'minot huquqi. T., Toshkent davlat yuridik instituti, 2006.

MUNDARIJA

KIRISH	3
--------------	---

UMUMIY QISM

I BOB. „IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQI“ FANINING TUSHUNCHASI, MAZMUNI, TIZIMI. IJTIMOIY TA’MINOT TURLARI	4
--	---

- | | |
|---|---|
| 1.1. „Ijtimoiy ta’minot huquqi“ fanining tushunchasi,
fuqarolarning ijtimoiy ta’minot olishga bo’lgan
konstitutsiyaviy huquqlarining ta’minlanishidagi vazifalari | 4 |
| 1.2. „Ijtimoiy ta’minot huquqi“ fanining metodi.
Fanning tizimi | 5 |
| 1.3. „Ijtimoiy ta’minot huquqi“ fanining boshqa
fan sohalari bilan o‘zaro aloqadorligi | 7 |

II BOB. IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQINING ASOSIY TAMOIYILLARI	9
---	---

- | | |
|--|---|
| 2.1. Ijtimoiy ta’minot huquqi tamoyillari tushunchasi va
ularning tavsifi hamda ularning aholini ijtimoiy
ta’minlash va himoyalashdagi o‘rni | 9 |
|--|---|

III BOB. IJTIMOIY TA’MINOT HUQUQINING ASOSIY MANBALARI	15
---	----

- | | |
|---|----|
| 3.1. Ijtimoiy ta’minot huquqi manbalari sanaluvchi
qonunlar va boshqa qonun hujjatlariga tavsif | 15 |
| 3.2. Ijtimoiy ta’minot huquqi manbalari sanaluvchi
normativ-huquqiy hujjatlarning vaqt, fazo va shaxslar
o‘rtasida amal qilishi | 22 |

MAXSUS QISM

IV BOB. ISH STAJI TUSHUNCHASI, TURLARI VA ULARNI HISOBLASH TARTIBI	25
---	----

- | | |
|--|----|
| 4.1. Ish staji tushunchasi va uning fuqarolarga ijtimoiy
ta’minot berilishidagi ahamiyati | 25 |
| 4.2. Mehnat stajini hisoblash | 27 |
| 4.3. Ayrim turdagi mehnat faoliyati bilan bog‘liq bo‘lgan
mehnat stajini hisoblashning o‘ziga xos xususiyatlari | 30 |

4.4. Uzoq yillik xizmat davri va uning pensiya ta'minotining amalga oshirilishidagi ahamiyati	37
---	----

V BOB. YOSHGA DOIR PENSIYALAR

5.1. Yoshga doir pensiya tushunchasi, turlari va tayinlanishining umumiy asoslari	39
5.2. Umumiy asoslarda yoshga doir pensiya tayinlash va uning shartlari	40
5.3. Imtiyozli shartlarda yoshga doir pensiya tayinlash asoslari	42
5.4. To'liqsiz mehnat staji hamda muddatidan oldin yoshga doir pensiya tayinlash va ularning xususiyatlari	49

VI BOB. NOGIRONLIK TUSHUNCHASI VA UNI BELGILASH TARTIBI

6.1. Nogironlik tushunchasi, nogironlikning asosiy mezonlari va belgilanish tartibi	53
6.2. Nogironlik pensiyasi tayinlash asoslari va shartlari	58

VII BOB. BOQUVCHISINI YO'QOTGANLIK PENSIYASI

7.1. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi tushunchasi va uni tayinlash asoslari	62
7.2. Boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi olishga haqli bo'lgan shaxslar qaramog'ida bo'lish	64

VIII BOB. CHERNOBIL ATOM ELEKTROSTANSIYASIDA (CHAES) YUZ BERGAN AVARIYADAN ZARARLANISH TUFAYLI VA BOSHQA ATOM OBYEKTLARIDAGI FALOKATLAR OQIBATIDA NOGIRON BO'LIB QOLGAN FUQAROLARNING PENSIYA TA'MINOTI

8.1. CHAESda yuz bergan avariya zararlanish tufayli va boshqa atom obyektlaridagi falokatlar tufayli nogiron bo'lib qolgan fuqarolarning pensiyasi ta'minotining o'ziga xos xususiyatlari	69
8.2. CHAESda yuz bergan avariya tufayli zararlanish va boshqa atom obyektlaridagi falokatlar tufayli nogiron bo'lib qolgan fuqarolar, ularning oila a'zolariga pensiya tayinlash va hisoblashning o'ziga xos xususiyatlari	71

IX BOB. DAVLAT PENSIYASINI TAYINLASH

9.1. Davlat pensiyasini tayinlovchi organlar va ularning vakolatlari	75
9.2. Pensiya tayinlash uchun murojaat qilish va talab etiladigan hujjatlar	76

9.3. Korxona va tashkilotlar ma'muriyatining pensiya tayinlash uchun hujjatlarni tayyorlash va taqdim etish yuzasidan vazifalari	80
9.4. Pensiya tayinlashda o'rtacha oylik ish haqini hisoblab chiqarish tartibi	82
9.5. Pensiya tayinlash haqidagi hujjatlarni ko'rib chiqish va qaror qabul qilish	84

X BOB. PENSIYALARNI HISOBLASHNING UMUMIY QOIDALARI

10.1. Pensiyalarni hisoblab chiqarishning umumiy talablari	87
10.2. Pensiyani hisoblashda o'rtacha ish haqini aniqlash tartibi	90
10.3. Pensiyalarning tayanch (bazaviy) miqdori. Belgilanganidan ko'p ish staji uchun qo'shimcha. Pensiyaga ustamalar qo'shib hisoblash	94
10.4. Pensiyani qayta hisoblash	96

XI BOB. PENSIYANI TO'LASHNING UMUMIY QOIDALARI

11.1. Pensiya to'lashning umumiy tartibi. Ishlayotgan pensionerlarga pensiya to'lash. Pensiyadan ushlab qolishni cheklanishi	101
11.2. Ishlab turgan pensionerlarga pensiya to'lash	103
11.3. Pensiya to'lash uchun sarflangan mablag'larni korxona va tashkilotlardan qaytarib olish asoslari va tartibi	105
11.4. Fuqarolar tomonidan huquqlari suiiste'mol qilingani holda to'langan ortiqcha pensiya summalarini qaytarib olish	106
11.5. Harbiy xizmatchilarga pensiya tayinlash va to'lash	106

XII BOB. FUQAROLARNI NAFAQALAR BILAN TA'MINLASH

12.1. Nafaqalar bilan ta'minlash tushunchasi va nafaqalarning fuqarolar ijtimoiy ta'minotida tutgan o'rni	112
12.2. Davlat ijtimoiy sug'urtasi bo'yicha nafaqalar tayinlash va to'lash	114
12.3. Davlat ijtimoiy sug'urta nafaqalarining turlari	117

XIII BOB. IJTIMOY NAFAQALAR BILAN TA'MINLASH

13.1. Budget hisobidan tayinlanadigan nafaqalar va boshqa moddiy yordamlar	133
13.2. Fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari tomonidan tayinlanadigan va to'lanadigan nafaqalar	142

**XIV BOB. FUQAROLARGA KO'RSATILADIGAN
BOSHQA IJTIMOIIY YORDAMLAR VA IMTIYOZLAR**

14.1. Ijtimoiy himoya choralari va ularning umumiy tavsifi	152
14.2. Ijtimoiy muhofaza yordamining turlari	153
14.3. Pensioner va nogironlarni sanatoriy va kurortlarda davolash	159
14.4. Nogironlarga protez-ortopediya buyumlari, harakatlanish vositalari berish	161
14.5. Fuqarolarning ayrim toifalariga beriladigan ijtimoiy-iqtisodiy imtiyozlar	162

XV BOB. RIVOJLANGAN MAMLAKATLARDI IJTIMOIIY

TA'MINOT VA IJTIMOIIY HIMOIY 167

15.1. Mustaqil davlatlar hamdo'stligi	167
---	-----

**KURSNI O'RGANISH UCHUN TAVSIYA ETILAYOTGAN
ADABIYOTLAR**

1. Rahbariy adabiyotlar	170
2. O'quv va maxsus adabiyotlar	171

Tursunov, Yo'ldash
60.54 Ijtimoiy ta'minot huquqi: kasb-hunar kolleji o'quvchilari
T-95 uchun darslik. / Y. Tursunov; O'zbekiston Respublikasi Oliy
va o'rta maxsus ta'lim vazirligi. — Toshkent: „O'qituvchi“
NMIU, 2013. 176 b.

ISBN 978-9943-02-693-3

UO'K:349.3(075)
KBK 60.54

YO'LDOSH TURSUNOV

IJTIMOIIY TA'MINOT HUQUQI

Kasb-hunar kollejlari uchun darslik

*„O'qituvchi“ nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent — 2013*

Muharrir *F. Qosimova*
Badiiy muharrir *Sh. Xo'jayev*
Texnik muharrir *E. Stepanova*
Kompyuterda sahifalovchi *S. Musajonova*
Musahhih *Z. G'ulomova*

Nashriyot litsenziyasi AI №161. 14.08.2009. Original-maketdan
bosishga ruxsat etildi 28.10.2013. Bichimi 60×90 $\frac{1}{16}$. Garn. Tayms.

Kegli 11 shponli. Ofset bosma usulida bosildi. Ofset qog'ozi.

Shartli b. t.11,0. Hisob-nashriyot t. 10,8. Adadi 653 nusxa.

Buyurtma №

O'zbekiston Matbuot va axborot agentligining „O'qituvchi“ nashriyot-matbaa
ijodiy uyi. Toshkent — 129, Navoiy ko'chasi, 30- uy. // Toshkent,

Yunusobod dahasi, Yangishahar ko'chasi, 1- uy.

Shartnoma № 07-111-13.